SI texnologiyalari “aqlli” energiya tarmoqlari, aqlli qishloq xo‘jaligi, chiqindi logistikasi va ekologik monitoring tizimlarida keng qo‘llanilmoqda. Bu esa mehnat bozorida yangi ko‘nikmalarni talab qiladi va bandlik siyosatida sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltiradi. Boshqa tomondan, avtomatlashtirishning chuqurlashuvi ba’zi an’anaviy kasblarning qisqarishiga olib kelishi mumkin, ammo parallel ravishda yuqori malaka va texnologik ko‘nikmalarga asoslangan yangi kasbiy rollar shakllanmoqda. Masalan, quyosh energetikasi tarmoqlarida O‘zbekistonda 2024-yilda quyosh paneli orqali elektr tizimlarining montaji, texnik xizmat va logistikasi sohalarida 5 000+ bevosita ish o‘rni, shuningdek 15 000+ bilvosita ish o‘rinlari yaratilgan. Bu raqamlar solar sektoridagi investitsiyalar jadal oshayotganini va keng ko‘lamli bandlik potensialini ko‘rsatadi [1].

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SI yashil iqtisodiyot tarmoqlarida sof bandlik o‘sishiga xizmat qilishi mumkin. Bu esa davlat siyosatida reskilling va upskilling dasturlarini joriy etish, yashil ko‘nikmalar standartlarini ishlab

chiqish va mehnat bozorida innovatsion transformatsiyani qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydi.

Global ko‘lamda, qayta tiklanuvchi energetikadagi bandlik 2023-yilda 16,2 mln kishiga yetdi (2022-yildagi 13,7 mln.dan +18%), bu tarmoqning tez kengayayotganini ko‘rsatadi [2]. Tizimli siyosatlar bilan 2030-yilgacha 24 mln yangi “yashil” ish o‘rni yaratilishi prognoz qilinadi. O‘zbekistonda esa 2030-yilga 54% qayta tiklanuvchi energiya ulushiga erishish maqsadi qo‘yilgan bo‘lib, ushbu transformatsiya minglab yangi ish o‘rinlarini shakllantirmoqda [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Sun’iy intellektning mehnat bozori va ish bilan bandlikka ta’siri bo‘yicha mavjud adabiyotlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: pessimist va optimist yondashuvlar. Ushbu yondashuvlarni o‘rganish orqali sun’iy intellektning turli jihatlarda qanday natijalarga olib kelishini tahlil qilish mumkin, ammo har bir yondashuvni O‘zbekiston sharoitida qay darajada qo‘llash mumkinligi ham muhim masaladir. Aynan shu sababli, ushbu maqolada faqat g‘oyalarni keltirish emas, balki ularning mintaqaviy mosligi va real iqtisodiy sharoit bilan uyg‘unligini baholashga urinish qilinadi.

Pessimist qarashlarga ko‘ra, avtomatlashtirish mehnat bozorida jiddiy qisqarishlarga olib keladi. Masalan, Frey va Osborne (2013) AQShdagi jami ish o‘rinlarining qariyb 47 foizi kompyuterlashtirish natijasida yo‘qolishi mumkinligini ta’kidlagan va ayniqsa xizmat ko‘rsatish sohasi katta xavf ostida ekanini qayd etgan [4]. Bowles (2014) esa Yevropa Ittifoqi bo‘yicha hisob-kitoblarda ish joylarining 54 foizi avtomatlashtirish ta’siriga sezgir ekanini ko‘rsatgan [5]. Shuningdek, Acemoglu va Restrepo (2017) AQShning avtomatlashtirish kuchli bo‘lgan hududlarida 1990–2000-yillar davomida bandlik va ish haqining pasayishi kuzatilganini aniqlagan va buni “zaif tiklanish effekti” bilan izohlagan [6].

Biroq, bu qarashlar ko‘pincha rivojlangan davlatlar kontekstida shakllangan bo‘lib, O‘zbekiston kabi o‘tish iqtisodiyotlari uchun ularni bevosita qo‘llash murakkabdir. Zero, O‘zbekistonning mehnat bozori tuzilmasi, sektorlararo bandlik nisbatlari va texnologik tayyorgarlik darajasi AQSh yoki Yevropa Ittifoqi bilan solishtirganda mutlaqo boshqacha. Shu sababli, ushbu pessimist yondashuvlar ogohlantirishlar berishi mumkin bo‘lsa-da, ularni kontekstual tarzda, milliy strategiyalar doirasida tahlil qilish lozim. O‘zbekiston mehnat bozorining sektoral tuzilmasi baholashlarni kontekstual talqin qilishni talab etadi: xizmatlar sektori bandlikning ≈50% ini (2022) tashkil etadi, qishloq xo‘jaligidagi bandlik 2023-yilda 13,9% gacha pasaydi; qolgan ulush sanoat va qurilish hissasiga to‘g‘ri keladi [7; 8] Bu tarkib, ayniqsa past-rutin va mijozga yo‘naltirilgan xizmatlarda, to‘liq avtomatlashtirish xavfini pasaytirib, vazifa darajasidagi augmentatsiya ssenariylarini kuchaytiradi.

Keyingi tadqiqotlarda sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’sir mexanizmlari yanada chuqurroq tahlil qilinmoqda. Gries (2018) raqamli

iqtisodiyot sharoitida bandlik va kasbiy transformatsiya jarayonlarini tahlil qilib, texnologik omillar ishchi kuchining sifat tarkibiga ta’sir ko‘rsatayotganini asoslaydi [9]. Cappelli (2019) esa avtomatlashtirish jarayoni yangi kasbiy rollarning shakllanishiga xizmat qilayotganini ko‘rsatib, mehnatning mazmuniy jihatdan yangilanishi masalasini kun tartibiga olib chiqadi [10].

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO, 2023) o‘z hisobotida sun’iy intellektni inson mehnatini to‘liq almashtiruvchi emas, balki uni to‘ldiruvchi texnologiya sifatida baholaydi. Bu yondashuv zamonaviy bandlik siyosatlarida sun’iy intellektni inson resurslari bilan uyg‘unlashtirish orqali sifat o‘zgarishlarini keltirib chiqarish mumkinligini ta’kidlaydi [11].

Korxona darajasidagi tadqiqotlar ham bu yo‘nalishni tasdiqlaydi. Jumladan, Saba (2024) sun’iy intellektdan foydalanish samaradorlik va bandlik o‘rtasidagi qarama-qarshi munosabatni rad etib, ularni bir vaqtning o‘zida oshirish mumkinligini amaliy misollar orqali asoslaydi [12]. Bu yondashuv texnologik o‘zgarishlarning ijtimoiy natijalarini optimallashtirishga doir muhim xulosalarni ilgari suradi.

Marguerit (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqot esa AI rivojlanishining ish haqiga differensial ta’sirini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari ayrim kasblarda avtomatlashtirish, boshqalarida esa sun’iy intellekt bilan birgalikda ishlash orqali qiymat yaratish (augmentatsiya) jarayonining ustunligini ochib beradi [13]. Bunday qarama-qarshi dinamikalar bandlik siyosatining sohalar va malaka darajalariga mos moslashuvchanligini talab qilmoqda.

AI ta’sirining jamiyatdagi tengsizliklarga ko‘rsatadigan natijalariga e’tibor qaratgan Ganuthula va Balaraman (2025) esa sun’iy intellekt mehnat bozorida polarizatsiya jarayonlarini kuchaytirishini, yuqori malakali ishchilarga bo‘lgan talabning ortishi fonida past malakali qatlamlar imkoniyatlarining qisqarishi mumkinligini qayd etgan [14]. Ushbu tendensiyalar texnologiyalarning ijtimoiy barqarorlikka ta’sirini baholashda muhim omil sifatida qaralmoqda.

Optimist yondashuv tarafdorlari esa sun’iy intellektni ish o‘rinlarini yo‘q qiluvchi emas, balki yangilovchi va samaradorlikni oshiruvchi omil sifatida talqin qilishadi. Lawrence (2017) avtomatlashtirishni “ijodiy halokat” sifatida baholab, qisqa muddatli yo‘qotishlar uzoq muddatda yangilanish va mahsuldorlik orqali qoplanishini ta’kidlaydi [15]. Bloom (2022) esa sun’iy intellektning global integratsiyasi natijasida 2022–2030-yillar davomida 734 milliondan ortiq yangi ish o‘rni yaratilishi mumkinligini prognoz qilgan [16]. Global miqyosda, IRENA ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya sohasida bandlik 16,2 million kishiga yetgan, bu 2022-yildan (13,7 million) sezilarli oshish demak. Bu tendensiya O‘zbekiston kabi mamlakatlar uchun signal, chunki toza energiya tarmoqlarining kengayishi bilan talab qilinadigan professional ko‘nikmalar va ishchilarning malaka profili ham o‘zgaradi.

Bholat (2020) tomonidan ilgari surilgan tarixiy yondashuv esa ilgari ro‘y bergan texnologik o‘zgarishlar real daromadni oshirish, mahsulot va xizmatlarni arzonlashtirish hamda yangi ish turlarini shakllantirish orqali mehnatga bo‘lgan talabni faollashtirganini ko‘rsatadi [17]. Ushbu empirik kuzatishlar AI texnologiyalarining ham o‘xshash ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir kuchiga ega bo‘lishi mumkinligini taxmin qilishga asos beradi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’sir mexanizmlari yanada chuqurroq tahlil qilinmoqda. Gries (2018) raqamli iqtisodiyotda mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida avtomatlashtirish va bandlik o‘rtasidagi muvozanatni ochib bergan bo‘lib, texnologik omillar va ishchi kuchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning murakkabligi ta’kidlangan [9].

Cappelli (2019) esa kelajak mehnat bozorida sun’iy intellekt va avtomatlashtirish natijasida shakllanayotgan yangi kasbiy rollarga urg‘u beradi [10]. Bu qarashlar zamonaviy bandlik muhitida kasb strukturasining dinamik evolyutsiyasini tushunishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

MDH tadqiqotchilari Shirinkina va Kelchevskaya (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, malaka tizimini yangilash va raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish masalalariga yo‘naltirilgan bo‘lib, sun’iy intellekt ta’sirini yumshatishda strategik omil sifatida inson resurslarini qayta moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi [18].

O‘zbekiston ilmiy maktablarida ham bu borada izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, Akademik K.X. Abduraxmonov tomonidan tayyorlangan “Трансформация рынка труда в условиях внедрения искусственного интеллекта”[19] (2023) maqolasida va “Искусственный интеллект — основа устойчивого развития экономики”[20] (2023) monografiyasida sun’iy intellekt texnologiyalarining mehnat bozori va iqtisodiy taraqqiyotga ko‘rsatadigan ta’siri chuqur ilmiy asosda yoritilgan. Muallif ushbu asarlarida sun’iy intellektning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi, yangi ish o‘rinlari shakllanishidagi va transformatsiyalanuvchi mehnat bozori tarkibidagi o‘rnini tizimli ravishda tahlil qiladi. Ayniqsa, qayta tayyorlash, malaka oshirish va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish kabi dolzarb masalalarga urg‘u berilgani bilan ajralib turadi. Abduraxmonov K.X. ta’kidlagan texnologik transformatsiya yo‘nalishlari O‘zbekistonda allaqachon bandlik natijalarini bermoqda: IT Park rezidentlari 2023-yilda $1,0 mlrd xizmat ko‘rsatib, $344 mln eksport qildi va 2024-yil 1-yanvar holatiga 26 ming+ ish o‘rni yaratdi [21]. Energetik transformatsiyada esa 2024-yilda Senat tomonidan 2030-yilgacha 27 GW qayta tiklanuvchi quvvat va elektr ishlab chiqarishda 40% ulush maqsadi belgilandi. Xalqaro bandlik koeffitsientlariga tayansak, har 1 GW quyosh PV taxminan 15–18 ming qurilish-o‘rnatish job-yearini, 1 GW quruqlikdagi shamol esa ~4 200 job-yearni shakllantiradi; shamolda ekspluatatsiya bosqichida ~0,086 FTE/MW (ya’ni ~86 ish o‘rni/GW) doimiy O&M bandligi kuzatiladi. Shu kabi ko‘rsatkichlar O‘zbekistonning 2030 sari

rejalashtirilgan QTEM loyihalari bo‘yicha o‘n minglab “job-year”lar ko‘rinishidagi vaqtinchalik bandlik hamda minglab doimiy O&M ish o‘rinlari paydo bo‘lishini indikativ tarzda ko‘rsatadi [22; 23; 24].

Shu bilan birga, Aminov (2025) tomonidan yashil iqtisodiyotga o‘tishda bandlik va inson kapitali rivojlanishini ustuvor omil sifatida ko‘rsatilgan [25] O‘zbekiston kabi transformatsion bosqichdagi iqtisodiyotlar uchun amaliy yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Yaxshiboev va Ermetov (2024) tomonidan bildirilgan fikrlarda esa sun’iy intellekt iqtisodiy o‘sishga va yangi ish o‘rinlari yaratilishiga salmoqli hissa qo‘shishi mumkinligi ta’kidlanib, ayni paytda qayta tayyorlash va malaka oshirish siyosati bilan bu texnologik siljishlar muvozanatga keltirilishi zarurligi ta’kidlaydilar [26]. Bu nuqtai nazar sun’iy intellektning bandlikka ijobiy ta’siri faqatgina tegishli siyosiy infratuzilma mavjud bo‘lgandagina namoyon bo‘lishini anglatadi.

Xalqaro miqyosdagi tahlillar ham ushbu fikrlarni mustahkamlab boradi. Masalan, Petreski [27] (2023) o‘tish iqtisodiyotlarida yashil investitsiyalar mehnat unumdorligi va bandlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishini statistik dalillar asosida ko‘rsatgan.

Bone, Ehlinger va Stephany (2023) tadqiqotlarida esa an’anaviy ta’lim darajasi emas, balki amaliy ko‘nikmalarga asoslangan yondashuvlar muhim ekani ta’kidlanib [28], bu transformatsiyalanuvchi mehnat bozorlarida yollash siyosatini tubdan o‘zgartirayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, “Digital Technologies and Labor Market of Uzbekistan” (2024) tadqiqoti natijalari sun’iy intellekt va raqamlashtirish O‘zbekiston mehnat bozorida mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish, moslashuvchanlikni kuchaytirish va iqtisodiy faoliyatda samaradorlikni oshirish omiliga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bunday yondashuvlar O‘zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning mehnat bozoriga bo‘lgan salbiy emas, aksincha kuchaytiruvchi ta’sirini belgilovchi muhim jihatlarni ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar SI ning mehnat bozoriga ta’sirini ikki qutbda baholaydi: pessimistlar yo‘qotish xavflarini ko‘rsatsa, optimistlar yangi imkoniyatlar va transformatsiyani asoslaydilar, lekin adabiyotlarni chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak sun’iy mehnat bozoriga ijobiy ta’siri ko‘proq ekanligini ko‘rishimiz mumkin, bu esa yashil iqtisodiyot sharoitida ish o‘rinlari sonini ortirishga ko‘mak beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda sun’iy intellektning mehnat bozori hamda ish bilan bandlikka ta’sirini o‘rgangan ilmiy manbalar tahlil qilinib, ularning asosiy yondashuvlari tizimlashtirildi, xalqaro va O‘zbekistonning rasmiy statistik ma’lumotlari qo‘llanildi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi shuningdek, monografik yondashuv va mexanizmlarini guruhlashda esa tasniflash usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Sun’iy intellektning joriy etilishi mehnat bozoridagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ishchi kuchiga bo‘lgan talab, mehnat unumdorligi, aholi daromadlari va ish bilan bandlik darajasini keskin o‘zgartirib bormoqda. Yangi texnologiyalar ish jarayonlarini tubdan transformatsiya qilib, avvalo mehnat mazmuni va ish joylarining tarkibiy xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda mashinalar faqat insonlar bajaradi deb hisoblangan vazifalarni ham o‘z zimmasiga olish bilan cheklanmay, balki inson imkoniyatlaridan yuqori darajadagi vazifalarni bajarish qobiliyatiga ega ekanligi ham olimlar tomonidan ta’kidlanmoqda.

Aqlli ishlab chiqarish tizimlari robototexnika, ashyolar interneti va katta ma’lumotlar tahlili kabi omillar orqali mehnat bozorida taklif va talab muvozanati yangi shaklga kirmoqda. Bu jarayon ayrim kasblarni yo‘qolishi xavfini yaratayotgan bo‘lsa, boshqa sohalarda mutlaqo yangi turdagi ish o‘rinlarini yuzaga keltirmoqda. Natijada sun’iy intellektning ta’sirini ikki yo‘nalishda ko‘rish mumkin:

Salbiy ta’sir avtomatlashtirish jarayonida an’anaviy kasblarning qisqarishi va ehtimoliy ishsizlikning ortishi.

Ijobiy ta’sir yangi sohalar va texnologiyalarga mos kasblarning paydo bo‘lishi, ish samaradorligining oshishi.

Shu bois, mehnat bozorida keskin o‘zgarishlar yuz bermasligi uchun xodimlarning raqamli iqtisodiyot sharoitida talab qilinadigan zamonaviy ko‘nikmalar bilan ta’minlanishi muhim hisoblanadi. Bunda qayta tayyorlash, malaka oshirish va uzluksiz ta’lim tizimlarini rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.



1-rasm. Sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’sirining sxemasi

Manba: Muallif ishlanmasi

Ushbu sxema sun’iy intellekt texnologiyalarining mehnat bozoriga ko‘rsatadigan ta’sirini izchil ravishda ifodalaydi. Modelning birinchi elementi sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘lib, unga robototexnika, internet ashyolari (IoT) va katta ma’lumotlar tahlili kiradi. Ular ish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishning asosiy drayverlari sifatida mehnat bozorida yangi bosqichni boshlab beradi.

Ikkinchi bosqichda sun’iy intellektning to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sirlari namoyon bo‘ladi. Bu jarayon ish jarayonlarining tubdan transformatsiyasini, ishchi kuchining vazifalarini qayta taqsimlanishini hamda mehnat unumdorligining ortishi kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, mehnat bozorida talab va taklif muvozanati yangicha shakllanadi.

Uchinchi tarkibiy qism muvofiqlashtiruvchi omillar bo‘lib, ular sun’iy intellektning salbiy ta’sirini kamaytirish yoki ijobiy samarasini kuchaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yangi ko‘nikmalarga talabning oshishi, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari, ta’lim tizimining raqamlashtirishga moslashuvi hamda faol mehnat bozori siyosatlari xodimlarning raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

To‘rtinchi bosqichda esa sun’iy intellektning ikki yo‘nalishli natijalari kuzatiladi. Salbiy jihatdan, an’anaviy kasblarning qisqarishi, ishsizlikning o‘sishi va daromadlar tengsizligi xavfi mavjud. Ijobiy jihatdan esa yangi kasb va ish o‘rinlarining paydo bo‘lishi, ish samaradorligi va aholi daromadlarining o‘sishi, shuningdek mehnat sharoitlarining yaxshilanishi kabi imkoniyatlar yuzaga keladi.

Modelning yakuniy nuqtasi “yangi mehnat bozori tuzilmasi” bo‘lib, u sun’iy intellekt ta’sirida shakllanadigan zamonaviy ish bozorini ifodalaydi. Bu bozorda raqamli texnologiyalar, innovatsiya va inson kapitali uyg‘un tarzda birlashib, barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanish uchun yangi sharoit yaratadi.



2-rasm. Sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’sirining tizimli tahlili

Manba: Muallif ishlanmasi

Ushbu 2-rasmdagi tizimli tahlilda sun’iy intellektning mehnat bozoriga ko‘rsatadigan ta’sirini izchil tarzda ifodalaydi. Tahlilda jarayon besh bosqichda aks ettirilgan bo‘lib, ularning har biri mehnat bozorining transformatsiyasida alohida ahamiyatga ega.

Birinchisi, bosqichda sun’iy intellekt texnologiyalari hisoblanadi. Robototexnika, internet ashyolari (IoT), katta ma’lumotlar tahlili va generativ sun’iy intellekt kabi texnologiyalar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlariga joriy etilishi mehnat bozoridagi barcha o‘zgarishlarning asosiy manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich ta’sir mexanizmlaridir. Ushbu mexanizmlar uchta yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

Avtomatlashtirish yoki almashtirish mexanizmi rutin va standart vazifalarni robotlar bajara boshlashi natijasida ayrim ish o‘rinlari qisqarishiga olib keladi.

Augmentatsiya yoki komplementarlik mexanizmi sun’iy intellekt inson mehnatini to‘ldirib, uning samaradorligini oshiradi va yangi ish usullarini shakllantiradi.

Transformatsiya yoki yaratish mexanizmi sun’iy intellekt tufayli umuman yangi sohalar, xizmatlar va kasblar vujudga keladi.

Uchinchi bosqich muvofiqlashtiruvchi institutlardir. Bu yerda ta’lim va qayta tayyorlash tizimi, davlatning mehnat bozoridagi siyosati, ijtimoiy kafolatlar hamda biznesning texnologiyaga moslashuv strategiyalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan shu institutlar sun’iy intellektning salbiy oqibatlarini yumshatish yoki ijobiy imkoniyatlarini kuchaytirishda asosiy tarkibiy qism sifatida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchi bosqich natijalar. Ularni ikki yo‘nalishda ko‘rish mumkin:

Qisqa muddatli xavflar ishsizlikning o‘sishi, ayrim kasblarning yo‘qolishi va tengsizlikning kuchayishi.

Uzoq muddatli imkoniyatlar yangi kasblar va ayniqsa yashil iqtisodiyotdagi ish o‘rinlari, mehnat unumdorligining ortishi, aholi daromadlarining o‘sishi va barqaror iqtisodiy rivojlanish.

Nihoyat, beshinchi bosqich fikr-mulohaza mexanizmi. Bu bosqichda yangi mehnat bozoridagi natijalar ta’lim tizimi va davlat siyosatlariga qayta ta’sir ko‘rsatib, kelgusi bosqichdagi strategiya va islohotlarni belgilab beradi.

Shu tarzda, model sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’sirini statik emas, balki dinamik va tizimli jarayon sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv mehnat bozoridagi xavf va imkoniyatlarni uyg‘un ravishda tahlil qilish hamda samarali siyosiy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini yaratadi.

3-grafikda sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’siri bosqichma-bosqich jarayon sifatida ko‘rsatilgan. Har bir bosqichda ish o‘rinlari tarkibi asta-sekin o‘zgarib boradi hamda yangi mehnat munosabatlariga yo‘l ochiladi.



3-rasm. Sun’iy intellektning ish o‘rinlariga ta’siri va yashil iqtisodiyotda mehnat bozorining shakllanishi

Manba: Muallif ishlanmasi

Birinchi bosqichda oddiy mexanik vazifalar qisqaradi. Bu bosqichda qadoqlash, yuklash yoki yig‘ish kabi mehnat turlari robototexnika va avtomatlashtirilgan tizimlarga o‘tadi.

Ikkinchi bosqichda raqamli va standart jarayonlar avtomatlashtiriladi. Hisobot tuzish, hisob-kitoblarni yuritish kabi rutinali kognitiv vazifalar sun’iy intellekt zimmasiga yuklanadi.

Uchinchi bosqich moslashuv davrini ifodalaydi. Xizmat va boshqaruv funksiyalarining bir qismi o‘zgaradi, bu esa raqamli ko‘nikmalarga talabni oshiradi hamda malaka oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

To‘rtinchi bosqich innovatsion bosqich bo‘lib, unda yangi ko‘nikmalar shakllanadi va ayniqsa yashil iqtisodiyotga oid kasblar paydo bo‘ladi. Qayta tiklanuvchi energetika, chiqindilarni boshqarish, resurslarni tejash kabi yo‘nalishlar mehnat bozorida yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Beshinchi bosqich barqarorlik davrini ifodalaydi. Bu bosqichda sun’iy intellekt va inson mehnati uyg‘unlashgan holda samarali va ekologik toza yashil mehnat bozori shakllanadi.

Shunday qilib, model nafaqat ish o‘rinlarining qisqarish xavfini, balki yangi, barqaror va yashil ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlarini ham ko‘rsatib beradi.

Sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’siri, ayniqsa yashil iqtisodiyot sharoitida, murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan grafik, sxemalardan ko‘rinib turibdiki, SI texnologiyalari ishchi kuchiga bo‘lgan talabni sifat jihatdan o‘zgartirib, bir tomondan an’anaviy vazifalarni qisqartirsa, boshqa tomondan yangi faoliyat turlarini

yaratadi. Bu holat mehnat bozorida ikki tomonlama oqibatlarni yuzaga keltiradi: qisqa muddatda ayrim kasblar yo‘qolishi va ishsizlik xavfi kuchayadi, biroq uzoq muddatda yangi kasblar, ayniqsa ekologik barqaror yo‘nalishlarda ish o‘rinlari paydo bo‘ladi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasida sun’iy intellektning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, qayta tiklanuvchi energetika tizimlarida SI energiya iste’molini optimallashtirish, chiqindilarni boshqarish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu orqali, nafaqat samaradorlik ortadi, balki yangi malakalarga ega ishchi kuchiga ehtiyoj vujudga keladi. Shunday qilib, SI nafaqat an’anaviy sohalarda o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi, balki yashil iqtisodiyotda barqaror mehnat bozorini shakllantirishda katalizator vazifasini bajaradi.

SI texnologiyalarining keng joriy etilishi mehnat bozorida malaka nomuvofiqligi muammosini keskinlashtiradi. An’anaviy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lgan ishchi kuchi ko‘pincha yangi raqamli yoki analitik ko‘nikmalarga ega emas. Natijada, mavjud ishchi kuchi qisqa muddatda o‘z malakasi bilan mos kelmaydigan sharoitda qolib ketadi. Biroq ishchi kuchini yangi malakalarga tayyorlash ularning yangi mehnat faoliyati bilan shug’ullanish ehtimolini oshirishi mumkin. So‘nggi yillarda O‘zbekiston qayta tiklanuvchi energiya sohasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda: 2018-yilda umumiy qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvati taxminan 1 844 MW bo‘lgan va mamlakat energiya iste’moli ichida QTEM ulushi ≈ 3% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda QTEM quvvati ~2 668 MW gacha oshgan. Hukumat maqsadi 2030-yilgacha QTEM quvvatini 20-30 GW darajasiga yetkazish va elektr iste’molida QTEM ulushini 40-54% ga yetkazish. Bu ish bilan bandlik uchun bir yillik bandlik birligi shakllanishi mumkin bo‘lgan futuristik ehtimollarni keltirib chiqaradi [2; 23; 24]

Yashil iqtisodiyot kontekstida ushbu nomuvofiqlik yanada yaqqol ko‘rinadi. Qayta tiklanuvchi energetika, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik monitoring kabi yo‘nalishlarda faqatgina raqamli bilimlar emas, balki barqaror rivojlanish tamoyillarini tushunish ham talab etiladi. Shunday ekan, SI joriy etilishi faqat yangi texnologiyalarni emas, balki yashil ko‘nikmalarni ham talab qiladi.

Shu sababli, ta’lim tizimi va qayta tayyorlash dasturlari sun’iy intellekt va yashil iqtisodiyot integratsiyasiga moslashtirilishi zarur. Malaka oshirish dasturlari orqali ishchi kuchiga nafaqat raqamli savodxonlik, balki resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligi va ekologik mas’uliyat kabi ko‘nikmalarni berish lozim. Aks holda, SI imkoniyatlari mehnat bozorida keng ijtimoiy tengsizliklarni yuzaga keltirishi mumkin. O‘zbekiston Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 2023–2024-yillardagi ma’lumotlariga ko‘ra, “raqamli va yashil ko‘nikmalar” bo‘yicha qayta tayyorlash dasturlari 120 mingdan ortiq ishsiz va band aholini qamrab olgan, ulardan 40 mingga yaqini yoshlar tashkil qilgan [8]. Xususan, IT Park va “Ishga

marhamat” monomarkazlari orqali 2023-yilda 26 mingdan ortiq mutaxassis yangi kasbga ega bo‘lgan [21].

Xalqaro prognozlar ham bu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi: ILO (2024) baholashiga ko‘ra, yashil iqtisodiyotga o‘tish davrida O‘zbekistonda 2030-yilgacha 1,5 mln nafargacha ishchi qayta tayyorlash va malaka oshirishi zarur bo‘ladi [29]. Bu shuni anglatadiki, mavjud reskilling tashabbuslari hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, ularning ko‘lami milliy strategiya darajasida kengaytirilishi zarur.

Sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’siri bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalarining salbiy oqibatlarini yumshatish va ijobiy imkoniyatlarini kengaytirish uchun maqsadli siyosiy chora-tadbirlar zarur. Avvalo, ta’lim va qayta tayyorlash tizimlarini modernizatsiya qilish muhimdir. Bu nafaqat raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki yashil iqtisodiyotga oid maxsus malakalarni (energiya samaradorligi, resurslarni tejash, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik muhandislik) shakllantirishni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Ikkinchidan, mehnat bozorini tartibga soluvchi faol siyosatlar talab qilinadi. Davlat tomonidan bandlik dasturlari va qayta kasbga yo‘naltirish mexanizmlari kuchaytirilsa, qisqa muddatli ishsizlik xavflarini kamaytirish mumkin. Shu jarayonda xalqaro tashkilotlar (ILO, OECD, UNEP) tajribalaridan foydalanish, shuningdek, O‘zbekistonning milliy bandlik strategiyasini sun’iy intellekt va yashil iqtisodiyot integratsiyasiga moslashtirish zarur.

Uchinchidan, innovatsion va ekologik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash muhim yo‘nalishlardan biridir. SI asosida ishlab chiqilgan texnologiyalarni energiya tejovchi uskunalar, aqlli qishloq xo‘jaligi, yashil transport va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan startaplar orqali rivojlantirish mumkin. Buning uchun davlat grantlari, soliq imtiyozlari va venchur investitsiyalar mexanizmlaridan keng foydalanish lozim.

Nihoyat, ijtimoiy himoya tizimlarini mustahkamlash ham dolzarbdir. SI tufayli qisqa muddatda ishsiz qoladigan qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash uchun nafaqalar, vaqtincha subsidiyalar va yangi ish topishga yordam beruvchi dasturlar zarur bo‘ladi. Bunday yondashuv mehnat bozorida barqarorlikni ta’minlabgina qolmay, balki uzoq muddatda yashil va inklyuziv o‘sishni ham rag‘batlantiradi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt mehnat bozoriga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: qisqa muddatda ayrim vazifalar va kasblar yo‘qolishi hisobiga ishsizlik xavfi kuchayadi, biroq uzoq muddatda yangi imkoniyatlar, ayniqsa yashil iqtisodiyot doirasida barqaror ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. SI texnologiyalari nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish va ekologik monitoring kabi yo‘nalishlarda yangi kasblar shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan sxema va grafiklardan ko‘rinib turibdiki, mehnat bozorining kelajakdagi barqarorligi ta’lim tizimi, qayta tayyorlash dasturlari va faol bandlik siyosatlarining qanchalik samarali amalga oshirilishiga bog‘liq. Shu bilan birga, SI asosida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Umuman olganda, sun’iy intellektni yashil iqtisodiyotga integratsiya qilish O‘zbekiston mehnat bozorida yangi, samarali va ekologik toza ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi. Buning uchun davlat, biznes va ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish va inson kapitaliga investitsiyalarni ko‘paytirish zarur. Shundagina SI texnologiyalarining imkoniyatlari to‘liq ro‘yobga chiqib, mehnat bozorida barqaror va inklyuziv rivojlanish ta’minlanadi.

Yakuniy hisob-kitoblarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yilda sun’iy intellekt va raqamlashtirish bilan bog‘liq 4,2 ming yangi ish o‘rni yaratilgan, shulardan 1,5 mingga yaqini bevosita “yashil iqtisodiyot” tarmoqlariga (quyosh elektr stansiyalari, chiqindilarni qayta ishlash, aqlli qishloq xo‘jaligi) to‘g‘ri kelgan [30]. IT Park natijalari asosida, har bir $1 mln IT xizmatlari eksporti o‘rtacha 75 ta yangi ish o‘rni yaratmoqda [21], bu esa kelgusida SI texnologiyalarining bandlikka sof ijobiy ta’sirini kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Euroasia Insurance (EAI). (2024). Statistics of solar energy development in Uzbekistan: results of 2024 and plans for 2025. https://eai.uz/en/articles/solar-energy-statistics-uzbekistan.

2. IRENA & ILO. (2024). Renewable Energy and Jobs – Annual Review 2024. Abu Dhabi/Geneva: IRENA/ILO..

3. Enerdata. (2024). Uzbekistan targets 27 GW of renewable capacity and 40% in power generation by 2030. https://www.enerdata.net/publications/daily-energy-news/uzbekistan-targets-27-gw-renewable-capacity-and-40-power-generation-2030.html

4. Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2013). The future of employment: How susceptible are jobs to computerisation? Oxford Martin School, University of Oxford.

5. Bowles, J. (2014). The computerisation of European jobs. Bruegel Working Paper, 2014/07.

6. Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2017). Robots and jobs: Evidence from US labor markets (No. w23285). National Bureau of Economic Research. https://doi.org/10.3386/w23285

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). Aholi bandligi bo‘yicha ma’lumotlar (2023). https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/64298-uzbekistonda-bandlik-darajasi-2023-yilda-6-8-ga-tushgan

8. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. (2024). 2023-2024 yillarda bandlik va malaka oshirish dasturlari bo‘yicha hisobot. https://mehnat.uz/en.

9. Gries, T., & Naudé, W. (2018). Artificial intelligence, jobs, inequality and productivity: Does aggregate demand matter? (No. 2018-047). UNU-MERIT Working Paper. https://doi.org/10.2139/ssrn.3299283

10. Cappelli, P. (2019). Automation, skills and the future of work. Harvard Business Review.

11. ILO. (2023). Generative AI and Jobs. ILO Working Paper No. 96.

12. Saba, C. S., et al. (2024). The impact of artificial intelligence (AI) on employment. Journal of Economic Analysis.

13. Marguerit, D. (2025). Augmenting or automating labor? arXiv:2503.19159.

14. Ganuthula, V. R. R., & Balaraman, K. K. (2025). Skill-Based Labor Market Polarization. arXiv:2501.15809.

15. Lawrence, M., Roberts, C., & King, L. (2017). Managing automation: Employment, inequality and ethics in the digital age. Institute for Public Policy Research (IPPR).

16. World Economic Forum. (2025). The Future of Jobs Report 2025. https://www.weforum.org/publications/the-future-of-jobs-report-2025/.

17. Bholat, D. (2020). The impact of machine learning and AI on the UK economy. Bank of England Speech. https://www.bankofengland.co.uk/speech/2020/david-bholat-speech-the-impact-of-machine-learning-and-ai-on-the-uk-economy.

18. Ширинкина Е.В., Кельчевская Н.Р. (2021). Развитие цифровых компетенций и человеческого капитала в контексте внедрения ИИ. Московский экономический журнал

19.Трансформация рынка труда в условиях внедрения искусственного интеллекта/ Абдурахманов К.Х./ Журнал Экономика труда, Том 10, №2.-М.: 2023, С.227-245, ISSN 24101613

20. Абдурахманов К. Х. Искусственный интеллект – основа устойчивого развития экономики : монография. – Москва : ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г. В. Плеханова», 2023. – 356 с.

21. IT Park Uzbekistan. (2024). Results of 2023. Transformation and plans for 2024. https://it-park.uz/en.

22. Hanna, R., Heptonstall, P., & Gross, R. (2024). Job creation in a low carbon transition to renewables and energy efficiency: a review of international evidence. Sustainability Science. https://doi.org/10.1007/s11625-023-01440-y.

23. Kotarbinski, M., et al. (2020). Workforce and economic development considerations from the U.S. offshore wind industry. National Renewable Energy Laboratory (NREL).

24. IEA. (2021). Uzbekistan Energy Profile. https://www.iea.org/reports/uzbekistan-energy-profile.

25. Aminov, F. (2025). Employment and human capital development in the context of a green economy. International Journal of Artificial Intelligence, Academic Publishers.

26. Yaxshiboyev, R.E., & Ermetov, E.Y. (2024). Sun’iy intellektning iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlarini yaratishga ta’siri. Innovatsiya va fan jurnali, O‘zbekiston.

27. Petreski, M., Tanevski, I., & Stojmenovska, D. (2023). Employment, labor productivity and environmental sustainability: Firm-level evidence from transition economies. arXiv:2310.18989.

28. Bone, J., et al. (2023). Skills or degree? arXiv:2312.11942.

29. Digital Technologies and Labor Market of Uzbekistan. (2024). ACM Digital Library. DOI: 10.1145/3644713.3644747.

30. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2024). 2023-yilda raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt orqali ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha hisobot. https://mitc.uz/en.

MEHNAT IQTISODIYOTI
VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117
https://laboreconomics.uz/

TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA MARKETING STRATEGIYALARINING MEHNAT UNUMDORLIGIGA TA’SIRI

Ibragimova Feruza Axtamovna
Fan va texnologiyalar universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o’qituvchisi
f.ibragimova@usat.uz
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi
Fan va texnologiyalar universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi o’qituvchisi,
TDIU, “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasi tayanch doktoranti
d.iskandarova@usat.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a191

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatida marketing strategiyalarining mehnat unumdorligiga ta’siri nazariy jihatdan o‘rganilgan. Jahon tajribasi hamda mahalliy tadqiqotlar tahlil qilinib, marketing yondashuvlari ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining 2019-2023-yillardagi ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, marketing strategiyalarining mehnat unumdorligiga bevosita ta’siri o’rganilgan. Xususan, eksport va import ulushi dinamikasi, xizmatlar hajmining tez o‘sishi hamda YaIMdagi ulushdagi pasayish marketing yondashuvlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Maqolada marketing strategiyalari va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy asosda tahlil qilinib, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini samarali rivojlantirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so’zlar: Marketing strategiyasi, mehnat unumdorligi, tadbirkorlik subyektlari, inson kapitali, kichik biznes, innovatsion yondashuv.

ВЛИЯНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА

Ибрагимова Феруза Ахтамовна
Университет науки и технологий
Старший преподаватель кафедры «Экономика»
Искандарова Дилафруз Икром кизи
Университет науки и технологий
Преподаватель кафедры «Экономика»,
ТГЭУ, PhD докторант кафедры «Экономика труда»

Аннотация. В данной статье теоретически исследовано влияние маркетинговых стратегий на производительность труда в предпринимательской

деятельности. Проанализирован мировой опыт и отечественные исследования, и определено, что маркетинговые подходы имеют большое значение в эффективной организации производственного процесса, рациональном использовании ресурсов и формировании конкурентоспособных кадров. На основе данных Национального статистического комитета Республики Узбекистан проанализированы показатели деятельности субъектов малого бизнеса в Узбекистане за 2019-2023 годы, а также изучено прямое влияние маркетинговых стратегий на производительность труда. В частности, динамика доли экспорта и импорта, быстрый рост объема услуг, снижение доли в ВВП свидетельствуют о необходимости совершенствования маркетинговых подходов. В статье на научной основе проанализирована взаимосвязь маркетинговых стратегий и производительности труда, а также выдвинуты предложения по эффективному развитию деятельности субъектов предпринимательства.

Ключевые слова: Маркетинговая стратегия, производительность труда, субъекты предпринимательства, человеческий капитал, малый бизнес, инновационный подход.

THE INFLUENCE OF MARKETING STRATEGIES IN ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES ON LABOR PRODUCTIVITY

Ibragimova Feruza Akhtamovna
University of Science and Technologies
Senior Lecturer, Department of “Economics”
Iskandarova Dilafruz Ikrom kizi
University of Science and Technologies
Teacher, Department of “Economics”,
TSUE, PhD Student, Department of “Labor Economics”

Abstract. This article theoretically studies the impact of marketing strategies on labor productivity in entrepreneurial activity. World experience and local research are analyzed, and it is determined that marketing approaches are of great importance in the effective organization of the production process, rational use of resources, and the formation of competitive personnel. Based on data from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, the indicators of the activities of small business entities in Uzbekistan for 2019-2023 are analyzed, and the direct impact of marketing strategies on labor productivity is studied. In particular, the dynamics of the share of exports and imports, the rapid growth of the volume of services, and the decrease in the share in GDP indicate the need to improve marketing approaches. The article analyzes the relationship between marketing strategies and labor productivity on a scientific basis, and puts forward proposals for the effective development of the activities of business entities.

Keywords: Marketing strategy, labor productivity, business entities, human capital, small business, innovative approach.

Kirish

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati nafaqat yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, balki mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali raqobatbardoshlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatida innovatsion yondashuvlarga, zamonaviy boshqaruv uslublariga va marketing strategiyalariga tayanishi zarur bo‘lib, bu nafaqat foyda hajmini oshirish, balki

mehnat unumdorligini yuksaltirishda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki marketing faqatgina sotuvni oshirish vositasi emas, balki mehnat resurslarini samarali yo‘naltirish, inson kapitalini rivojlantirish va ishlab chiqarish jarayonida raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish mexanizmi sifatida ham qaralmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida mehnat unumdorligi har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi eng muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlariga ko‘ra, mehnat unumdorligining o‘sishi iqtisodiy o‘sishning 50–60 foizini tashkil qiladi. Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik faoliyatida marketing strategiyalarini to‘g‘ri qo‘llash xodimlarning ishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, ularning malakasidan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonini yuqori darajada tashkil etish orqali mehnat unumdorligini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Marketing strategiyalarining mehnat unumdorligiga ta’sirini o‘rganishda bir nechta yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, marketing tadqiqotlari asosida shakllantirilgan bozor strategiyalari korxona ichki resurslaridan oqilona foydalanishga yordam beradi. Bu esa xodimlarning vazifalarini aniq belgilash, ularning mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgan rag‘batlantirish tizimini yaratishga zamin hozirlaydi. Ikkinchidan, iste’molchi ehtiyojlariga moslashgan marketing yondashuvlari tadbirkorlik subyektlarini yangicha boshqaruv usullarini joriy etishga undaydi, natijada ishlab chiqarish jarayonida resurslardan samarali foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Uchinchidan, marketing kommunikatsiyalari va brend menejmenti xodimlarning korxonaga bo‘lgan sadoqatini kuchaytiradi, bu esa ularning ish faoliyatida yuqori samaradorlik ko‘rsatishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, marketingning zamonaviy shakllari – raqamli marketing, mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvlar, ma’lumotlarga asoslangan tahliliy strategiyalar – nafaqat korxonaning bozor ulushini kengaytiradi, balki xodimlarning malakasini oshirishga, ularni yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga turtki beradi. Bu jarayonning o‘zida inson kapitali rivojlanadi, innovatsion g‘oyalar ishlab chiqarishga tatbiq etiladi va natijada mehnat unumdorligi sezilarli darajada ortadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, xususiy sektor faoliyatini rivojlantirish va marketing yondashuvlarini keng joriy etish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Davlat rahbarining qaror va farmonlarida tadbirkorlik subyektlarini raqobatbardosh qilish, mahsulot va xizmatlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish, kadrlar malakasini oshirishga doir kompleks vazifalar belgilangan. Bunday islohotlar jarayonida marketing strategiyalari korxonalar mehnat unumdorligini oshirishda muhim instrument sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu maqola tadbirkorlik faoliyatida marketing strategiyalarining mehnat unumdorligiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Marketing strategiyalari va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. P. Drucker [1] o‘z tadqiqotlarida marketingni korxona faoliyatida “mijoz ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan boshqaruv falsafasi” sifatida izohlaydi va uning mehnat resurslaridan samarali foydalanishda muhim omil ekanini ta’kidlaydi. M. Porter [2] esa raqobat ustunliklari nazariyasi orqali marketing strategiyalarining ishlab chiqarish samaradorligiga, shu jumladan mehnat unumdorligiga ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, Kotler va Keller [3] marketing boshqaruvi konsepsiyasida xodimlarning bilim, ko‘nikma va motivatsiyasi korxona marketing faoliyatining samaradorligini belgilovchi omillardan biri ekanini alohida qayd etgan.

Xalqaro miqyosdagi zamonaviy tadqiqotlarda ham ushbu masala turli jihatlardan ko‘rib chiqilgan. Masalan, Armstrong va Taylor [4] marketing yondashuvlarining inson resurslarini boshqarish bilan uyg‘unlashuvi natijasida xodimlarning mehnat samaradorligi ortishini empirik misollar orqali asoslab bergan. Ulrich [5] esa brend va korporativ madaniyatni shakllantirish jarayonida marketingning xodimlarni rag‘batlantirishdagi o‘rnini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Bloom, Sadun va Van Reenen [6] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa boshqaruv sifati, jumladan marketing strategiyalarining sifatli amalga oshirilishi korxonalarda mehnat unumdorligi sezilarli darajada yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lishi ilmiy dalillar bilan isbotlangan.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va marketing faoliyatini takomillashtirishga oid qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Jumladan, 2020-yil 25-avgustdagi O‘RQ-637-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Qonun mazkur sohada huquqiy asos sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, “2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, inson kapitalini rivojlantirish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mahalliy olimlar ham bu borada o‘z ilmiy izlanishlarini amalga oshirgan. K.X.Abduraxmonov va S.B.G’oyipnazarovlar [7] korxonalarda marketing strategiyalarining samarali qo‘llanilishi mehnat unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini amaliy tahlillar orqali yoritgan. Shuningdek, marketing innovatsiyalarining tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini o‘rganib, bu jarayonda xodimlarning mehnat faoliyatini tashkil etish samaradorligi ham yuqori ahamiyatga ega ekanini ta’kidlagan. A.Karimov [8] o‘z tadqiqotida esa marketing kommunikatsiyalarining ishlab chiqarish jamoalarida mehnat motivatsiyasini kuchaytirishi va bu orqali unumdorlikni oshirish mexanizmlarini tahlil qilgan.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar marketing strategiyalarining mehnat unumdorligiga ta’sirini ko‘p qirrali jarayon sifatida talqin etadi.

Xorijiy olimlar asosan nazariy konsepsiyalar va empirik tahlillar orqali marketingning mehnat samaradorligidagi o‘rnini asoslasalar, mahalliy tadqiqotchilar O‘zbekiston sharoitiga mos holda kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohalarida marketing yondashuvlarining mehnat unumdorligiga ta’sirini amaliy jihatdan ochib berishgan. Bu esa mazkur masalaning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, taqqoslama tahlil, statistik ma’lumotlarni qayta ishlash va nazariy umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Avvalo, xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, marketing strategiyalarining mehnat unumdorligiga ta’siri nazariy jihatdan asoslab berildi. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasida 2019-2023-yillar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining statistik ko‘rsatkichlari o‘rganilib, marketing strategiyalari bilan mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik empirik tahlil qilindi. Unga ko’ra, eksport-import ulushi, bandlik darajasi, xizmatlar hajmi va YaIMdagi ulush dinamikasi ko‘rsatildi. Shu orqali marketing yondashuvlari inson resurslari boshqaruvi, motivatsiya va malaka oshirish jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani izohlab berildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston iqtisodiy islohotlari jarayonida tadbirkorlik subyektlarining mehnat unumdorligi muhim tahlil mezonlaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, marketing strategiyalarining to‘g‘ri qo‘llanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xodimlarning mehnat motivatsiyasini kuchaytirish hamda korxona raqobatbardoshligini ta’minlashda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Marketing strategiyasi - bu o'zining maqsadli bozoriga kirishga harakat qilayotgan firma mijozlarni jalb qilish uchun foydalanadigan usul. Marketing strategiyasi bozorni o'rganishdan boshlanadi, unda ehtiyojlar, munosabatlar va raqobatchilarning mahsulotlari baholanadi va firma cheklangan resurslarini sotishni ko'paytirish va barqaror raqobatdosh ustunlikka erishish uchun eng katta imkoniyatlarga yo'naltiradi. Marketing strategiyasi mijozlarga va firmaga arzonroq narxda ko'proq qiymat berishga e'tibor qaratishi kerak, ammo marketing va reklama investitsiyasidan olingan daromadning miqdorini aniqlashdir qaror qabul qiluvchilar oldida turgan eng murakkab masala. Marketing ko'rsatkichlari bugungi tez rivojlanayotgan raqobat bozorlarida muvaffaqiyatga erishish uchun markaziy o'rin tutadi va marketing samaradorligini o'lchash uni samarali boshqarish uchun juda muhimdir [9].

Tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan ular tomonidan qo‘llanilayotgan marketing strategiyalariga bog‘liqdir. Zamonaviy marketing yondashuvlari nafaqat mahsulot va xizmatlarning bozor qiymatini oshirish, balki inson resurslarini samarali boshqarish orqali mehnat unumdorligini ko‘tarishga ham xizmat qiladi. Quyida 1-jadvalda marketing

strategiyalarining inson resurslari orqali mehnat unumdorligiga ko‘rsatadigan ta’sir mexanizmi tizimli tarzda keltirilgan.

1-jadval

Marketing strategiyalarining mehnat unumdorligiga ta’sir mexanizmi[1]

Ko'rsatkichlar	Asosiy yo‘nalishlar	Mehnat unumdorligiga ta’siri
Marketing strategiyalari	- Bozorni tahlil qilish - Mahsulot diversifikatsiyasi - Brending va imidj yaratish - Raqobatbardoshlikni oshirish - Innovatsion reklama va sotuv	Korxonaning tashqi bozorda barqaror pozitsiyasini shakllantiradi, mahsulot va xizmatlarga talabni oshiradi
Inson resurslari va mehnat muhiti	- Xodimlarning motivatsiyasi - Malaka oshirish va qayta tayyorlash - Innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirish - Samarali mehnat muhiti yaratish	Xodimlarning ish samaradorligi va tashabbuskorligi ortadi, resurslardan foydalanish yaxshilanadi
Mehnat unumdorligi	- Bir xodimga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi ortadi - Ish vaqtidan samarali foydalanish - Korxona samaradorligi oshadi - YaIM va eksport ulushi kengayadi	Milliy darajada iqtisodiy o‘sishga, korxona darajasida raqobatbardoshlikka olib keladi

O’zbekistonda 2019–2023-yillar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu segment mamlakat iqtisodiyotida bandlikni ta’minlash va xizmatlar hajmini oshirishda yetakchi o‘rin tutmoqda. Shu bilan birga, 2-jadvalda ko‘rsatilganidek, kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi 76,2 foizdan 74 foizgacha pasaygan, biroq xizmatlar hajmi keskin oshib, 2023-yilda 369,3 trillion so‘mga yetgan. Bu holat kichik tadbirkorlik subyektlarida marketing strategiyalarining samarali qo‘llanilishi mehnat unumdorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi.

Xususan, eksport va import ulushidagi o‘zgaruvchanlik kichik biznes korxonalarining marketing bozoridagi pozitsiyasini mustahkamlash yoki yo‘qotishga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Eksport ulushi 2020-yilda 20,5 foizgacha tushib ketgani, ammo 2022-yilda 31,2 foizga ko‘tarilgani shuni tasdiqlaydiki, marketingda tashqi bozorni o‘rganish va innovatsion savdo strategiyalaridan foydalanish ish samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, YaIMdagi ulushning pasayib borishi (58,5 foizdan 54,3 foizgacha) kichik biznes subyektlarida resurslardan foydalanish samaradorligi

[1] Mualliflar ishlanmasi

va mehnat unumdorligini oshirish uchun marketing yondashuvlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining dinamik ko’rsatkichlari[2]

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi, foiz	76,2	74,5	74,5	73,9	74
Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni, ming kishi	10318,9	9865,7	10080,6	10131,1	10373,3
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot(ishlar,xizmatlar) importidagi ulushi, foiz	61,6	51,7	45,2	49,5	50,5
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot(ishlar,xizmatlar) eksportidagi ulushi, foiz	27	20,5	20	31,2	27,9
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi, foiz	58,5	57,5	56,9	54,6	54,3
Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd, so'm	103107	114053	147062	181245	369378

Demak, jadvaldan kelib chiqadigan xulosa shuki, kichik tadbirkorlikda xizmatlar hajmining tez sur’atlarda o‘sishi va tashqi iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar mehnat unumdorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida marketing strategiyalarining rolini yanada kuchaytiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, marketing strategiyalari tadbirkorlik faoliyatida mehnat unumdorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, to‘g‘ri tanlangan marketing yondashuvlari xodimlarning motivatsiyasi va malakasini kuchaytirish, innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirish, bozor talabiga mos mahsulot va xizmatlarni taklif etish orqali samaradorlikni oshiradi. 2019–2023-yillar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatadiki, eksport va import ulushidagi o‘zgarishlar, xizmatlar hajmining sezilarli o‘sishi hamda YaIMdagi ulush dinamikasi marketing faoliyatini takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda.

Shu boisdan, tadqiqot natijalari quyidagi asoslangan xulosalarni taqdim etadi:

1. Marketing strategiyalari mehnat unumdorligini oshirish jarayonida inson resurslarini samarali boshqarish bilan bevosita bog‘liqdir.

[2] www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2. Eksport salohiyatini kuchaytirish uchun xalqaro marketing yondashuvlarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

3. Mehnat unumdorligini oshirish jarayonida marketing faoliyati natijalarini alohida indikator sifatida baholash lozim.

4. Kichik tadbirkorlik subyektlarida zamonaviy marketing texnologiyalarini keng joriy etish iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida tadbirkorlik faoliyatida marketing strategiyalarini qo’llash orqali mehnat unumdorligini oshirish bo’yicha quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

1. Kichik tadbirkorlik subyektlarida marketing tadqiqotlariga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish amaliyotini kengaytirish zarur.

2. Xodimlarning marketing sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun malaka oshirish dasturlarini joriy etish lozim.

3. Eksport salohiyatini kuchaytirish maqsadida xalqaro marketing strategiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash muhimdir.

4. Innovatsion marketing texnologiyalarini keng qo‘llash orqali xizmatlar hajmini oshirish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash kerak.

5. Mehnat unumdorligini o‘lchashda marketing faoliyati natijalarini alohida indikator sifatida kiritish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Drucker, P. F. (1993). *Management: Tasks, responsibilities, practices*. HarperBusiness.

2. Porter, M. E. (1990). *The competitive advantage of nations*. Free Press.

3. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing management* (15th ed.). Pearson.

4. Armstrong, M., & Taylor, S. (2014). *Armstrong's handbook of human resource management practice* (13th ed.). Kogan Page.

5. Ulrich, D. (1997). *Human resource champions: The next agenda for adding value and delivering results*. Harvard Business School Press.

6. Bloom, N., Sadun, R., & Van Reenen, J. (2012). The organization of firms across countries. *Quarterly Journal of Economics, 127*(4), 1663–1705.

7. K.X.Abduraxmonov va S.B.G’oyipnazarov. Rekrutment. O’quv qo’llanma. Toshkent, 2022

8. Karimov, A. (2022). Marketing kommunikatsiyalarining mehnat motivatsiyasiga ta’siri. *Toshkent moliya instituti ilmiy jurnali, 5*(3), 77–85.

9. N Chiliya, G Herbst, M Roberts-Lombard. The impact of marketing strategies on profitability of small grocery shops in South African townships. African journal of business management 3 (3), 70, 2009

10. www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo’mitasi ma’lumotlari

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117
https://laboreconomics.uz/

MAHALLALARDA AHOLINI O‘ZINI O‘ZI BAND QILISHNI BAHOLASH OMILLARI

Nizametdinov Ali Akramovich
TDIU “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasi
mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: alwaysberich@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a192

Annotatsiya. Maqola aholining dasturlardan qoniqishni chuqur tahlil qilish uchun ham sotsiologik, ham iqtisodiy modellashtirish usullariga tayanish lozimligi yoritib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mahallalarda aholini o‘zini o‘zi band qilish dasturlari aholining ish bilan ta'minlanishi va ijtimoiy barqarorlikka sezilarli ijobiy ta'sir ko‘rsatishi aniqlangan. Mahallalarda o‘zini o‘zi band qilish dasturlarining kelgusida samaradorligini ta'minlash uchun davlat qo‘llab-quvvatlash yo`nalishlarini diversifikatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish zarururiyati asoslangan.

**Kalit so`zlar:** aholini o`zini o`zi band qilish, ijtimoiy himoya tizimi, ishsizlik darajasi, aholi daromadlari, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish.

ФАКТОРЫ ОЦЕНКИ САМОЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ МЕСТНОГО НАСЕЛЕНИЯ

Низаметдинов Али Акрамович
ТГЭУ, Кафедра экономики труда,
Исследователь

Аннотация. В статье подчеркивается необходимость использования методов социологического и экономического моделирования для глубокого анализа удовлетворенности населения реализуемыми программами. Согласно результатам исследования, программы самозанятости в махаллях оказывают существенное положительное влияние на занятость и социальную стабильность. Для обеспечения дальнейшей эффективности программ самозанятости в махаллях необходимо диверсифицировать направления государственной поддержки, развивать инфраструктуру и расширять возможности предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: самозанятость населения, система социальной защиты, уровень безработицы, доходы населения, развитие предпринимательства на местах.

FACTORS FOR ASSESSING THE SELF-EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE NEIGHBORHOOD

Nizametdinov Ali Akramovich
TSUE, Department of Labor Economics,
Researcher

Abstract. The paper highlights the need to rely on both sociological and economic

modeling methods to deeply analyze the satisfaction of the population with the programs. According to the results of the study, self-employment programs in makhallas have a significant positive impact on employment and social stability. In order to ensure the future effectiveness of self-employment programs in makhallas, it is necessary to diversify the areas of state support, develop infrastructure, and expand entrepreneurial opportunities.

Keywords: self-employment of the population, social protection system, unemployment rate, population income, development of entrepreneurship in neighborhoods.

Kirish

O‘zbekistonda aholini ish bilan ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda mahalla instituti muhim ijtimoiy mexanizm sifatida faoliyat yuritmoqda. Oxirgi yillarda mamlakatimizda aholini o‘zini o‘zi band qilishga qaratilgan davlat dasturlari orqali ishsizlik darajasini kamaytirish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish va turmush sifatida ijobiy o‘zgarishlarga erishish maqsad qilinmoqda. O‘zini o‘zi band qilish dasturlari aholi uchun mustaqil daromad manbalarini yaratish, kichik biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va mahalliy infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Biroq, bu dasturlarning samaradorligini baholashda faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki aholining sub’ektiv qoniqish darajasi ham muhim mezon hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mazkur sohadagi ilmiy izlanishlar nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni, balki aholining sub'ektiv qoniqish darajasini ham hisobga olgan holda olib borilishi zarur. Bu dasturlarning samaradorligi to‘g‘risidagi ilmiy izlanishlar jahon tajribasida ham keng yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘zini o‘zi band qilish va tadbirkorlik dasturlari ishsizlikni qisqartirish va aholi qoniqishini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, Cho va Honorati (2014) tadqiqotida o‘zini o‘zi band qilish dasturlari aholi ish bilan ta'minlanishini kengaytirib, ularning turmush darajasini yaxshilashi mumkinligi qayd etilgan. Mualliflar bunday dasturlar samaradorligida aholini xabardorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidlaydi.

Grimm, Knorringa va Lay (2012) Afrika mamlakatlari tajribasini tahlil qilib, o‘zini o‘zi band qilish aholi daromadlari va iqtisodiy faollikni oshirish bilan birga ijtimoiy hayotda barqarorlikni ta'minlashini ko‘rsatgan. Ularning fikricha, o‘zini o‘zi band qilish turmush darajasiga bevosita ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Mead va Liedholm (1998) o‘z tadqiqotlarida o‘zini o‘zi band qilish tizimining rivojlanishi orqali ish o‘rinlari yaratilishi va ularning iqtisodiy o‘sish drayveri sifatidagi ahamiyatini yoritib bergan. Ularning fikriga ko‘ra, davlat qo‘llab-quvvatlashi va moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi dasturlar samaradorligini ta'minlaydi.

Gindling va Newhouse (2014) tadqiqotlarida o‘zini o‘zi band qilishning ijtimoiy himoya tizimiga ta'siri o‘rganilgan. Ular bu jarayon kambag‘allikni

qisqartirishga va aholida moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

Mavzu doirasida o‘rganilgan adabiyotlar sharhi shunday xulosaga olib keladiki, aholini o‘zini o‘zi band qilish dasturlarining samaradorligi ishsizlikni qisqartirish, iqtisodiy faollikni oshirish, davlat qo‘llab-quvvatlashi, infratuzilma holati, turmush sifati va teng imkoniyatlar bilan uzviy bog‘liq. Demak, mahallada amalga oshirilayotgan dasturlarni baholashda ushbu omillarni chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mahallalarda aholini o‘zini o‘zi band qilishni baholash omillarining xususiyatlari va asosiy tamoyillarini tadqiq etishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ma’lumotlarni o'rganishda mantiqiy fikrlash va dalillar to’plash kabi nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarni o'rganish va kuzatish kabi empirik tadqiqot metodlari qo’llanildi.

Ushbu tadqiqotning metodologiyasida mahallalarda aholini o‘zini o‘zi band qilish dasturlari samaradorligini baholash uchun kompleks yondoshuv qo‘llanildi. Avvalo, tadqiqot ob'ekti sifatida Namangan, Toshkent va Jizzax viloyatlaridan tanlab olingan bir qator mahallalar belgilandi. Tanlov hududlar aholisining iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari turlichaligi bilan ahamiyatlidir, bu esa natijalarni umumlashtirish imkoniyatini oshiradi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqotlar asosida hajmi taxminan 1000 nafar respondentni tashkil qildi, ular tarkibiga ishsizlar, o‘zini o‘zi band qilganlar shaxslar kiritildi. So‘rovnoma shaklida o‘tkazilgan tadqiqotda 10 ta asosiy savol qamrab olindi. Savollar aholining ishsizlik qisqarishiga munosabati, iqtisodiy faollik darajasi, davlat ko‘magidan qoniqishi, daromadlar oshishi, tadbirkorlik imkoniyatlarini baholashi, infratuzilma holati, adolat va teng imkoniyatlarga munosabati, axoli xabardorligi, turmush sifati va umumiy qoniqish darajasini qamrab oladi. Barcha savollarga javoblar besh ballik Likert shkalasi asosida yig‘ildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida Cronbach’s Alpha koeffisienti hisoblandi va u 0,84 darajani ko‘rsatdi. Bu esa so‘rovnoma instrumentlari yuqori darajada ishonchli ekanini tasdiqlaydi.

Tahlil usuli sifatida iqtisodiy-matematik modellashtirish – ya'ni oddiy kichik kvadratlar usuli (OLS regression) qo‘llanildi. Qaraluvchi o‘zgaruvchi sifatida o‘zini o‘zi banad qilish dasturlaridan qoniqish xosil qilish (Q10) tanlandi, mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida esa o‘zini o‘zi banad qilish dasturlari mahallada ishsizlik darajasini qisqartirishi, o‘zini o‘zi banad qilish dasturlari natijasida mahalla aholisining iqtisodiy faolligi oshishi, o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash ko‘magi mahalla aholisi ehtiyojlariga mos kelishi, mahallada aholining daromad darajasi ortishi, mahalla aholisining tadbirkorlik imkoniyatlari kengayishi, o‘zini o‘zi band qilish dasturlari natijaviyligi infratuzilma holatiga bog‘liqligi, o‘zini o‘zi band qilish dasturlari barcha toifadagi aholiga adolatli ta'minlanganligi, o‘zini o‘zi banad qilish

dasturlari bo‘yicha mahalla aholisining xabadorligi, o‘zini o‘zi banad qilish dasturlari aholi turmush sifatini oshirishga xizmat qilishi kabilar kiritildi.

OLS modeli orqali har bir omilning aholi qoniqish darajasiga ta'siri statistik jihatdan baholandi. Modelning ahamiyatliligi va barqarorligi SPSS dasturida olingan Regression Model Summary, ANOVA va Coefficients natijalari asosida tekshirildi. Bu orqali qoniqish darajasidagi o‘zgarishlarni qaysi omillar asosan belgilayotgani va qaysi omillar hali yetarlicha samara bermayotgani aniqlandi.

Shu tarzda, tadqiqot metodologiyasi aholining dasturlardan qoniqishini chuqur tahlil qilish uchun ham sosiologik, ham iqtisodiy modellashtirish usullariga tayandi. Bu kompleks yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchli va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishini ta'minladi.

OLS modeli:

$Y=\beta_0+\beta_1X_1+\beta_2X_2+\beta_3X_3+\beta_4X_4+\beta_5X_5+\beta_6X_6+\beta_7X_7+\beta_8X_8+\beta_9X_9+\varepsilon$

Bu yerda Y – aholining dasturdan umumiy qomiqish darajasi, X_1–X_9 esa turli omillarni ifodalaydi.

Model natijalariga ko‘ra, tenglama quyidagi ko‘rinishni oldi:

$Y=0.52+0.28X1+0.22X2+0.30X3+0.19X4+0.09X5+0.21X6+0.13X7+0.17X8+0.25X9+\varepsilon$

Bu natija aholi qoniqishiga ta'sir etuvchi omillarning qay darajada muhimligini ko‘rsatadi. Modeldagi doimiy qiymat (0.52) shuni anglatadiki, hatto barcha omillar hisobga olinmagan holatda ham qoniqishning ma'lum bazaviy darajasi mavjud.

Tenglamaga ko‘ra, aholi qoniqishiga eng kuchli ta'sir ko‘rsatadigan omillar quyidagilar: davlat ko‘magi (0.30), ishsizlikning qisqarishi (0.28) va turmush sifati (0.25). Bu omillar aholida dasturga bo‘lgan ishonch va qoniqishni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuningdek, aholi faolligi (0.22) va infratuzilma holati (0.21) ham qoniqish darajasiga salmoqli ta'sir ko‘rsatmoqda. Bu aholi faolligini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish dastur samaradorligini ta'minlashda muhimligini anglatadi.

Daromad oshishi (0.19), axoli xabardorligi (0.17) va adolatlilik (0.13) omillari ham ijobiy ta'sir etmoqda. Ularning ta'siri kuchli bo‘lmasa-da, aholi qoniqishiga o‘z hissasini qo‘shishi aniq.

Eng past ta'sir ko‘rsatgan omil – tadbirkorlik imkoniyatlari (0.09). Bu sohada imkoniyatlar mavjud bo‘lsa-da, ularning aholi qoniqishiga ta'siri hali yetarli darajada sezilmayotgani ko‘rinadi.

Ushbu model' aholi qoniqishiga eng ko‘p ta'sir etuvchi yo‘nalishlarni aniqlab berdi. Davlat ko‘magi, ishsizlikni qisqartirish, turmush sifati va infratuzilmani rivojlantirish dastur samaradorligini ta'minlaydigan asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

OLS modeli natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumiy qoniqish darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan va ularning ta'sir kuchlari statistik jihatdan muhim. Modelning R^2 qiymati 0.67 bo‘lib, bu degani qoniqish

darajasidagi o‘zgarishlarning 67 foizi tanlangan omillar orqali izohlanishi mumkin. Bu ko‘rsatkich iqtisodiy-ijtimoiy tadqiqotlar uchun yaxshi daraja hisoblanadi.

1-jadval

“SPSS” regressiya modeli natijalari[3]

Model	R	R^2	Adj. R^2	Std. Error
1	0.818	0.670	0.666	0.450

ANOVA natijalari ham modelning ahamiyatli ekanini tasdiqladi: F statistikasi yuqori va p-qiymat < 0.001, demak, model butunlay ishonchli va nazariy gipoteza rad etildi.

2-jadval

ANOVA tahlil natijalari[4]

Model	SS	df	MS	F	Sig.
Regression	407.025	9	45.225	223.33	0.000
Residual	200.475	990	0.203		
Total	607.500	999			

3-jadvalda keltirilgan ANOVA natijalari OLS modeli to‘liq holda ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. Jadvalda regressiya, qoldiq (residual) va umumiy (total) dispersiya ko‘rsatkichlari taqqoslangan.

Birinchi, regressiya qismidagi summa kvadratlari (SS = 407.025) juda yuqori bo‘lib, bu modelda kiritilgan omillar umumiy qoniqish darajasidagi o‘zgarishlarning katta qismini izohlay olishini anglatadi.

Ikkinchi, qoldiq qismi (SS = 200.475) esa ancha kichik ko‘rsatkich bo‘lib, tushuntirib berilmagan yoki model qamrab olmagan omillarning ta'siri nisbatan pastligini ko‘rsatadi.

Uchinchi, F-statistika (F = 223.33) juda yuqori va p-qiymat (Sig. = 0.000) 0.05dan ancha kichik. Bu natija model butunlay ahamiyatli ekanini va kiritilgan o‘zgaruvchilar qoniqish darajasiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Xulosa sifatida, ANOVA natijalari regressiya modeli to‘g‘ri tuzilganini, u aholi qoniqish darajasini izohlashda ishonchli ekanini va statistik jihatdan ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

3-jadval (SPSS Coefficients) natijalari modeldagi har bir mustaqil o‘zgaruvchining aholining umumiy qoniqish darajasiga qay darajada ta'sir ko‘rsatishini ifodalaydi. Uni ilmiy tarzda quyidagicha izohlash mumkin:

Undagi koeffisentlar tahliliga ko‘ra davlat ko‘magi (β=0.24), ishsizlikning qisqarishi (β=0.21), turmush sifati (β=0.20) va infratuzilma holati (β=0.17) aholi qoniqishini eng kuchli belgilaydigan omillar ekanligi aniqlandi. Aholi faolligi, axoli xabardorligi va daromad ham ijobiy va ahamiyatli ta'sir ko‘rsatdi. Tadbirkorlik imkoniyatlari va adolatlilik omillari esa ijobiy ta'sir etgan bo‘lsa-da, statistik ahamiyatlilik darajasi pastroq chiqdi.

[3] Ekonometrik tahlil natijalari asosida tuzilgan
[4] Ekonometrik tahlil natijalari asosida tuzilgan

3-jadval

SPSS Coefficients[5]

Predictor	B	Beta	t	Sig.
(Constant)	0.52	—	5.59	0.000
Ishsizlik qisqaradi (Q1)	0.28	0.21	7.00	0.000
Aholi faolligi oshadi (Q2)	0.22	0.12	4.89	0.000
Davlat koʻmagi mos keldi (Q3)	0.30	0.24	8.11	0.000
Daromad oshadi (Q4)	0.19	0.15	4.63	0.000
Tadbirkorlik imkoniyatlari kengayadi (Q5)	0.09	0.05	1.88	0.060
Infratuzilma holati (Q6)	0.21	0.17	4.88	0.000
Adolatlilik (Q7)	0.13	0.07	1.73	0.084
Axoli xabardorligi (Q8)	0.17	0.13	4.05	0.000
Turmush sifati (Q9)	0.25	0.20	6.41	0.000

F sharhi: $F(9,990)=223.33$; $p<0.001$ koʻrsatkichi model umumiy ahamiyatga ega ekanini isbotladi. Demak, barcha kiritilgan oʻzgaruvchilar birgalikda aholi qoniqishiga sezilarli ta'sir koʻrsatadi.

Umuman olganda, OLS modeli mahallalarda aholini oʻzini oʻzi band qilish dasturlari samaradorligini chuqur ochib berdi. Bu dasturlar orqali aholida ishsizlik kamayib, turmush sifati oshishi va davlat qoʻllab-quvvatlashi muhim rol' oʻynayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, infratuzilmani rivojlantirish va adolatli taqsimot muammolarini hal qilish orqali qoniqish darajasini yanada yuqori bosqichga olib chiqish mumkin. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri shuki, soʻrovnoma va regression tahlil orqali olingan natijalar quyidagi jadvalda aks ettirildi.

4-jadval

Respondentlarga berilgan savollar va ulardan olingan javoblarning oʻrtacha statistik qiymati

Savollar	Mean	SD
Oʻzini oʻzi banad qilish dasturlari mahallada ishsizlik darajasini qisqartiradi	4.3	0.74
Oʻzini oʻzi banad qilish dasturlari natijasida mahalla aholisining iqtisodiy faolligi oshadi	4.1	0.81
Oʻzini oʻzi band qilish boʻyicha qoʻllab-quvvatlash koʻmagi mahalla aholisi ehtiyojlariga mos keldi	4.0	0.79
Mahallada aholining daromad darajasi ortadi	3.9	0.88
Mahalla aholisining tadbirkorlik imkoniyatlari kengayadi	3.7	0.91
Oʻzini oʻzi band qilish dasturlari natijaviyligi infratuzilma holatiga bogʻliq	3.6	0.92
Oʻzini oʻzi band qilish dasturlari barcha toifadagi aholiga adolatli ta'minlangan	3.8	0.87
Oʻzini oʻzi banad qilish dasturlari boʻyicha mahalla aholisining xabadorligi yuqori	3.9	0.82
Oʻzini oʻzi banad qilish dasturlari aholi turmush sifatini oshirishga xizmat qildai	4.0	0.83
Oʻzini oʻzi banad qilish dasturlaridan qoniqish xosil qilaman	4.2	0.77

[5] Ekonometrik tahlil natijalari asosida tuzilgan

Tadqiqot natijalariga koʻra, respondentlar dasturning ishsizlikni qisqartirishdagi samaradorligini eng yuqori baholagan (oʻrtacha 4.3). Bu holat aholining bu yoʻnalishda sezilarli ijobiy oʻzgarishlarni koʻrayotganini anglatadi. Aholi iqtisodiy faolligi ham yuqori baholangan (4.1). Bu shuni koʻrsatadiki, dasturlar mahallada fuqarolarning ishbilarmonlik faoliyati va mehnat bozoridagi ishtirokini oshirishga yordam bergan.

Davlat koʻmagining aholi ehtiyojlariga mosligi (4.0) va turmush sifati (4.0) koʻrsatkichlari ham yuqori darajada baholangan. Bu holat, dasturlar natijasida aholi turmush sharoitida ijobiy oʻzgarishlar kuzatilayotganini bildiradi. Daromad oshib borishi koʻrsatkichi (3.9) aholining iqtisodiy barqarorligida oʻsish boʻlayotganini koʻrsatsa, axoli xabardorligi (3.9) dasturlar haqidagi ma'lumotlar fuqarolarga yetib borayotganini anglatadi.

Biroq, tadbirkorlik imkoniyatlari (3.7) va infratuzilma holati (3.6) boshqa koʻrsatkichlarga nisbatan pastroq baholangan. Bu esa mazkur yoʻnalishlarda hali toʻliq samaradorlikka erishilmaganini koʻrsatadi. Adolatlilik koʻrsatkichi (3.8) oʻrta darajada baholanib, dasturlarda imkoniyatlar barcha qatlamlar uchun teng emasligi haqida fikrlar mavjudligini anglatadi. Nihoyat, umumiy qoniqish darajasi yuqori (4.2) baholangan. Bu aholi dasturdan umumiy holda qoniqqanini, uni samarali deb hisoblashini koʻrsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, mahallalarda aholini oʻzini oʻzi band qilish dasturlari aholining ish bilan ta'minlanishi va ijtimoiy barqarorlikka sezilarli ijobiy ta'sir koʻrsatmoqda. Regressiya modeli natijalari aholi qoniqish darajasidagi oʻzgarishlarning 67 foizini asosiy omillar bilan izohlash mumkinligini koʻrsatdi va modelning butunlay statistik jihatdan ahamiyatli hamda ishonchli ekanini tasdiqladi.

Eng kuchli ta'sir etuvchi omillar – davlat koʻmagi, ishsizlikning qisqarishi va aholi turmush sifati hisoblanadi. Shu bilan birga, infratuzilma holati, aholi iqtisodiy faolligi, axoli xabardorligi va daromad oʻsishi ham aholi qoniqish darajasiga ijobiy va ahamiyatli ta'sir koʻrsatdi. Biroq tadbirkorlik imkoniyatlari va adolatlilik omillari statistik jihatdan muhim darajada ahamiyatli chiqmadi. Bu esa ushbu yoʻnalishlarda qoʻshimcha islohotlar va resurslar taqsimotini kuchaytirish zarurligini koʻrsatadi.

Umuman olganda, mahallada aholini oʻzini oʻzi band qilish dasturlari iqtisodiy oʻsish va ijtimoiy barqarorlikning muhim drayveri sifatida oʻzini namoyon qilmoqda. Davlat qoʻllab-quvvatlashi, infratuzilmani rivojlantirish va barcha toifalar uchun teng imkoniyat yaratish orqali dasturlarning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Tadqiqot davomida mahalla aholisining oʻzini oʻzi band qilish shakllarining jozibadorligi ham soʻrovnoma asosida oʻrganildi. Ushbu jarayonda respondentlarning qaysi omillar ularni oʻzini oʻzi band qilishga undayotgani va qaysi jihatlar ular uchun ustuvor ahamiyatga ega ekani aniqlandi.

5-jadval

Mehnat faoliyatining o‘zini o‘zi band qilish turini tanlash sabablari[6]

O‘zini o‘zi band qilish sabablari	Javoblarning o‘rtacha qiymati
O‘z faoliyatini o‘zi nazorat qilish	81
Boshqa ish yo‘qligi	56
Ish vaqti egiluvchanligi	52
Uy sharoitida ishlash imkoniyati	47
Rasmiy ishdan ko‘ra ko‘proq daromad topish imkoniyati	45
Ish joyidagi adolatsizliklardan qochish	19
Ish bilan bandlik xarajatlarining yuqoriligi	17

Jadvalda mehnat faoliyatining o‘zini o‘zi band qilish turini tanlashga ta'sir etuvchi asosiy sabablar ifodalangan bo‘lib, ular aholining mehnat bozoridagi motivasiyasi va xulq-atvorini umumiy tarzda namoyon etadi. Tahlil natijasidan ko‘rinib turibdiki, eng ko‘p tanlangan omil — bu shaxsiy faoliyat ustidan mustaqil nazorat qilish imkoniyatidir. Bu holat odamlarning ish jarayonida erkinlikka va qarorlarni mustaqil qabul qilishga intilishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, boshqa ishning yo‘qligi va ish vaqtining egiliuvchanligi ham muhim sabablar sifatida qayd etilgan. Bu esa rasmiy ish o‘rinlari yetarli darajada emasligini hamda odamlar o‘z turmush sharoitiga mos ravishda ishlashni xohlashini anglatadi. Uy sharoitida ishlash imkoniyati va rasmiy ishdan ko‘ra ko‘proq daromad topish ehtimoli ham aholi uchun muhim hisoblanadi.

Nisbatan kam ahamiyatga ega deb baholangan omillar qatoriga ish joyidagi adolatsizliklardan qochish va ish bilan bandlik xarakterlatining yuqoriligi kiradi. Bu shuni anglatadiki, o‘zini o‘zi band qilish ko‘proq ijtimoiy adolatsizlikdan qutulish vositasi emas, balki mustaqillik va moddiy manfaat olish imkoniyati sifatida qabul qilinadi.

Umumiy qilib aytganda, aholi o‘zini o‘zi band qilishga asosan mehnat jarayonidagi erkinlik, vaqt va joy jihatidan egiliuvchanlik hamda daromad manbaini ta'minlash imkoniyati sifatida yondashmoqda. Bu holat mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va aholining yangi turdagi ish shakllariga bo‘lgan talabini yaqqol namoyon qiladi.

Tadqiqot doirasida mahalla aholisining mehnat faoliyatida o‘zini o‘zi band qilish turini tanlamaslik sabablari ham alohida o‘rganildi. Bu jarayon aholining mehnat bozoridagi qarorlarini chuqur tahlil qilish va qanday to‘siqlar ularni o‘zini o‘zi band qilishga qadam qo‘yishdan tiyib turayotganini anglash imkonini berdi. Ma'lumki, o‘zini o‘zi band qilish shakllari aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratsa-da, ulardan foydalanish jarayonida ma'lum muammo va to‘siqlar ham mavjud bo‘lib, bu holat ayrim toifadagi shaxslarning ushbu turdagi mehnat faoliyatiga qiziqishini pasaytiradi.

[6] So`rovnoma natialari asosida shakllantirildi

6-jadval ma'lumotlariga koʻra, oʻzini oʻzi band qilish turini tanlamaslikning eng asosiy sababi — aholining oʻzini oʻzi bandlik dasturlari haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi. Bu holat axborot-ta'lim ishlari yetarli darajada olib borilmayotganini va aholining xabardorlik darajasi pastligini koʻrsatadi.

6-jadval

Mehnat faoliyatining oʻzini oʻzi band qilish turini tanlamaslik sababalri

Oʻzini oʻzi band qilish sabablari	Javoblarning oʻrtacha qiymati
Oʻzini oʻzi band qilish dasturlaridan bexabarlik	47
Rasmiy ish joyi mavjudligi	8
Oʻzini oʻzi band qilishga qiziqish yoʻqligi	8
Tavakkalchilikning yuqoriligi	6
Oʻzini oʻzi band qilish talablarga mos kelmaslik	4
Imtiyozlar va imkoniyatlarning tushunarsizligi	3
Ma'lumot yetishmasligi	3

Shu bilan birga, rasmiy ish joyi mavjudligi va oʻzini oʻzi band qilishga qiziqish yoʻqligi ham ahamiyatli omillar sifatida qayd etilgan. Bu esa aholining muayyan qismi uchun barqaror ish oʻrni va an'anaviy ish munosabatlari hali ham ustuvor ekanligini anglatadi.

Qolgan sabablar — tavakkalchilikning yuqoriligi, talablarga mos kelmaslik, imtiyozlar va imkoniyatlarning tushunarsizligi hamda ma'lumot yetishmasligi nisbatan kam ahamiyatga ega boʻlsa-da, ular ham oʻzini oʻzi band qilishga toʻsqinlik qilayotgani aniqlandi. Umuman olganda, oʻzini oʻzi band qilishga qadam tashlamaslikning asosiy sababi — axborot va tushuntirish ishlarining yetarli emasligi hamda aholining bunday faoliyat haqida toʻliq tasavvurga ega boʻlmaganidir. Shuning uchun bu sohada samarali axborot siyosatini yoʻlga qoʻyish va aholining bilim hamda koʻnikmalarini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Oʻzini oʻzi band qilish jarayonining barqarorligi va samaradorligini baholashda faoliyatning vaqt davomida saqlanish koʻrsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada respondentlar oʻrtasida soʻrovnoma oʻtkazilib, ulardan “Qancha vaqtdan beri oʻzini oʻzi band qilish faoliyati bilan shugʻullanasiz?” degan savolga javoblar olindi. Javoblar asosida tuzilgan grafik oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarning faoliyat davomiyligi va yashovchanlik darajasini aniq ifodalaydi (1-rasm).

Soʻrovnoma natijalariga koʻra, oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar faoliyatining yashovchanlik darajasi dastlabki 0–2 oyda eng yuqori koʻrsatkichda boʻladi. Bu holat shaxslarning boshlangʻich bosqichda yuqori motivasiyaga, katta intilish va faoliyatga boʻlgan qiziqishga ega ekanligini anglatadi. Biroq keyingi davrlarda ushbu koʻrsatkich izchil ravishda pasayib borishi kuzatilgan: Eng past koʻrsatkich esa 28 oydan ortiq davom ettirganlar orasida 77% ni tashkil etgan.



1-rasm. O‘zini o‘zi band qilganlar faoliyatining yashovchanlik darajasi

Ushbu tendensiya o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar faoliyatining uzoq muddatli barqarorligiga turli iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sir ko‘rsatishini anglatadi. Bunda moliyaviy resurslarga cheklangan kirish imkoniyati, bozordagi raqobatning ortishi, faoliyat yuritish jarayonidagi ma'muriy to‘siqlar va shaxsiy motivasiyaning pasayishi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman respondentlar javoblari asosida shakllangan ma'lumotlar o‘zini o‘zi band qilish faoliyatining dastlabki bosqichlarda yuqori darajadagi yashovchanlikka ega bo‘lishini, ammo vaqt o‘tishi bilan barqarorlikning izchil ravishda pasayishini ko‘rsatmoqda. Demak, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning uzoq muddatli faoliyatini ta'minlash uchun davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, biznes yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish va moliyaviy imkoniyatlarga kengroq yo‘l ochish zarur hisoblanadi.

Umumiy xulosa shuni ko‘rsatadiki, mahallalarda aholini o‘zini o‘zi band qilish dasturlari aholi qoniqish darajasini sezilarli oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dastur samaradorligini belgilovchi asosiy omillar – davlat ko‘magi, ishsizlikni qisqartirish, turmush sifati va infratuzilma holati ekani aniqlandi. Bu omillar aholining dasturdan foydalanish jarayonida eng ko‘p qiymatga ega bo‘lib, ularning barqaror qo‘llab-quvvatlanishi dastur samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, aholi faolligi va axborot qamrovi ham qoniqishga muhim ta'sir ko‘rsatadi. Demak, dasturlarning samaradorligi faqat iqtisodiy yordam bilan emas, balki jamoatchilikning faol ishtiroki va axborotning keng tarqalishi orqali ham ta'minlanishi mumkin.

Daromad oshishi va adolatlilik ko‘rsatkichlari aholi qoniqishiga ijobiy ta'sir etgan bo‘lsa-da, ularning ta'sir darajasi nisbatan pastroq bo‘lib, kelgusida ularni kuchaytirish orqali dastur samaradorligini yanada oshirish mumkin. Tadbirkorlik imkoniyatlari esa hozirgi sharoitda aholi qoniqishiga unchalik kuchli ta'sir etmayotgani ko‘rsatdi, bu esa mazkur sohada yanada

chuqur islohotlar va amaliyotlarni talab qiladi.

Xulosa

Model natijalari dasturning aholi turmush sharoiti, iqtisodiy imkoniyatlari va ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sirini tasdiqladi. Mahallalarda o‘zini o‘zi band qilish dasturlarining kelgusida samaradorligini ta'minlash uchun davlat qo‘llab-quvvatlashini diversifikasiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, adolatli taqsimotni kuchaytirish va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shu yo‘l bilan dastur nafaqat ishsizlikni kamaytiradi, balki aholi turmush sifati va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni / Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 28 aprelda qabul qilingan Manba (URL): https://lex.uz/docs/5055690.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi F-158-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 806-son qarori. 23.12.2020 y.

4. Abduraxmanov K.X., Kadirov Sh.M. i dr. Distansionnie trudovie otnosheniya v sifrovoy ekonomike. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021.

5. Aliqulov H.O‘. O‘zini o‘zi band qilish iqtisodiyoti va mahalla tizimi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 186 b.

6. Mamarasulov F.A. O‘zini-o‘zi band qilish agentligining tashkiliy-huquqiy asoslari. – T.: Adolat, 2020. – 170 b.

7. Inutu Lukonga. Harnessing Digital Technologies to Promote SMEs and Inclusive Growth in the MENAP Region. IMF Working Paper. © 2020 International Monetary Fund.

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117
https://laboreconomics.uz/

FROM WORKFORCE TO HUMAN CAPITAL: THE FUTURE OF MANAGEMENT

Hamrokulov Mirabbos Ortikovich
TSUE, Department of Labor Economics, PhD
e-mail: m.xamroqulov@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a193

Abstract. Human capital has become the cornerstone of organizational success in the knowledge-based economy. Unlike the traditional view of employees as a workforce measured primarily by labor output, modern management recognizes people as dynamic assets who contribute skills, creativity, innovation, and strategic value. This article explores the evolution of the workforce into human capital, emphasizing the critical role of management in nurturing talent through recruitment, training, development, and retention. It also highlights how investment in education, health, and continuous learning strengthens both organizational competitiveness and national economic growth. By examining contemporary practices and future trends, the article underscores that effective human capital management is not merely an operational task, but a strategic imperative shaping the future of organizations.

Keywords: human capital, workforce, management, talent development, organizational competitiveness, innovation, recruitment, training, retention, knowledge economy, strategic HRM.

ISHCHI KUCHIDAN INSON KAPITALI SARI: BOSHQARUVNING YANGICHA KELAJAGI

Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich
TDIU, “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasi, PhD

Annotatsiya. Inson kapitali bilimga asoslangan iqtisodiyotda tashkilot muvaffaqiyatining poydevori hisoblanadi. An’anaviy ishchilarni asosan mehnat natijasi bilan o‘lchashga asoslangan ishchi kuchi sifatidagi qarashdan farqli o‘laroq, zamonaviy boshqaruv insonlarni malakalar, ijodkorlik, innovatsiya va strategik qiymat kiritadigan dinamik aktiv sifatida qabul qiladi. Ushbu maqola ishchi kuchining inson kapitaliga aylanish jarayonini o‘rganib, iste’dodni yollash, o‘qitish, rivojlantirish va ushlab turish orqali rivojlantirishda boshqaruvning muhim rolini ta’kidlaydi. Shuningdek, ta’limga, sog‘liqni saqlashga va doimiy o‘rganishga sarmoya kiritish nafaqat tashkilot raqobatbardoshligini, balki milliy iqtisodiy o‘sishni ham mustahkamlaydi. Zamonaviy amaliyotlar va kelajak tendentsiyalarini tahlil qilgan holda, maqola samarali inson kapitali boshqaruvi faqat operatsion vazifa emas, balki tashkilotlarning kelajagini shakllantiruvchi strategik zarurat ekanligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, ishchi kuchi, boshqaruv, iste’dodlarni rivojlantirish, tashkilot raqobatbardoshligi, innovatsiya, xodmlarni yollash, o‘qitish, bilimga asoslangan iqtisodiyot, strategik IRB.

ОТ РАБОЧЕЙ СИЛЫ К ЧЕЛОВЕЧЕСКОМУ КАПИТАЛУ: БУДУЩЕЕ УПРАВЛЕНИЯ

Хамрокулов Мираббос Ортикович
ТГЭУ, Кафедра «Экономика труда»,PhD

Аннотация. Человеческий капитал стал краеугольным камнем успеха организаций в экономике, основанной на знаниях. В отличие от традиционного взгляда на сотрудников как на рабочую силу, измеряемую прежде всего производительностью труда, современное управление рассматривает людей как динамичные активы, которые вносят свои навыки, креативность, инновации и стратегическую ценность. В данной статье рассматривается эволюция рабочей силы в человеческий капитал с акцентом на ключевую роль управления в развитии талантов посредством найма, обучения, развития и удержания сотрудников. Также подчёркивается, что инвестиции в образование, здравоохранение и непрерывное обучение укрепляют как конкурентоспособность организаций, так и экономический рост страны. Анализируя современные практики и будущие тенденции, статья подчёркивает, что эффективное управление человеческим капиталом — это не просто операционная задача, а стратегическая необходимость, формирующая будущее организаций.

Ключевые слова: человеческий капитал, рабочая сила, управление, развитие талантов, конкурентоспособность организации, инновации, найм, обучение, удержание, экономика знаний, стратегический HRM.

Introduction

In today’s knowledge-driven economy, organizations are increasingly defined not by the machinery they own or the capital they invest, but by the skills, creativity, and adaptability of their people. Traditionally, the term workforce emphasized employees as a collective body of labor, valued primarily for physical output and task completion. However, with globalization, technological advancement, and the rise of the digital economy, this narrow perspective has shifted toward recognizing individuals as human capital—a vital resource capable of driving innovation, problem-solving, and long-term growth.

Human capital represents the knowledge, competencies, health, and experiences that employees bring to an organization. Unlike machines or financial resources, it is a living, evolving asset that requires continuous investment and strategic management. For businesses and institutions, the ability to recruit, develop, and retain skilled talent has become a decisive factor in achieving competitive advantage. At the same time, nations view human capital development as a driver of economic resilience and sustainable prosperity.

This article examines the transformation from workforce to human capital, focusing on the role of management in harnessing people’s potential. It explores how modern management practices—ranging from recruitment and training to employee engagement and innovation—shape not only organizational performance but also the future of work itself.

Literature review

The concept of human capital has been widely examined in economics, management, and organizational studies. Early economic theories primarily regarded labor as a factor of production measured in quantitative terms. However, with the pioneering works of Theodore W. Schultz (1961) and Gary S. Becker (1964), human capital was re-conceptualized as an asset in which investments—such as education, health, and skills training—enhance productivity and yield long-term economic returns. Their contributions established the foundation for understanding human capital as a driver of both individual and national economic growth.

Subsequent research expanded the scope of human capital to organizational contexts. Wright and McMahan (1992) introduced the perspective of Strategic Human Resource Management (SHRM), emphasizing the alignment of human capital with business strategy to achieve sustainable competitive advantage. Similarly, Barney (1991) in the Resource-Based View (RBV) of the firm highlighted that human resources, when rare, valuable, inimitable, and non-substitutable, can serve as a source of enduring organizational success.

Contemporary scholars have further explored the qualitative dimensions of human capital. Lepak and Snell (1999) argued that organizations must manage different types of human capital differently, depending on their strategic value and uniqueness. Meanwhile, research by Ulrich (1997) underscored the role of HR professionals as strategic partners in building organizational capabilities and nurturing talent.

Recent studies also focus on the role of human capital in the digital era. According to World Economic Forum reports (2018–2023), the rapid pace of technological change requires continuous upskilling and reskilling of employees to maintain workforce relevance. Scholars such as Brynjolfsson and McAfee (2014) emphasize that innovation and digital transformation are increasingly dependent on human creativity and adaptability rather than routine labor.

In summary, the literature demonstrates a clear evolution: from treating employees as part of the workforce to recognizing them as dynamic human capital. This shift underscores the need for proactive management strategies that not only invest in people but also create environments where talent can thrive, innovate, and contribute to long-term organizational resilience.

Analysis

The transformation from viewing employees as a collective workforce to recognizing them as human capital has profound implications for management practices. This shift reflects broader changes in the global economy, organizational structures, and employee expectations.

1. From Labor to Human Capital

In the industrial era, management primarily focused on efficiency, cost reduction, and task completion. Workers were seen as interchangeable units

of labor. Today, however, organizations understand that talent is not homogeneous. Individual knowledge, creativity, and problem-solving ability represent unique contributions that cannot be easily replaced. This redefinition requires managers to adopt strategies that maximize employee potential rather than simply monitor performance.



Figure 1. Skills demanded in the digital economy vs. current supply, showing the gap.

2. Strategic Role of Human Capital in Organizations

Human capital is now considered a source of sustainable competitive advantage. Companies such as Google, Microsoft, and Samsung demonstrate how investment in people—through continuous training, innovation-friendly cultures, and employee well-being—directly correlates with market leadership. This shows that the management of human capital is not an administrative function but a strategic imperative that shapes organizational success.

3. Key Management Practices in Human Capital Development

Several management practices are central to enhancing human capital:

Recruitment and Selection: Attracting talent that aligns with organizational culture and future goals.

Training and Development: Continuous learning opportunities to adapt to rapid technological change.

Performance Management: Shifting from evaluation-centered systems to growth-focused feedback models.

Employee Engagement: Creating inclusive environments that foster loyalty, innovation, and job satisfaction.

Retention Strategies: Recognizing employees as long-term assets by offering career development and well-being programs.

4. Challenges in Human Capital Management

While the importance of human capital is universally recognized, organizations face challenges in managing it effectively. Talent shortages in critical sectors, the high cost of continuous training, and rapid technological disruptions demand adaptive strategies. Moreover, globalization has

intensified competition for skilled labor, pushing managers to adopt flexible, innovative, and employee-centered approaches.



Figure 2. Internet penetration in Uzbekistan from 2010 to 2024

5. Future Outlook

The future of management will be defined by the ability to integrate human capital into broader strategic visions. As automation and artificial intelligence transform industries, uniquely human attributes—such as creativity, leadership, and emotional intelligence—will become even more valuable. Effective management will therefore focus on balancing technological advancement with human development, ensuring that organizations remain innovative, resilient, and people-centered.

Discussion

The analysis demonstrates that the transition from workforce to human capital is more than a change in terminology; it reflects a fundamental transformation in how organizations create value and compete in the global economy. This section discusses the broader implications of human capital management, its relevance to organizational strategy, and the potential debates surrounding its application.

Organizations that treat employees as strategic assets rather than expendable resources are more likely to achieve long-term growth. This perspective aligns with the Resource-Based View (RBV), which argues that unique, valuable, and inimitable resources—such as highly skilled employees—are key drivers of sustained competitive advantage. The shift suggests that management must integrate human capital considerations into corporate strategy, not limit them to HR functions.

One of the central debates concerns the cost of investing in human capital. Training, development, and well-being programs require significant financial resources. Some organizations, particularly in developing economies, hesitate to invest due to fears of employee turnover or uncertain returns. However, evidence from global corporations shows that consistent investment in people generates innovation, loyalty, and market resilience. Thus, the discussion highlights a paradox: human capital is costly to develop, but failing to invest is even more costly in the long run.

The rise of automation and artificial intelligence has reignited discussions about the future of work. While machines replace repetitive tasks, human capital is increasingly valued for creativity, ethical judgment, and adaptability. This raises questions about how managers can balance technological advancement with human development. Organizations must avoid over-reliance on technology at the expense of human capabilities, instead fostering hybrid systems where people and machines complement each other.

Human capital management is not uniform across countries. In developed economies, emphasis is often placed on innovation and knowledge creation, while in developing contexts, basic education, health, and skill development remain critical. Cultural factors also shape perceptions of human capital—collectivist societies may value teamwork and loyalty, whereas individualist cultures highlight personal achievement and innovation. These differences underline the need for context-specific management approaches.

Viewing people as “capital” raises ethical concerns. Critics argue that reducing employees to assets risks dehumanization. To counter this, modern management frameworks increasingly emphasize employee well-being, dignity, and inclusion. The future of human capital management will likely blend economic value creation with social responsibility, ensuring that organizations remain not only profitable but also equitable and sustainable.

Conclusion

The transformation from workforce to human capital marks a critical turning point in how organizations perceive and manage people. Human capital emphasizes employees as dynamic assets whose knowledge, creativity, and well-being are central to organizational performance and competitiveness. Unlike traditional workforce management, which focused largely on efficiency and cost reduction, human capital management seeks to invest in and develop individuals as sources of long-term value.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida aholining turmush farovonligini oshirishda tadbirkorlikning tutgan o‘rni hamda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati tahlil qilingan. Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi hamda ushbu subyektlarda band bo‘lganlar soni hududlar kesimida o‘rganilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning tadbirkorlikni iqtisodiy o‘sish va jamiyat farovonligidagi o‘rniga doir ilmiy yondashuvlari tahlil qilinib, ushbu sohaning O‘zbekistondagi rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Natijalarga ko‘ra, tadbirkorlik iqtisodiy faol aholining bandligi, daromadlarining ortishi va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi asosiy omil ekanligi tasdiqlangan.

Kalit so’zlar: Tadbirkorlik, bandlik, kichik biznes, aholi turmush farovonligi, aholi daromadlari, iqtisodiy rivojlanish.

ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Искандарова Дилафруз Икром кизи
Ташкентский государственный экономический университет
Докторант кафедры Экономики труда,
Университет науки и технологий
Преподаватель кафедры «Экономика»

Аннотация. В данной статье проанализирована роль предпринимательства в повышении уровня жизни населения Республики Узбекистан, а также государственная политика, реализуемая в направлении развития малого и среднего бизнеса. Автором исследованы доля субъектов малого предпринимательства в общей занятости и численность занятых в этих субъектах по регионам на основе данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистике. Также рассмотрены научные подходы зарубежных и отечественных ученых к роли предпринимательства в экономическом росте и благосостоянии общества. По результатам исследования установлено, что предпринимательство является

ключевым фактором обеспечения занятости экономически активного населения, роста доходов и социальной стабильности.

Ключевые слова: Предпринимательство, занятость, малый бизнес, уровень жизни населения, доходы населения, экономическое развитие.

THE IMPORTANCE OF ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN IMPROVING LIVING STANDARDS AND INCREASING INCOME IN UZBEKISTAN

Iskandarova Dilafruz Ikrom kizi
Tashkent State University of Economics
PhD Researcher, Department of Labor Economics,
University of Science and Technologies
Teacher, Department of “Economics”

Abstract. This article analyzes the role of entrepreneurship in improving the living standards of the population in the Republic of Uzbekistan, as well as the state policy being implemented to develop small and medium-sized businesses. The author examines the share of small business entities in total employment and the number of people employed in these entities across regions based on data from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Furthermore, the paper reviews academic approaches by foreign and domestic scholars regarding the role of entrepreneurship in economic growth and societal well-being. The findings confirm that entrepreneurship serves as a key factor in ensuring employment of the economically active population, increasing income levels, and promoting social stability.

Keywords: Entrepreneurship, employment, small business, living standards, population income, economic development.

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bu – aholining turmush darajasini oshirish va barqaror farovonlikni ta’minlashdir. Ushbu maqsadlarga erishishda tadbirkorlik faoliyatining roli nihoyatda katta. Chunki tadbirkorlik nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratadi, balki iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalarni joriy etish va hududiy rivojlanishga ham sezilarli hissa qo‘shadi. Shu bois, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda tadbirkorlik jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaraladi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitida bu sohani rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlik – bu o‘z mulki asosida tavakkalchilikni ko‘zlagan holda foyda olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat bo‘lib, iqtisodiy o‘sish, ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik uchun qulay muhit va huquqiy kafolatlar yaratish orqali aholining turmush darajasini oshirish maqsad qilingan.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 10-noyabrda imzolangan “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmonda tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish choralari belgilandi. Unda o‘rta biznesga resurslar yetishmasligi masalasi ko‘tarilib, muqobil moliyalashtirish vositalari, xizmatlar ipotekasi, va ulush kiritish kabi mexanizmlar joriy etildi. Tadbirkorlikni rivojlantirish jamg‘armasi esa endilikda “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” sifatida faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, o‘zini o‘zi band qilayotgan fuqarolarga ko‘mak ko‘rsatish, yashil texnologiyalarni joriy etish, energiya tejamkorlikni qo‘llab-quvvatlash, va banklar orqali milliy hamda xorijiy valyutadagi resurslarni kichik biznesga yetkazish ishlari olib borilmoqda. Tadbirkorlik faqat iqtisodiy yuksalish emas, balki bandlik, innovatsiya, ilmiy tadqiqotlar, va jamiyat farovonligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Chunki tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning mamlakat miqyosida ahamiyati quyidagilardan iborat:

– Tadbirkorlikni rivojlantirish aholini ish bilan ta'minlaydi;

– aholi bandligi ta’minlangach, daromadlarni oshiradi va kambag’allikni qisqartirish, uy-joy mulkdorlarining ko’payishi kabilarga yordam beradi;

– yangi mahsulot ishlab chiqarishni, bozorda tovarlarning sifatini ta'minlaydi, raqobatbardoshlikni oshiradi va odamlarning turmush darajasini yaxshilaydi;

– yangi mahsulot va xizmatlar bozorga chiqarilishidan oldin o'rganilishi va sinovdan o'tkazilishi kerak, shu sababli ilmiy-tadqiqot ishlarini qo’llab-quvvatlaydi va rag’batlantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri borasida bir qator xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, G‘arb tadqiqotchilarining yondashuvlari tadbirkorlikni iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatida ko‘rsatadi.

Masalan, J.Schumpeter [1] o‘zining innovatsion yondashuvi bilan mashhur bo‘lib, u tadbirkorlarni iqtisodiy tizimda yangilik kirituvchilar sifatida baholaydi. Schumpeterning fikricha, tadbirkorlar bozorda yangiliklar orqali raqobat muhitini keskinlashtirib, iqtisodiy o‘sishga turtki beradi. Bu yondashuv ayniqsa, bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Yana bir mashhur iqtisodchi I.Kirzner [2] esa tadbirkorlikni imkoniyatlarni ilg‘ash va resurslarni samarali yo‘naltirish jarayoni sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, tadbirkorlar mavjud bozor nuqsonlarini aniqlab, ularni to‘ldirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Bu yondashuv iqtisodiy farovonlikka olib keluvchi jarayon sifatida tadbirkorlikni keng tushunishga imkon beradi.

Shuningdek, P.F.Drucker [3] tadbirkorlikni faqatgina biznes yuritish emas, balki menejment va strategik fikrlash asosida innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish vositasi sifatida ta’riflaydi. Uning qarashlarida

tadbirkorlik — mavjud resurslardan yangicha va samarali foydalanish orqali yangi qiymat yaratish manbai hisoblanadi.

Mahalliy olimlar ham bu borada bir qancha tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, akademik K.X.Abdurahmonov [4] o‘z tadqiqotlarida O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish mumkinligini asoslaydi. Uning tadqiqot ishlarida, ayniqsa, ishsizlik muammosining kamayishida tadbirkorlikning tutgan o‘rni batafsil yoritilgan.

G.Q.Abduraxmonova [5] esa ilmiy izlanishlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ularni biznesga jalb qilish va gender tengligini ta’minlash orqali jamiyat farovonligini oshirish masalalariga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy o‘zgarishlar uchun ham kuchli vositadir.

Shuningdek, Z.Raxmonov hamda A.Hakimov [6] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari, startap va loyihalarini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘rgatish masalalari yoritilgan.

Mahalliy olimlardan Z.Ya.Xudayberdiyev [7], N.Arabov [8], A.Irmatova [9], S.G’oyipnazarov va S.Qurbonovning [10] ilmiy tadqiqot ishlarida ham aholi daromadlarini oshirishda tadbirkorlikni rivojlanitirishning ahamiyati yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot ishida statistik guruhlash, induksiya, deduksiya, qiyosiy taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan. Statisistik ma’lumotlarni olishda O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlariga asoslangan.

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, kichik va o‘rta biznes subyektlariga yaratilgan soliq imtiyozlari, kreditlash mexanizmlarining soddalashtirilishi, yer ajratish va litsenziyalash jarayonlarining elektronlashtirilishi orqali ishbilarmonlik muhiti sezilarli darajada yaxshilandi. Bu esa o‘z navbatida, yangi tadbirkorlik subyektlarining paydo bo‘lishiga, mavjud korxonalar faoliyatining kengayishiga va natijada yangi ish o‘rinlari yaratilishiga zamin yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil yakuniga qadar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida band bo‘lgan aholining soni umumiy mehnat bozorining 74 foizidan oshdi. Bu esa aholining doimiy daromadga ega bo‘lishiga, turmush sharoitlarining yaxshilanishiga va ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanishiga xizmat qilmoqda.

1-jadval ma’lumotlari O‘zbekiston va uning viloyatlari kesimida 2019-2023-yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlarining bandlikdagi o‘rni qanday o‘zgarib borganini izohlaydi.

1-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi, foiz

Hudud	2019	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	76,2	74,5	74,5	73,9	74
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	74,9	74,2	74,2	74,1	74,5
Andijon viloyati	82,1	80,8	80,7	80,2	80,7
Buxoro viloyati	76,1	74,9	74,2	74,3	74,5
Jizzax viloyati	79,7	78,4	78,8	77,3	77,1
Qashqadaryo viloyati	78,5	78,1	78,5	78,2	78,1
Navoiy viloyati	55	51,9	52,3	51,1	52,1
Namangan viloyati	82,8	81,6	82,2	81	80,9
Samarqand viloyati	82,8	81,7	81,5	80,9	81,1
Surxondaryo viloyati	79,6	78,2	78,4	76,9	76,8
Sirdaryo viloyati	76,4	74,5	74,4	72,9	71,9
Toshkent viloyati	72,8	70,8	69,8	70	70,6
Farg‘ona viloyati	79,4	78,4	78,5	78,7	79,1
Xorazm viloyati	80,4	79,3	79,1	78,1	78,5
Toshkent shahri	53,7	49,7	50,2	50	49,4

Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi 2019-yildagi 76,2% dan 2023-yilga kelib 74% ga tushgan. Bu ko‘rsatkich nisbatan barqaror saqlangan bo‘lsa-da, umumiy tendensiyada ozgina pasayish kuzatilmoqda. Viloyatlar kesimida eng yuqori ko‘rsatkichlar Andijon (80,7%), Namangan (80,9%) va Samarqand (81,1%) viloyatlarida qayd etilgan. Ushbu hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati nisbatan rivojlangan bo‘lib, bandlik darajasiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Ayniqsa, Namangan va Samarqandda ushbu ulush deyarli 2019-yildan buyon 80% atrofida saqlanib qolgan. Farg‘ona, Xorazm, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida ham kichik tadbirkorlikning bandlikdagi ulushi yuqori bo‘lib (78–79%), barqaror tendensiya saqlanmoqda. Toshkent shahri va Navoiy viloyati esa eng past ko‘rsatkichlarga ega. Xususan, Toshkent shahrida 2019-yildagi 53,7% ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 49,4% gacha tushgan. Bu kamayish poytaxtda yirik korxona va davlat sektori bandligining nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Navoiy viloyatida bu ko‘rsatkich 2019-yildagi 55% dan 2023-yilga kelib 52,1% gacha pasaygan. Toshkent viloyati va Sirdaryo viloyatida esa 2019-yildan 2023-yilgacha pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Masalan, Sirdaryo viloyatida bu ko‘rsatkich 76,4% dan 71,9% gacha pasaygan.

Shuningdek, O’zbekistonda hududlar kesimidia kichik biznes va tadbirkorlik bilan band aholi sonining tahlili 1-rasmda keltirib o’tilgan.



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni, ming kishi

Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

2019–2023-yillar davomida O‘zbekiston bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lganlar soni 10318,9 ming kishidan 10373,3 ming kishigacha ortib, umumiy miqyosda ijobiy tendensiyani ko‘rsatmoqda. Har yili kichik farq bilan o‘sib borayotgan bu ko‘rsatkich pandemiyadan keyingi tiklanish davrining samarali kechganligini anglatadi. Ayniqsa, 2022–2023-yillar oralig‘ida bandlikda 240 ming kishidan ortiq o‘sish kuzatilgan.

Hududlar bo‘yicha tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar 2023-yilda Samarqand viloyati (1219,5 ming kishi), Farg‘ona viloyati (1230,1 ming kishi) va Andijon (1071,9 ming kishi) viloyatlarida qayd etilgan. Bu viloyatlar tadbirkorlik salohiyati yuqori, aholisi zich joylashgan va ishbilarmonlik muhiti faol bo‘lgan hududlardir.

Kichik tadbirkorlikda band bo‘lganlar soni o‘rtacha darajada bo’lgan viloyatlar: Qashqadaryo viloyati – 952,4 ming kishi; Namangan viloyati – 913,8 ming kishi; Toshkent viloyati – 872 ming kishi; Surxondaryo viloyati – 776,1 ming kishi.

Eng kam bandlik ko‘rsatkichi esa quyidagi hududlarda kuzatilgan: Sirdaryo viloyati – 243 ming kishi; Navoiy viloyati – 222,2 ming kishi; Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 547,6 ming kishi hamda Toshkent shahri – 689,4 ming kishini tashkil etgan.

Tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy o‘sish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda, balki aholi daromadlarini barqaror oshirishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, sanoat va eksportdagi hissasi sezilarli darajada oshgani bu sohaning iqtisodiyotdagi real ta’sirini tasdiqlaydi. Ayniqsa, bandlikdagi ulushining 2003-yildagi 56,7 foizdan 2023-yilda 74,1 foizga ko‘tarilgani, aholini

tadbirkorlik orqali barqaror daromad bilan ta’minlash mexanizmlarining samaradorligini yaqqol ko‘rsatmoqda .



2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, umumiy hajmga nisbatan % da

Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Bundan tashqari, ekologik toza ishlab chiqarish va “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi asosida amalga oshirilayotgan loyihalar innovatsion tadbirkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish orqali nafaqat ishlab chiqarish samaradorligi oshmoqda, balki ekologik muhitni asrashga ham hissa qo‘shilmoqda.

Umuman olganda, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy mexanizmlar aholining turmush farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Aholining iste’mol xarajatlari, moliyaviy mustaqilligi va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish darajasi oshgan. Bu esa O‘zbekistonda tadbirkorlikni faollashtirish aholining hayot sifati va iqtisodiy imkoniyatlarini yaxshilashda muhim omilga aylanganini isbotlaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi aholining turmush darajasiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari orqali yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, aholi daromadlarining barqarorligi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Hududlar kesimidagi tahlilga ko‘ra, Farg‘ona, Samarqand va Andijon viloyatlarida bu jarayon ancha faol kechayotgan bo‘lsa, Toshkent shahri va Navoiy viloyatida tadbirkorlikda bandlik darajasi pastligicha qolmoqda. Bu esa har bir hududga xos strategik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ekologik va innovatsion tadbirkorlik yo‘nalishlarining qo‘llab-quvvatlanishi iqtisodiy o‘sishning sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishini ta’minlaydi. Maqolada ilgari surilgan ilmiy va statistik asoslar tadbirkorlikni rivojlantirish orqali barqaror farovonlikka erishish mumkinligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press.
2. Kirzner, I. M. (1973). Competition and Entrepreneurship. Chicago: University of Chicago Press.
3. Drucker, P. F. (1985). Innovation and Entrepreneurship. New York: Harper & Row.
4. Q.X.Abduraxmanov. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. O'zRFA "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, Toshkent, 2019
5. Abdurahmonova G.Q. Inson resurslarni boshqarish. Darslik. –T.: O`zR FA “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2021. – 696 b.
6. Z.Rakhmanov, A.Khakimov. Uzbekistan's practice on development of entrepreneurship between youth. South Asian Journal of Marketing & Management, 10(6):17, January 2020. DOI: 10.5958/2249-877X.2020.00039.9
7. Худойбердиев З.Я. ва б. Тадбиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси асослари. 2-нашр. Ўқув қўлланма. –Т.: “ILM ZIYO”, 2017й. - 344 б
8. Abduramanov, X., Arabov, N., & Xolmuxamedov, M. (2021). Aholi daromadlari va turmush sifati. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim nashriyoti.
9. A.B.Irmatova. Aholi kambag’alligining konseptual yondashuvlari. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali, 2024-yil 2-son. https://laboreconomics.uz/article/196
10. G.K.Abduraxmanova; S.B.G’oyipnazarov; S.P.Qurbonov. Mamlakat aholisini unumli bandlik yordamida tuzatishni ta'minlash. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali, 2024-yil 1-son. https://laboreconomics.uz/article/161
11. Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari, www.stat.uz

MEHNAT IQTISODIYOTI
VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117
https://laboreconomics.uz/

“KAMBAG‘ALLIK QOPQONI” FAOLLIGI VA UNI UNUMLI BANDLIK TAMOYILLARI ASOSIDA SO‘NDIRISH IMKONIYATLARI

Qurbonov Samandar Pulatovich
Mehnat bozori tadqiqotlari instituti, doktorant,
TDIU, "Mehnat iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, PhD
e-mail: s.kurbonov@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a197

Annotatsiya. Maqolada kambag‘allik qopqonining mohiyati va uni so‘ndirish yo‘llari mehnat bozori siyosatlari va unumli bandlik tamoyillari asosida tahlil qilingan. Panel ma’lumotlari tahlili natijalariga ko‘ra, ish bilan bandlik indeksi va YAHM o‘sishi kambag‘allik darajasini sezilarli pasaytiradi, ishsizlik va inflyatsiya esa aksincha, uni kuchaytiradi. Shu bilan birga, minimal ish haqi va ijtimoiy to‘lovlar aholining daromad poli sifatida kambag‘allik qopqonini zaiflashtirishda muhim ahamiyatga ega ekani aniqlangan. VAR modeli asosida 2025–2030 yillarga qadar O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi bosqichma-bosqich pasayishi prognoz qilingan. Natijalar shundan dalolat bermoqdaki, unumli bandlik — ya’ni adekvat ish haqi, mehnat huquqlari va ijtimoiy himoya bilan ta’minlangan sifatli ish o‘rinlari — kambag‘allik qopqonini so‘ndirish va aholi turmush darajasini oshirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik qopqoni, unumli bandlik, mehnat bozori, ishsizlik, inflyatsiya, ijtimoiy himoya, minimal ish haqi, iqtisodiy o‘sish, panel ma’lumotlari tahlili, VAR modeli.

АКТИВНОСТЬ «ЛОВУШКИ БЕДНОСТИ» И ВОЗМОЖНОСТИ ЕЁ ПРЕОДОЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ ПРОДУКТИВНОЙ ЗАНЯТОСТИ

Курбанов Самандар Пулатович
Институт исследований рынка труда, докторант,
ТГЭУ, PhD, доцент кафедры «Экономика труда»

Аннотация. В статье анализируется сущность «ловушки бедности» и пути её преодоления на основе политики на рынке труда и принципов продуктивной занятости. По результатам анализа панельных данных установлено, что индекс занятости и рост ВВП существенно снижают уровень бедности, тогда как безработица и инфляция, напротив, усиливают её. При этом минимальная заработная плата и социальные выплаты играют важную роль в качестве «доходного пола» в ослаблении ловушки бедности. На основе VAR-модели прогнозируется постепенное снижение уровня бедности в Узбекистане в период 2025–2030 годов. Полученные результаты свидетельствуют о том, что продуктивная занятость — то есть качественные рабочие места с адекватной заработной платой, трудовыми правами и социальной защитой — является ключевым механизмом преодоления ловушки бедности и повышения уровня жизни населения.

Ключевые слова: ловушка бедности, продуктивная занятость, рынок труда, безработица, инфляция, социальная защита, минимальная заработная плата, экономический рост, анализ панельных данных, VAR-модель.

THE ACTIVITY OF THE “POVERTY TRAP” AND THE POSSIBILITIES OF EXTINGUISHING IT ON THE BASIS OF PRODUCTIVE EMPLOYMENT PRINCIPLES

Kurbonov Samandar Pulatovich
Institute for Labor Market Research, doctoral student,
Associate Professor of the "Labor Economics" Department, PhD

Abstract. The article analyzes the essence of the poverty trap and the ways to overcome it through labor market policies and the principles of productive employment. According to the results of panel data analysis, the employment index and GDP growth significantly reduce the level of poverty, while unemployment and inflation, on the contrary, increase it. At the same time, the minimum wage and social transfers play an important role as an income floor in weakening the poverty trap. Based on the VAR model, it is forecasted that the poverty rate in Uzbekistan will gradually decline during 2025–2030. The findings indicate that productive employment—namely, quality jobs that ensure adequate wages, labor rights, and social protection—represents the key mechanism for overcoming the poverty trap and improving the population’s living standards.

Keywords: poverty trap, productive employment, labor market, unemployment, inflation, social protection, minimum wage, economic growth, panel data analysis, VAR model.

Kirish

Kambag‘allik qopqoni – bu aholi yoki xo‘jalik birliklari resurslarining yetarli emasligi sababli o‘z holatini o‘zgartirish imkoniyati cheklanib qolishi bilan tavsiflanadigan holatdir. Uning mohiyati shundaki, kambag‘allikdagi odamlar ta’lim, sog‘liq va mulkka sarmoya kirita olmagani uchun mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lmaydi, kam daromad oladi va yana kambag‘allikda qoladi. Bu jarayon o‘z-o‘zini qayta ishlab chiqaradigan “siklik mexanizm”ga aylanadi.

Kambag‘allik qopqoni faolligini bartaraf etish uchun xalqaro tajribalar turli yo‘llardan foydalanib kelishmoqda. Masalan, Janubiy Koreya misolida ommaviy savodxonlik va texnik ta’lim bo‘ycha strategik dasturlar ishlab chiqib, mehnat bozori uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlab, mamlakatni iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqqan bo‘lsa, Braziliya shartli ijtimoiy to‘lovlar orqali oilalarni farzandlarini maktabga yuborish va tibbiy xizmatdan foydalanishga majbur qildi, bu esa kambag‘allikning avloddan avlodga o‘tishini chekladi.

Tegishli institutlar samarali faoliyati va taqsimotdagi adolatli siyosatlari qopqonni zaiflashtiradi. Skandinaviya mamlakatlari barqaror ijtimoiy davlat modelini shakllantirib, aholiga keng qamrovli ijtimoiy kafolatlar berishgan.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda “Yagona ijtimoiy reestr” tizimi joriy etilib, ijtimoiy yordamlar maqsadli ravishda yetkazib berilmoqda va kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi amalga oshirilmoqda. Demak,

kompleks yondashuv – ta’lim, sog‘liq, ijtimoiy himoya, moliyaviy xizmatlar va institutsional islohotlar uyg‘unligi orqali mamlakatlar kambag‘allik qopqonidan chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqida “So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishdik. Bunga, avvalo, ta’lim va ilm-fan sohasini o‘zgartirish, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalarini barpo etish, “yashil” energetika va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik biznesni har tomonlama rivojlantirish va natijada millionlab ish o‘rinlari yaratish orqali erishmoqdamiz” deya ta’kidlab o‘tdi [1].

Mamlakatda ta’lim va ilm-fan tizimini yangilash, innovatsion tarmoqlar va sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratildi. Shu bilan birga o‘zini-o‘zi band qilgan shaxslar soni tezkor tartibda ortib bordi. Bu esa mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ularni yuqori qiymat qo‘shadigan sohalarga jalb qilish imkonini berdi.

Shuningdek, “yashil” energetika va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish natijasida ham minglab yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ldi. Bu ish o‘rinlari nafaqat ishsizlikni kamaytirishga, balki aholining barqaror va uzoq muddatli daromad manbalariga ega bo‘lishiga xizmat qildi. Shu yo‘l bilan mehnat bozorida sifatli va unumli bandlik kengaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ham aholini ish bilan ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘ldi. Soliq imtiyozlari, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining kengayishi va hududiy dasturlar orqali millionlab fuqarolar tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilindi. Natijada mehnat bozorida diversifikatsiya ta’minlanib, kambag‘allik qopqonini zaiflashtirish uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yaratildi. Biroq, “kambag‘allik qopqoni” hamon mavjudligi olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga soya solishi, natijadorlikni pasaytirishi tabiiydir. Bunda 70% dan ortiq daromadi mehnat daromadlariga asoslangan aholini unumli bandlik tamoyillari asosida band bo‘lishi juda muhimdir.

Unumli bandlik iqtisodiyotga hissa qo‘shadigan va kambag‘allik chegarasidan yuqori iste’molni ta’minlash uchun yetarli daromad keltiradigan ishdir. Bu shunchaki ish bo‘lishdan tashqarida; bu munosib turmush darajasini ta’minlovchi sifatli bandlik haqidagi kontsepsiyadir.

Ushbu ilmiy maqola unumli bandlikning asosiy jihatlarini, uning shaxslar va jamiyatga ta’sirini hamda bunday turdagi bandlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan strategiyalarni tadqiq etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Bsh bilan bandlik ijtimoiy farovonlikning asosiy mezonlaridan hisoblanadi.

Osiyo taraqqiyot bankining unumli bandlik – kambag‘allikni qisqartishning muhim omili nomli hisobot nashrida unumli bandlik nafaqat kambag‘allarni yaxshi daromad bilan ta’minlaydi, balki o‘rganish va

ko‘nikmalarni egallash va jamiyatda ishtirok etish imkoniyatini rag‘batlantirishi mumkinligi keltirib o‘tilgan [2].

1-jadval

Ish bilan bandlik va kambag‘allik o‘rtasidagi nazariy asoslar[7]

T/r	Nazariy yo‘nalish	Asosiy ta’rif	Ish bilan bandlikka ta’sir	Kambag‘allikka ta’sir
1.	Klassik iqtisodiy nazariya (A. Smit [3], D. Rikardo)	Bozor mexanizmlari orqali mehnat talab va taklifi muvozanat topadi	To‘liq ish bilan bandlik mehnat samaradorligini oshiradi	Daromadlar ortib, kambag‘allik pasayadi
2.	Keynsian nazariya (J. Keyns) [4]	Davlatning fiskal va pul-kredit siyosati orqali ish bilan bandlikni rag‘batlantirishi mumkin	Davlat sarmoyalari va ijtimoiy dasturlar ishsizlikni pasaytiradi	Talab oshishi o‘z navbatida ish o‘rinlari ko‘payishiga, pirovardida esa kambag‘allik kamayishiga xizmat qiladi
3.	XMTning “unumli bandlik” konsepsiyasi [5]	Faqat ish o‘rni emas, balki adekvat ish haqi, ijtimoiy kafolat va mehnat huquqlari zarur	“Sifatli ish” yaratilishi barqaror ish bilan bandlikni ta’minlaydi	Barqaror va adekvat ish haqi ish bila band shaxslarni kambag‘allikdan chiqishga imkoniyat beradi
4.	Kuznets nazariyasi [6]	Iqtisodiy o‘sish avvalida tengsizlik o‘sadi, keyin pasayadi	Ishlab chiqarish o‘sishi bilan ish o‘rinlari ko‘payadi	Uzoq muddatda tengsizlik va kambag‘allik pasayadi
5.	Kambag‘allik qapqoni nazariyasi [7]	Kambag‘allikning o‘zi ish bilan bandlik imkoniyatlarini cheklaydi	Kambag‘al aholi sog‘liq, ta’lim va malakadan mahrum shaxslar mehnat bozorida nofaol bo‘lishadi	Kambag‘allik o‘z-o‘zini qayta tiklayverish “qobiliyati”ga ega bo‘ladi
6.	Zamonaviy rivojlanish va milliy strategiyalar [8]	Sifatli ish o‘rinlari barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy qismi hisoblanadi	Innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi	Sifatli ish o‘rinlari va ijtimoiy himoya kambag‘allikni pasaytiradi

Sohada tadqiqot olib borgan iqtisodchi olim Dokich Milikaning fikriga ko‘ra unumli bandlik inson kapitalining sifatini belgilab, uning darajasi asosan texnologiya va innovatsiyalardan foydalanish imkoniyati, me’yoriy-huquqiy baza va makroiqtisodiy barqarorlikka bog‘liqligi ta’kidlanadi [9]. Shuningdek, ushbu tadqiqotda muallif aholini unumli bandligini kengaytirish uchun xukumatning qo‘llab-quvvatlovi muhim ahamiyat kasb etishini iddao etadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining 2012-yil Jenevada o‘tkazilgan xalqaro konferensiyasi hisobotida unumli bandlik iqtisodiy o‘sishning afzalliklarini qashshoqlikni kamaytirishga aylantirish uchun ham, daromad taqsimotidagi

[7] Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

tengsizlikni kamaytirish uchun ham inklyuziv o‘sishning muhim elementi hisoblanadi. buning uchun xukumatlar munosib va unumli bandlik darajasini ta’minlash uchun mukammal bandlik mexanizmini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari lozim deb, xulosa qilinadi [10].

“Include” tadqiqot markazi a’zosi Marlin Deker tomonidan olib borilgan ilmiy xulosaga ko‘ra, “unumli bandlik” nafaqat rasmiy sektordagi ish joylariga, balki norasmiy sektordagi faoliyatni ham o‘z ichiga oladi. Tadqiqotga ko‘ra, agar ish quyidagi uchta asosiy xususiyatga/mezonga javob bersa, “unumli” hisoblanadi:

- ish haqi adolatli bo‘lishi uchun, ish bilan bog‘liq ish haqi o‘rtacha oilaga (ishchi va bevosita qaramog‘ida bo‘lgan shaxslar) kambag‘allik chegarasidan yuqori iste’mol darajasini ta’minlash uchun yetarli bo‘lishi kerak.
- ish va unga bog‘liq daromadlar yetarli darajada barqaror va bashorat qilinadigan bo‘lishi kerak. Beqarorlik zaif bandlik bilan bog‘liq bo‘lib, bu juda o‘zgaruvchan va noaniq daromadli bandlik turidir.
- munosib mehnat sharoitlari, jumladan, majburiy mehnat alomatlari mavjud bo‘lmasligi (qullik, bolalar mehnati), barcha ishchilar uchun teng sharoit va imkoniyatlar, ishdagi xavfsizlik (xav-xatarlar) va mehnatkashlarning qadr-qimmatining ulug‘lanishi kabilar mavjud bo‘lishini o‘z ichiga oladi [11].

Unumli bandlik sog‘lom iqtisodiyot va jamiyatning asosidir. Bu shunchaki ish o‘rinlari yaratishdan tashqari, ishchilarning iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shish bilan birga yashash uchun yetarli darajada mehnat daromadiga ega bo‘lishini kafolatlaydi.

Ish bilan bandlik turlari bo‘yicha turli ta’riflar ishlab chiqilgan. Unumli bandlik turlari ta’rif berishda, asosan ularning xususiyatlaridan kelib chiqish lozim. Unumli bandlik mualliflik ta’rifimiz shunday: unumli bandlikka mualliflik tarifimiz quyidagicha, unumli bandlik – bu qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘zining ishlab chiqarish va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalangan holda o‘zi va qaramog‘idagilar uchun milliy kambag‘allik chegarasidan yuqori darajadagi iste’mol uchun kafolatli mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir.

Inson kapitali nazariyasiga ko‘ra, ta’lim va sog‘liqqa investitsiyalar yo‘qligi yoki kamligi mehnat bozorida raqobatbardoshlikni pasaytiradi. Demografik va avlodlararo yondashuvda esa bu jarayon ota-onalarning resurs yetishmasligi bolalar imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Institutsional nazariya esa zaif moliyaviy tizimlar, huquqiy kafolatlar va ijtimoiy himoyaning yo‘qligi kambag‘allik qopqonini mustahkamlaydi.

Bu muammoning yechimi faqat ish o‘rinlari yaratish bilan cheklanmaydi. Kambag‘allik qopqonini buzish uchun davlat va jamiyat kompleks choralar ko‘rishi kerak. Xususan, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimiga keng investitsiyalar kiritishi, sohalarda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va samarali institutlarni shakllantirish asosida unumli bandlik

darajasini oshirish muhimdir. Faqat shundagina odamlar past daromad sikldan chiqib, barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda bir qator onlayn ma’lumotlar bazalaridagi ilmiy manbalarda o‘z aksini topgan unumli bandlik va undagi gender masalalariga taaluqli empirik va konseptual tadqiqotlar o‘rganildi va ulardagi ilmiy yondoshuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, monografik tahlil va guruhlash usullari qo‘llanildi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida panel ma’lumotlari tahlili uslubini qo‘llagan holda Fixed Effects modeli hamda Random Effects modeli tuzildi va ular orasidagi maqbul model Hausman testi yordamida aniqlandi[8].

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasiga turli moliyaviy, ijtimoiy hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ta’sirini aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini baholash ilmiy tadqiqotning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois ekonometrik modellar qurish belgilandi. Albatta, ushbu jarayonda turli omillarning ta’sirini chuqur tahlil qilish imkonini beradigan panel ma’lumotlari tahlili qo‘llanildi.

Tahlil uchun 01.01.2010–31.12.2022 orasidagi rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plandi va ular O‘zbekistonning 14 ta hududi kesimi to‘liq shakllantirildi. Bu ma’lumotlar asosida mamlakatning turli hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda, kambag‘allikka ta’sir etuvchi omillarni aniqroq ifodalash imkonini berdi.

Shundan so‘ng, iqtisodiy jarayonlarni har tomonlama qamrab olish uchun bir nechta modellar qurildi. Jumladan, Fixed Effects Model (FEM), Random Effects Model (REM) va Pooled Model qo‘llanilib, ularning natijalari solishtirib chiqildi. Har bir model o‘zining muayyan ustunliklari va cheklovlariga yega bo‘lib, ular orqali kambag‘allik darajasiga ta’sir yetuvchi omillarni turli ko‘rinishlarda baholash imkoniyati yaratildi.

Qurilgan modellar ichida yeng maqbulini aniqlash maqsadida Hausman testidan foydalanildi. Mazkur test Fixed Effects Model (FEM) va Random Effects Model (REM) modellari o‘rtasidagi farqni statistik jihatdan baholash imkonini berib, qaysi modelni tanlash maqbulligini ko‘rsatib berdi.

Ekonometrik tahlilda eng asosiy bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida kam ta’minlangan aholi ulushi (kambag‘allik darajasi) qo‘llanildi. Ushbu ko‘rsatkich aholining umumiy sonida daromadlari asosiy ehtiyojlarni qondirishga yetmaydigan qatlam ulushini aks yettiradi. Kambag‘allik darajasi foiz hisobida o‘lchanadi.

Ma’lumotlar manbai sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan tayyorlanadigan rasmiy hisobotlardan foydalanildi. Ushbu ko‘rsatkich Jahon banki tomonidan tavsiya yetilgan metodologiya

[8] Gujarati, Damodar N. Basic econometrics. Prentice Hall, 2022, p.624.

asosida aniqlangan. Xususan, 2000-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan davrda kambag‘allik darajasi kunlik iste’molning minimal me’yori — 2100 kilokaloriyadan kelib chiqib hisoblab chiqilgan. Bu xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan yondashuv bo‘lib, aholi turmush darajasining asosiy belgisi sifatida oziq-ovqat iste’moliga e’tibor qaratilgan.

Biroq, 2021-yildan boshlab O‘zbekistonda kambag‘allikni baholash metodologiyasida muhim o‘zgarish amalga oshirildi. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-son qaroriga muvofiq, kambag‘allik darajasi yendi aholi daromadlarining “minimal iste’mol xarajatlari (MIX)”dan kelib chiqib hisoblanmoqda. Ya’ni aholi turmush darajasini baholashda faqatgina oziq-ovqat emas, balki turli nota’min xarajat turlari ham inobatga olina boshlandi.

Shu sababli, ushbu dissertatsiyada qo‘llangan tahlilning boshlanish nuqtasi sifatida 2000-yil, yakunlovchi yili sifatida esa 2020-yil olindi. 2021–2022-yillardagi ma’lumotlar esa metodologiyadagi o‘zgarishlar tufayli turg‘un vaqt qatorini buzishi va ishonchsiz natijalarga olib kelishi mumkinligi bois modelda qo‘llanmadi.

Bandlik indeksi – tadqiqotchi tomonidan O‘zbekiston hududlari bo‘yicha tuzilgan indeks. Bandlik indeksini hududlar uchun hisoblashda Shibosho metodologiyasidan foydalanildi. Indeksni tuzishda mahalliy budjetlarning ikkita ko‘rsatkichlaridan foydalanildi: 1) ish bilan band aholi ulushi; 2) iqtisodiy faol aholi ulushi.

Hududlarda aholi sonining o‘sish sur’ati — tadqiqot modelida nazorat o‘zgaruvchisi sifatida kiritilgan ko‘rsatkich hisoblanadi. U hududlardagi demografik jarayonlarni, ya’ni aholi sonining tabiiy o‘sishi va migratsiya jarayonlari bilan bog‘liq o‘zgarishlarni aks yettiradi. Mazkur o‘zgaruvchi demografik vaziyatning barqarorligi yoki keskin o‘zgarishi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini nazorat qilish imkonini beradi. Shu orqali demografik bosimning aholi turmush darajasi va kambag‘allik ko‘rsatkichlariga ta’sirini ilmiy jihatdan baholash imkoniyati yaratilgan.

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM, jon boshiga) — modelda iqtisodiy o‘sishning aholining turmush darajasi va kambag‘allik ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish uchun kiritilgan asosiy iqtisodiy o‘zgaruvchi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich har bir hududda ishlab chiqarish hajmi va aholi soni nisbatini ifoda yetib, iqtisodiy samaradorlikning aholi turmush sharoitlariga qay darajada ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi. Tahlil jarayonida ko‘rsatkich logarifmlangan shaklda qo‘llandi. Bu usul o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi nisbiy va proporsional aloqalarni yaxshiroq ifodalash imkonini beradi hamda ma’lumotlarning statistik barqarorligini ta’minlaydi.

Bandlik darajasi — iqtisodiy faol aholi ichida ish bilan ta’minlanganlarning ulushini ko‘rsatadi va foiz hisobida o‘lchanadi. Bu ko‘rsatkich aholining mehnat bozoridagi ishtirok darajasini ifodalash bilan birga, turmush darajasi va kambag‘allik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi bois modelda muhim o‘zgaruvchi sifatida kiritildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) — bu muayyan hududda (viloyat, shahar, respublika darajasida) ma’lum davr ichida (odatda 1 yil) ishlab chiqarilgan hamma yakuniy tovar va xizmatlar qiymatining yig‘indisi.

Nafaqa oluvchi insonlar soni — hududlarda davlat tomonidan ijtimoiy ta’minot olayotgan aholi qatlamining miqyosi hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich logarifmlangan holda modelga kiritilgan, bu esa ma’lumotlarning taqsimotini normallashtirish hamda tahlilda ishonchli natijalarga yerishish imkonini beradi.

Inflyatsiya darajasi o‘sganda aholining real ish haqi va real nafaqalari pasayadi, chunki nominal maosh oshish sur’ati ko‘pincha inflyatsiyadan orqada qoladi. Bu eng kam ta’minotga ega qatlamni kuchliroq zararlaydi ya’ni, kambag‘allik darajasi oshishiga olib keladi.

2-jadval

Korrelyatsiya matritsasi[9]

Ko‘rsatkichlar	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)	(8)	(9)
(1) Kambag‘allik darajasi	1.00								
(2) Ish bilan bandlik indeksi	-0.50 (0.00)	1.00							
(3) Aholi o‘sish sur’ati	+0.20 (0.03)	-0.18 (0.06)	1.00						
(4) Ishsizlik darajasi	+0.55 (0.00)	-0.45 (0.00)	+0.22 (0.04)	1.00					
(5) Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	-0.65 (0.00)	+0.42 (0.00)	-0.20 (0.05)	-0.38 (0.00)	1.00				
(6) Inflyatsiya darajasi	+0.40 (0.00)	-0.25 (0.02)	+0.12 (0.12)	+0.28 (0.01)	-0.30 (0.00)	1.00			
(7) Nafaqalarning minimal miqdori	-0.45 (0.00)	+0.30 (0.01)	-0.10 (0.15)	-0.22 (0.04)	+0.88 (0.00)	-0.25 (0.02)	1.00		
(8) Nafaqa oluvchilar soni	-0.28 (0.01)	-0.12 (0.08)	+0.35 (0.00)	+0.18 (0.06)	+0.22 (0.04)	+0.20 (0.04)	+0.18 (0.05)	1.00	
(9) Eng kam ish haqi	-0.55 (0.00)	+0.38 (0.00)	-0.15 (0.08)	-0.30 (0.00)	+0.90 (0.00)	-0.28 (0.01)	+0.92 (0.00)	+0.20 (0.03)	1.00

Minimal nafaqa miqdori — hududlarda belgilangan yeng past nafaqa to‘lovini anglatadi. Bu ko‘rsatkich ham logarifmlangan holda qo‘llandi va ijtimoiy himoya tizimining kambag‘allik darajasiga ta’sirini tahlil qilish imkonini berdi.

Panel ma’lumotlari asosida model tuzishdan oldin o‘zgaruvchilar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash maqsadida korrelyatsiya tahlili amalga oshirildi. Bu tahlil o‘zgaruvchilarning qay darajada statistik jihatdan bog‘liq yoki mustaqil ekanini ko‘rsatib berdi.

Tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan bo‘lib, undan ko‘rinishicha, ayrim o‘zgaruvchilar o‘rtasida yuqori darajadagi korrelyatsiya bog‘liqlik mavjud.

Ushbu korrelyatsiya matritsasi kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni ko‘rsatadi. Kambag‘allik ishsizlik darajasi bilan kuchli ijobiy bog‘liq (+0.55) bo‘lib, ishsizlik o‘sishi aholi o‘rtasida kambag‘al qatlam

[9] Muallif hisob-kitobi

kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi ham kambag‘allikni kuchaytiradi (+0.40), chunki narxlar o‘sishi aholi daromadlarining real qiymatini pasaytiradi.

YaHMning kambag‘allik bilan salbiy korrelyatsiyasi (-0.65) iqtisodiy o‘sish kambag‘allikni kamaytirishda muhim omil ekanini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, ish bilan bandlik indeksi (-0.50), eng kam ish haqi (-0.55) va minimal nafaqalar (-0.45) bilan kambag‘allik o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu ijtimoiy himoya va ish bilan bandlik asosida aholini kambag‘allikdan chiqarishda samarali vosita bo‘lishini anglatadi.

Shuningdek, demografik jihatdan aholi o‘sish sur’ati bilan kambag‘allik o‘rtasida kuchsiz ijobiy bog‘liqlik (+0.20) kuzatiladi, bu esa aholi soni ortishi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga bog‘liq holda kambag‘allik darajasini oshirishi mumkinligini anglatadi. Shu bilan birga, nafaqa oluvchilar soni ortishi (-0.28) kambag‘allikni qisqartirishi mumkinligini ham anglatadi.

Ushbu Random Effects Model natijalariga ko‘ra, ish bilan bandlik indeksi kambag‘allik darajasiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatadi (koef. –5.20; $p<0.01$). Bu shuni anglatadiki, aholi bandligi o‘sgan sari kambag‘allik darajasi pasayadi. Shu bilan birga, YaHMning aholi jon boshiga ulushi ham kuchli salbiy ta’sirga ega (koef. –8.75; $p<0.01$), ya’ni iqtisodiy o‘sish kambag‘allikni kamaytirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Ishsizlik darajasi esa aksincha, kambag‘allikni oshiradi (koef. +3.85; $p<0.01$). Bu ish o‘rinlari yetishmasligi aholi daromadlari barqarorligini buzishini ko‘rsatadi. Shuningdek, aholi o‘sish sur’ati ham kambag‘allik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (koef. +2.10; $p<0.05$), demak, aholi sonining tez ko‘payishi iqtisodiy imkoniyatlar bilan ta’minlanmasa, kambag‘allik xavfini oshiradi.

3-jadval

Ish bilan bandlik indeksining kambag‘allik darajasiga ta’siri (Random Effects Model)[10]

Kambag‘allik darajasi	Coef.	St. Verr.	t-value	p-value	[95% Conf. Interval]	Sig
Ish bilan bandlik indeksi	-5.20	1.70	-3.05	0.003	-8.55 ; -1.85	***
Aholi o‘sish sur’ati	+2.10	0.95	2.21	0.028	+0.25 ; +3.95	**
Ishsizlik darajasi	+3.85	1.25	3.08	0.002	+1.35 ; +6.35	***
Yalpi hududiy mahsulot (YaHM, jon boshiga, log)	-8.75	1.40	-6.25	0.000	-11.55 ; -5.95	***
Constant	151.80	22.10	6.86	0.000	108.30 ; 195.30	***
Mean dependent var		*12.8*		*SD dependent var*	*6.0*	
Overall r-squared		*0.49*		*Number of obs*	*98*	
Chi-square		*46.2*		*Prob > chi2*	*0.000*	
R-squared within		*0.31*		*R-squared between*	*0.52*	
**** p<.01, ** p<.05, * p<.1*						

[10] Muallif hisob-kitobi

Modelning umumiy ahamiyatliligi yuqori (Chi2 = 46.2, p<0.01; Overall R^2 = 0.49), ya’ni tanlangan omillar kambag‘allik darajasini izohlashda muhim. Zero, kambag‘allikni kamaytirish uchun mehnat bozorini kengaytirish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va ishsizlikni nazorat qilish asosiy ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida panel ma’lumotlari tahlili amalga oshirildi. Bunda dastlab asosiy (bazaviy) model qurildi, keyinchalik esa tahlilga qo‘shimcha o‘zgaruvchilar alohida-alohida kiritib borildi.

4-jadvalda keltirilgan bazaviy model Random Effects Model (Tasodifiy ta’sirlar) modeli orqali baholandi. Ushbu modelning natijalari yuqori darajada ishonchli bo‘lib, u bir foizlik statistik ahamiyatka ega ekani aniqlandi.

4-jadval

Kambag‘allik darajasiga omillar ta’siri dinamikasini modellarda baholash[11]

O‘zgaruvchi	1-model (REM)	2-model (REM)	3-model (REM)	4-model (REM)	5-model (FEM)	6-model (REM)	7-model (REM)	8-model (REM)
Ish bilan bandlik indeksi	-2.40**	-3.85***	-4.90***	-6.10***	-5.95***	-6.30***	-7.20***	-8.10***
Aholi o‘sish sur’ati		+1.20*	+2.85**	+3.40***	+3.10**	+3.10**	+3.25**	+3.05**
Ishsizlik darajasi			+4.10***	+6.25***	+6.05***	+6.40***	+6.85***	+7.10***
YaHM (log)				-9.80***	-10.05***	-11.10***	-12.35***	-13.00***
Inflyatsiya darajasi					+0.75**	+1.25***	+1.10***	+1.40***
Minimal nafaqa miqdori						-5.60***	-6.95***	-7.20***
Nafaqa oluvchilar soni							-12.50***	-13.40***
Eng kam ish haqi								-15.80***
Cons	135.2***	140.5***	148.9***	152.7***	149.8***	160.5***	166.2***	170.8***
Overall R-squared	0.19	0.28	0.36	0.44	0.53 (FEM)	0.52	0.57	0.63
Chi-square	12.4***	20.8***	29.5***	39.2***	46.5*	49.8***	56.1***	62.7***

4-jadval ma’lumotlari kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi omillarning dinamikasini turli modellarda (REM va FEM) baholab ko‘rsatadi. Birinchi navbatda, ish bilan bandlik indeksi barcha modellarda kambag‘allikni sezilarli darajada pasaytiradi (koef. –2.40 dan –8.10 gacha, p<0.01). Bu mehnat bozorida ish o‘rinlari va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish kambag‘allikni kamaytirishning eng samarali vositalaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Aholi o‘sish sur’ati esa aksincha, kambag‘allik darajasini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda (koef. +1.20 dan +3.40 gacha, p<0.05). Bu

[11] Muallif hisob-kitobi

demografik bosim iqtisodiy resurslar va ish o‘rinlari yetishmasligi bilan uyg‘unlashganda kambag‘allik xavfini kuchaytirayotganini anglatadi. Shu bilan birga, ishsizlik darajasi barcha modellarda ijobiy va yuqori ahamiyatga ega ta’sir ko‘rsatib, kambag‘allikning ortishida asosiy xavf omillaridan biri bo‘lib qolmoqda (koef. +4.10 dan +7.10 gacha, p<0.01).

Iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichi sifatida YaHMning aholi jon boshiga logarifmi salmoqli salbiy ta’sirga ega (–9.80 dan –13.00 gacha, p<0.01). Bu mamlakat iqtisodiyoti o‘sishi aholi turmush darajasini yaxshilash orqali kambag‘allikni kamaytirayotganini ifodalaydi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi teskari yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi (+0.75 dan +1.40 gacha, p<0.01), ya’ni narx-navo oshishi aholining real daromadlarini pasaytirayotganini va kambag‘allikni kuchaytirayotganini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy himoyaga oid ko‘rsatkichlar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, minimal nafaqa miqdori (-5.60 dan –7.20 gacha) va nafaqa oluvchilar soni (-12.50 dan –13.40 gacha) kambag‘allik darajasini pasaytirishda statistik jihatdan ahamiyatli salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng kam ish haqi ham kuchli salbiy ta’sir bilan ajralib turib (–15.80), ish haqi siyosatining aholini kambag‘allikdan chiqarishda hal qiluvchi ahamiyatga egaligini ko‘rsatmoqda.

5-jadval

Hausman testi natijalari[12]

Model	1-model	2-model	3-model	4-model	5-model	6-model	7-model
Prob>chi2	0.62	0.11	0.54	0.71	**0.03**	0.99	0.79
Xulosa	RE	RE	RE	RE	FE	RE	RE

5-jadvalda Hausman testining natijalari keltirilgan bo‘lib, ushbu test modelni baholashda qaysi yondashuv – Fixed Effects Model (REM) yoki Random Effects Model (REM)–ni tanlash maqsadga muvofiqligini aniqlashda qo‘llaniladi.

Testning asosiy mohiyati shundan iboratki, fgar htimollik darajasi (prob>chi2) 0,05 dan kichik bo‘lsa, bu holatda Fixed Effects Model tanlanadi. Chunki bunday holda individual yeffektlar tushuntiruvchi o‘zgaruvchilar bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoli yuqori, natijada tasodifiy ta’sirlar modeli ishonchsiz hisoblanadi. Agar ehtimollik darajasi 0,05 dan yuqori bo‘lsa, unda Random Effects Model afzal deb topiladi. Chunki bu holatda individual yeffektlar va tushuntiruvchi o‘zgaruvchilar o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik yo’qligi qabul qilinadi.

Среди зарубежных исследователей следует выделить работы Джона Халла, который считается одним из ведущих специалистов в области финансовых рисков. В его фундаментальных трудах акцент сделан на важности комплексного подхода к управлению рыночными, кредитными и операционными рисками. Халл подчеркивает, что применение деривативов, стресс-тестирования и современных моделей

оценки риска играет ключевую роль в обеспечении устойчивости банковского сектора в условиях высокой волатильности финансовых рынков [1]. Базельский комитет по банковскому надзору в своих докладах указывает на необходимость подготовки кадров, способных внедрять международные стандарты риск-менеджмента, а также адаптировать их к национальным условиям [2]. Пол Ромер, представитель новой теории экономического роста, отмечает, что инновационная активность и внедрение цифровых технологий возможны только при наличии развитого человеческого капитала, который способен генерировать и использовать знания для минимизации рисков [3].

Современные зарубежные исследования, такие как работы Дэвида Тарулло и Эндрю Крэйга, демонстрируют, что цифровизация банковского сектора усиливает потребность в специалистах нового профиля, владеющих навыками анализа больших данных, кибербезопасности и управленческого прогнозирования [4]. Это свидетельствует о том, что человеческий капитал становится основой устойчивого риск-менеджмента в финансовых институтах.

А.Б. Живко и Н.А. Проданова [5] в своих исследованиях анализируют современные банковские риски, в том числе связанные с цифровой трансформацией, и рассматривают участников процесса управления рисками. Они отмечают, что с становлением цифровой экономики у банков появляются большие возможности для развития, но одновременно с этим они начинают сталкиваться с новыми рисками в цифровой сфере, которые требуют комплексных усилий всех участников банковской системы.

Г.Н.Джаксыбекова и А.М.Нургалиева [6] также провели обширные исследования в рамках управления рисками в банках, и в их работе раскрыта сущность риск-менеджмента в банках, проведен анализ качества кредитного портфеля, неработающих кредитов банков второго уровня Республики Казахстан в разрезе отраслей экономики, обоснованы предложения и рекомендации для снижения рисков и функционирования эффективной системы риск-менеджмента.

В исследовании М. Мухамедова [7] также анализируются современные подходы к совершенствованию системы управления рисками в коммерческих банках Узбекистана и даются предложения по снижению этих рисков на узбекском рынке. В этой связи предлагаются комплексные решения, включающие методы снижения рисков за счёт внедрения искусственного интеллекта, технологий машинного обучения, международных стандартов, технологических инноваций, а также развития человеческого капитала для повышения финансовой устойчивости банков.

Методология

Методологической основой исследования послужил системный подход к изучению современных тенденций и вызовов в банковском риск-менеджменте. Применялись методы сравнительного анализа, структурно-логического обобщения и контент-анализа научной литературы. В эмпирической части использованы данные по динамике проблемных кредитов (NPL) в банковском секторе Узбекистана за 2016–2024 гг., а также результаты международных исследований по внедрению стандартов Basel III и ESG-факторов. Такой комплексный подход позволил выявить взаимосвязь между глобальными вызовами, внутренними особенностями банковской системы и ролью человеческого капитала в обеспечении устойчивости финансовых институтов.

Анализ и результаты

Современный банковский риск-менеджмент сталкивается с необходимостью адаптации к новым вызовам, связанным с цифровизацией, киберугрозами и глобальными макроэкономическими изменениями. На основе изученной литературы можно выделить несколько ключевых тенденций. Во-первых, усиливается значение человеческого капитала, поскольку успешное управление рисками зависит от квалификации специалистов и их способности использовать инновационные методы анализа. Во-вторых, международные стандарты (Базель III и последующие инициативы) требуют от банков не только укрепления капитальной базы, но и внедрения системных инструментов оценки рисков, включая стресс-тестирование и мониторинг ликвидности. В-третьих, интеграция ESG-факторов в риск-менеджмент указывает на то, что банки начинают рассматривать социальные и экологические параметры как часть своей долгосрочной устойчивости.



Рис. 1. Динамики доли проблемных (non-performing) кредитов (NPL) в банковском секторе Узбекистана за 2016–2024 гг.

Из графических данных видно, что поведённый эмпирический анализ динамики показателя доли проблемных кредитов (NPL) в банках Узбекистана за 2016–2024 гг. показывает следующие ключевые изменения. В 2016–2019 годах уровень NPL оставался сравнительно низким (менее 1.5%), что было характерно для периода постепенной стабилизации кредитного портфеля. Наблюдаемый рост NPL в 2020 году отражает усиливающиеся макроэкономические и секторные риски в условиях изменения внешней конъюнктуры. В 2021 году зафиксирован резкий скачок доли проблемных займов — согласно источникам, пик составил порядка 5% (максимум в 2021 г. по некоторым данным ~5.1%), что соответствует оценкам МВФ и Всемирного банка о росте проблемной задолженности после пандемии и расширения потребительского кредитования. В 2022–2023 гг. наблюдалась корректировка — снижение доли NPL, однако показатель остаётся выше довоенных значений и в 2024 году снова продемонстрировал умеренный рост (около 4.0–4.1% по квартальным данным), что указывает на сохраняющиеся уязвимости. Полученные данные подтверждают необходимость усиления механизмов кредитного контроля, совершенствования процедур скоринга и реструктуризации, а также регулярного стресс-тестирования кредитного портфеля.

Рис. 2. Современные факторы и инструменты банковского риск-менеджмента

Представленный график наглядно демонстрирует динамику проблемных кредитов в банковском секторе Узбекистана, что отражает степень финансовой устойчивости и эффективность применяемых методов риск-менеджмента. Однако для более глубокого понимания современных вызовов важно не только рассматривать количественные показатели, но и учитывать комплекс факторов, влияющих на систему управления рисками. В этой связи целесообразно обратиться к концептуальной схеме, позволяющей выявить взаимосвязь между внешними и внутренними рисками, инструментами их минимизации и конечными результатами для банковской системы.

Представленная схема наглядно демонстрирует, что современный риск-менеджмент в банковской системе строится на сочетании внутренних и внешних факторов, а также требует комплексного применения различных инструментов – от цифровых технологий до кадрового потенциала. Для более глубокого понимания текущих тенденций рассмотрим сравнительный анализ ключевых вызовов и используемых банками инструментов их минимизации.

Таблица 2

Основные вызовы и инструменты банковского риск-менеджмента

Вызовы	**Характеристика**	**Инструменты управления**
Рост проблемных кредитов (NPL)	Увеличение доли невозвратных кредитов в период экономической нестабильности	Совершенствование системы скоринга, стресс-тестирование
Киберугрозы и цифровые риски	Расширение онлайн-услуг сопровождается ростом угроз кибербезопасности	Внедрение систем киберзащиты, мониторинг транзакций в реальном времени
Волатильность финансовых рынков	Колебания валютных курсов и процентных ставок	Хеджирование, применение деривативов
Требования международных стандартов	Давление со стороны Базельских соглашений	Адаптация к Basel III/IV, подготовка кадров
Дефицит кадрового потенциала	Недостаток специалистов с навыками big data и риск-анализа	Инвестиции в обучение, развитие человеческого капитала

Таким образом, проведенный анализ показал, что современный банковский риск-менеджмент сталкивается с комплексом новых вызовов, связанных как с ростом макроэкономической неопределенности, так и с цифровизацией финансового сектора. В то же время использование современных инструментов оценки и управления рисками, а также развитие кадрового потенциала позволяют

минимизировать негативное воздействие этих факторов и обеспечить устойчивость банковской системы.

Заключение

Современные тенденции и вызовы в банковском риск-менеджменте демонстрируют, что эффективность функционирования финансовых институтов в условиях глобальной нестабильности зависит не только от использования передовых инструментов управления рисками, но и от качества человеческого капитала, уровня подготовки специалистов и степени развития организационной культуры. Цифровизация, глобализация и ужесточение регуляторных требований усиливают значимость комплексного подхода, где технические инновации должны сочетаться с профессиональной компетентностью сотрудников и ориентацией на долгосрочную устойчивость.

Проведенный анализ позволяет сделать вывод, что ключевым условием повышения устойчивости банковского сектора является интеграция международных стандартов риск-менеджмента в национальную практику с учетом специфики внутренней финансовой системы. Однако, успешная адаптация этих стандартов невозможна без квалифицированных кадров, способных использовать современные методы анализа, внедрять цифровые технологии и эффективно взаимодействовать в условиях высокой волатильности рынков.

На основе вышеизложенного можно предложить следующие направления совершенствования:

1. Развитие кадрового потенциала – внедрение программ обучения и переподготовки специалистов в области риск-менеджмента, ориентированных на цифровые навыки, управление киберугрозами и аналитические компетенции.

2. Интеграция международных практик – адаптация стандартов Базельского комитета и применение лучших зарубежных практик с учетом национальных особенностей и уровня развития финансовой системы.

3. Укрепление организационной культуры – формирование корпоративной среды, в которой ценятся прозрачность, ответственность и принципы устойчивого развития.

4. Стимулирование инновационной активности – поддержка внедрения цифровых решений, позволяющих оперативно идентифицировать и минимизировать риски, а также совершенствование механизмов мониторинга и прогнозирования.

5. Повышение качества трудовых условий – обеспечение достойной занятости, справедливой системы мотивации и социальной защиты работников банковского сектора, что напрямую связано с укреплением человеческого капитала и снижением институциональных рисков.

Таким образом, современные вызовы в банковском риск-менеджменте требуют не только технических решений, но и

стратегического переосмысления роли человеческих ресурсов и условий труда. Сочетание инновационных технологий и инвестиций в человеческий капитал позволит создать более устойчивую, конкурентоспособную и социально ориентированную банковскую систему.

Список использованной литературы:

1. Hull, J. C. (2018). *Risk management and financial institutions* (5th ed.). Hoboken, NJ: John Wiley & Sons.

2. Basel Committee on Banking Supervision. (2011). *Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems*. Bank for International Settlements. Retrieved from https://www.bis.org

3. Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. *Journal of Political Economy, 98*(5, Part 2), S71–S102. https://doi.org/10.1086/261725

4. Tarullo, D. K., & Craig, A. (2019). *Financial regulation: Still unsettled a decade after the crisis*. Hutchins Center on Fiscal and Monetary Policy, Brookings Institution.

5. Александр Борисович Живко, & Наталья Алексеевна Проданова (2024). Анализ современных банковских рисков. Аудиторские ведомости, (3), 65-71. doi: 10.24412/1727-8058-2024-3-65-71

6. Джаксыбекова, Г. Н., & Нургалиева, А. М. (2015). Банковский риск-менеджмент. Universum: экономика и юриспруденция, (3 (14)), 2.

7. M.Muxamedov. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 3(3):145-151, Mart, 2025. DOI: 10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss3-pp145-151

MEHNAT IQTISODIYOTI
VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117
https://laboreconomics.uz/

KICHIK VA O’RTA BIZNES SUBYEKTLARI EKSPORT FAOLIYATINI QO’LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO’NALISHLARI

Abduqahorov Azizbek Abdullo o’g’li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a201

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik va o’rta biznes subyektlarining eksport faoliyatini rag’batlantirish va qo’llab-quvvatlash uchun soddalashgan ma’muriy va huquqiy tartib-taomillarni joriy qilish, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish uchun infratuzilmaviy muhitini yanada takomillashtirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so’zlar: kichik va o’rta biznes subyektlari, eksport faolyati, tashqi iqtisodiy faoliyat.

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДДЕРЖКИ ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА

Абдукахоров Азизбек Абдулло угли
ТГЭУ, исследователь

Аннотация. В статье рассматриваются научные, методические и практические аспекты внедрения упрощенных административно-правовых процедур для стимулирования и поддержки экспортной деятельности субъектов малого и среднего предпринимательства, а также дальнейшего совершенствования инфраструктурной среды для расширения их участия во внешнеэкономической деятельности.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, экспортная деятельность, внешнеэкономическая деятельность.

DIRECTIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF SUPPORTING THE EXPORT ACTIVITIES OF SMALL AND MEDIUM-SIZED BUSINESSES

Abduqahorov Azizbek Abdullo ugli
Researcher of TSUE

Abstract. This paper studies the scientific, methodological and practical aspects of introducing simplified administrative and legal procedures to stimulate and support the export activities of small and medium-sized businesses, and further improving the infrastructural environment to expand their participation in foreign economic activity.

Keywords: small and medium business entities, export activity, foreign economic activity.

Kirish

Hozirgi kunda O’zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining eng muhim yo’nalishlaridan biri bu eksportni rivojlantirish, eksport tarkibidagi qayta

ishlash darajasi yuqori bo’lgan mahsulotlar ulushini xamda mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Iqtisodiyotning eng mobil tarkibiy qismi hisoblangan kichik va o’rta biznes subyektlari (KO’B subyektlari) hisobiga, aynan shiddatli raqobat sharoitida mamlakat eksport salohiyatini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun muvaffaqiyatli va raqobatbardosh korxonalar (ayniqsa innovasion va yuqori texnologiyalarga ega bo’lgan mahsulotlar yoki xizmatlarni ishlab chikaruvchilar)ni rag’batlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasiga jalb qilish, ularning eksport salohiyatini ro’yobga chiqarishga ko’maklashish, xodimlarning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi malaka va bilimlarini oshirish zarur.

Har qanday mamlakatning tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishda KO’B subyektlarining eksport salohiyatini yanada yuksaltirish, ushbu sektorning tashqi savdo aylanmasidagi ulushini keskin oshirish muhim rol o’ynaydi. Bu jaryonda KO’B subyektlari tomonidan zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko’paytirish va uni eksportga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko’rsatish, mamlakatning eksport qiluvchi tadbirkorlarini tashqi bozor kon’yunkturasi o’zgarishlari xavf-xatarlaridan ishonchli himoya qilishni ta’minlash masalalariga e’tiborni kuchaytirish talab etiladi.

Bugungi kunga qadar KO’B subyektlarining o’ziga xos xususiyatlari va tasniflari hamda ularning eksport faoliyatini qo’llab-quvvatlashning usullari va mexanizmlarini takomillashtirish shuningdek, ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va innovasion taraqqiyotiga hamda tashqi iqtisodiy faoliyatini kengayishiga qo’shadigan xissasini baholash masalalariga doir ko’plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda KO’B subyektlarining eksport faoliyatini infratuzilmaviy qo’llab-quvvatlash tizimini shaklantirish hamda ularni rag’batlantirishda davlat va nodavlat tashkilotlari o’zaro hamkorligi mexanizmlrini takomillashtirish kabi ilmiy muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Shu o’rinda, tadqiqotning ushbu mavzusi doirsida mahalliy va xorijiy yetuk olimlarning ilmiy qarashlari izohiga ham to’xtalib o’tish joiz deb hisoblaymiz.

AQShlik mashxur olim M. Porter o’zining “Klaster nazariyasi”ga asoslangan holda KO’B subyektlarini birlashtirish (klasterlash) orqali resurslardan samarali foydalanish va tashqi bozorlarga chiqish osonlashishini hamda davlat va xususiy sektor hamkorligi eksportni jadal rag’batlantirishi mumkinligi bo’yicha o’zining ilmiy xulosalarini taqdim qilgan. M. Porterning ta’rificha, klaster — bu o’zaro bog’liq va bir hududda joylashgan kompaniyalar, ta’minotchilar, xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlar, ta’lim va ilmiy muassasalar hamda davlat organlarining tarmoqlararo uyg’un faoliyat yuritish tizimidir.

Iqtisodiyot sohasi bo’yicha Nobel mukofoti sohibi P. Krugmanning ilmiy qarashlari KO’B subyektlarining eksport faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni baholashga qaratilgan. Uning xulosa qilishicha, davlatning infratuzilmaga kiritadigan investisiyasi hamda moliyaviy qo’llab-quvvatlash mexanizmi eng muhim omillar sirasiga kirishini hamda ular hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslagan.

Yana bir iqtisodchi olim B.Titov o’z tadqiqotida kichik va o’rta biznesning mamlakatlar YaIMdagi ulushi va ularining mamlakat eksport salohiyatini oshirishdagi roli batafsil ko’rsatib bergan.[19] Uning fikricha, KO’B subyektlari eksport salohiyatini oshirish uchun davlat tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarurligi, eksportga yo’naltirilgan subyektlar uchun soliq imtiyozlari va moliyaviy qo’llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud bo’lishi hamda eksport bozorlariga chiqishda axborot-markazlashtirilgan yordam (marketing, tarjimonlik, huquqiy maslahat) muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan.

O.Zilbershteyn va uning jamosining ilmiy tadqiqotida Rossiya Federasiyasida kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi va eksportidagi o’rni, tarmoqlar bo’yicha tarkibi, daromad o’sishiga ta’siri tahlil qilingan.[20] Unga ko’ra, Rossiya Federasiyasida kichik va o’rta biznes subyektlari mamlakat iqtisodiyotida jiddiy ahamiyatga ega bo’lsa-da, u mamlakat yalpi ichki mahsulotiga (YaIM) taxminan 20–21%ni tashkil etishi, eksportdagi ulushi esa atigi 5% ge teng ekanligini keltirib, buning asosiy sabablari deb malakalar yetishmovchiligi, qo’shimcha xizmatlar (marketing, texnik servis)ning yetarli emasligi hamda sertifikatlashtirish talablarining yuqoriligi sifatida baholaydi.

Ushbu sohada salmoqli tadqiqotlar olib borgan yetuk olimlardan biri U.V.Gafurovning ilmiy-nazariy qarashlari KO’B subyektlarining eksport salohiyatini multifaktorli, tizimli va strategik yondashuv orqali baholashga asoslangan. Uning ilmiy asoslari amaliyotda qo’llaniladigan real taklif va yechimlarni qamrab oladi va joriy iqtisodiy siyosatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u KO’B subyektlari eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi omillar guruhini hamda ularning eksport faoliyatini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning samarali yondoshuvlari bo’yicha o’z xulosalarini ifoda etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda bir qator onlayn ma’lumotlar bazalaridagi ilmiy manbalarda o’z aksini topgan kichik va o’rta biznes subyektlarining eksport faoliyatini qo’llab-quvvatlashning usullari va mexanizmlarini takomillashtirish shuningdek, ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va innovasion taraqqiyotiga hamda tashqi iqtisodiy faoliyatini kengayishiga

[19] Титов. Б. Сектор малого и среднего предпринимательства: Россия и Мир. Институт экономики роста им. Столыпина П.А. июль, 2018. http://stolypin.institute/novosti/sektor-malogo-i-srednego-predprinimatelstva - rossiya-i-mir.

[20] Зилберштейн О.Б., Шкляр Т.Л., Неветруев К.В. Отраслевая структура среднего бизнеса России // Интернет – журнал «Науковедение». Том 9, №2 (2017);

qo’shadigan xissasini baholash masalalariga oid tadqiqotlar o’rganildi va ulardagi ilmiy yondashuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, monografik tahlil va guruhlash usullari qo’llanildi.

Tahlil va natijalar

O’zbekiston iqtisodiyotida kichik va o’rta biznes (KO’B) muhim ahamiyatga ega bo’lib, iqtisodiy o’sish, ish o’rinlari yaratish va innovasiyalarni joriy etishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, KO’B subyektlarining tashqi bozorlarga chiqishi, milliy iqtisodiyotni diversifikasiya qilish va valyuta tushumlarini oshirish nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga egadir. Shu bois, O’zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan KO’Bning eksport faoliyatini rag’batlantirish va qo’llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Davlat tomonidan yaratilgan institusional, moliyaviy va huquqiy sharoitlar bu sohada ijobiy dinamikani ta’minlashga xizmat qilmoqda. Biroq, yanada samarali natijalarga erishish uchun kompleks yondashuv, xususiy sektor bilan samarali muloqot va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish zarur.



1-rasm. O’zbekistonda kichik va o’rta biznes subyektlari eksport faoliyatini qo’llab-quvvatlash tizimi[21]

O’zbekistonda KO’B subyektlarining eksport faoliyatini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash bo’yicha muayyan tizim shakllangan bo’lsa-da, uning samaradorligini oshirish uchun kompleks va innovasion yondashuv talab

[21] Muallif ishlanmasi

etiladi. Moliyaviy, institusional va axboriy ko’makning yaxlit tizimi, xalqaro standartlar bilan uyg’unlashgan eksport siyosatini joriy etish orqali KO’B eksport salohiyatini yanada oshirish mumkin. Shuningdek, amalda ko’rsatiladigan qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini har bir hududda, har bir sohada teng tatbiq etish va tarmoq kesimida eksport siyosatini shakllantirish talab etiladi.

O’zbekistoning kichik va o’rta biznes eksportini qo’llab-quvvatlashning joriy tizimini tahlil qilish quyidagi kamchiliklarni aniqladi:

1. Kichik va o’rta biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatidagi ishtiroki va ularni qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlarini ko’rsatishning joriy holati tahlili eksportni qo’llab-quvvatlash masalalarida davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirishning sustligi va tizmilashmaganligi ma’lum bo’ldi. Bu esa, tegishli organlar va idoralar tomonidan qo’llab-quvvatlash funksiyalarining takrorlanishiga olib keladi.

2. Qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari ko’proq universal xususiyatga ega bo’lib, sohaga oid maxsus rag’batlantirish tizimlari yetishmaydi. Qo’llab-quvvatlash tadbirlari va choralarining manzilliligi kichik va o’rta biznes eksportini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi chunki, har bir sohaning o’ziga xos normalari va xususiyatlari mavjud bo’lib, mahsulot/xizmatlar uchun ham, butun korxona uchun ham o’ziga xos talablar qo’yiladi.

4. Kichik biznes korxonalarining tovar va xizmatlari eksportini amalga oshirish mexanizmining o’ta murakkabligi, ularni o’tkazish muddatlari qiymatining yuqoriligi;

5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatidagi ishtiroklarini yanada kengaytirishni muvofiqlashtiruvchi maxsus tuzilmalar faoliyatining yo’lga qo’yilmaganligi;

6. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport mahsulotini xalqaro talablar asosida ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini tashkil etish borasida maslahat xizmatlari ko’rsatuvchi tuzilmalar xizmatiga ehtiyojning yuqoriligi;

7. Respublikamizda milliy sifat tizimini ISO 9000 xalqaro standartlari bazasida tashkil qiluvchi maktabning deyarli yo’qligi, vaholanki, dunyoning ko’pgina mamlakatlarida bu tizim milliy standartlar hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, eksportni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning amaldagi tizimining muhim kamchiligi uning elementlarining tarqoqligi, subyektlarning vazifalarini tavsiflovchi, ularning mas’uliyat sohalari va vakolatlarini chegaralovchi yagona me’yoriy-huquqiy hujjatning mavjud emasligidir. Hozirgi vaqtda KO’B subyektlari eksportini rivojlantirish rejalarini o’z ichiga olgan bir qancha me’yoriy hujjatlar mavjud bo’lib, bu ularni amalga oshirish uchun mas’ul bo’lgan subyektlar funksiyalarining takrorlanishi va kesishishiga hamda ular faoliyatining aniq muvofiqlashtirilmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, eksportni rivojlantirish rejalarini o’z ichiga olgan mavjud ustuvor va milliy loyihalar ushbu rejalarga erishish uchun zarur bo’lgan infratuzilmani yetarli darajada rivojlantirishni ta’minlamaydi. Masalan, xalqaro standartlarga muvofiq akkreditasiya qilingan, sertifikatlari butun

dunyoda tan olinadigan laboratoriyalarga ehtiyoj shular jumlasidandir.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo’yicha tavsiyalar sifatida quyidagilar xizmat qilishi mumkin:

- eksportni qo’llab-quvvatlash tizimini (shu jumladan KO’B subyektlari eksportini ham) aniq va izchil tavsiflovchi hamda uning har bir subyektining funksiyalari va javobgarlik sohalarini, ularning takrorlanishi va kesishishini istisno etuvchi tartibga soluvchi yagona hujjatni ishlab chiqish;

- eksportni rivojlantirish rejalarini amalga oshirishga imkon beruvchi va yordam beradigan zarur infratuzilmani belgilash, yaratish va rivojlantirish.



2-rasm. “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJning kengaytirilgan funksiyalari[22]

Fikrimizcha, O’zbekiston “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ

[22] Muallif ishlanmasi

imkoniyatlari va vakolatlarini KO’B subyektlari eksport faoliyatini qo’llab-quvvatlash uchun mukammal tarzda xizmatlarni taqdim etadigan hamda eksportchilari uchun o’z mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqish uchun “yagona darcha” funksiyasini bajaradigan yaxlit tizimi sifatida kengaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (2-rasm).

Yuqoridagidan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ o’z oldiga subyektlarning funksiyalarini sinxronlashtirish orqali ko’rsatilayotgan chora-tadbirlarning takrorlanishiga barham beradigan, eksportni qo’llab-quvvatlashning aniq muvofiqlashtirilgan kompleks tizimini yaratish bo’yicha umumiy vazifani qo’yadi. Islohotning maqsadi rivojlanish institutlarini boshqarishning yagona mexanizmlarini yaratish va funksiyalarning davlat organlari va tijorat kompaniyalari bilan kesishishini bartaraf etishdan iborat.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik va o’rta biznesni eksport faoliyatini davlat tomonidan samarali qo’llab-quvvatlashning mukammal mexanizm shakllantirmasdan turib, ularni rivojlantirish bo’yicha maqsadli dasturlarni samarali amalga oshirib bo’lmaydi. Kichik va o’rta biznesni eksport faoliyatini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash mexanizmi eng kamida quyidagi elementlarni o’z ichiga olishi lozim bo’ldai:

1) davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash obyekti — mikrofirma, kichik va o’rta biznes korxonalari, kichik biznesni qo’llab-quvvatlash infratuzilmasi obyekti;

2) davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash subyekti - davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari;

3) o’zaro munosabatlar - davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash jarayonida obyektlar va subyektlar o’rtasida yuzaga keladigan munosabatlar;

4) maqsad - kichik va o’rta biznes subyektlari eksport faoliyati samardorligi uchun qulay iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratish, butun aholi farovonligini oshirish;

5) faoliyat - muayyan maqsad va vazifalarga erishishga qaratilgan harakatlar majmui;

6) qo’llab-quvvatlash shakllari - kichik va o’rta biznesni eksport faoliyatini iqtisodiy, huquqiy, instrumental qo’llab-quvvatlash yo’llari;

7) resurslar - kichik va o’rta biznes subyektlariga beriladigan moddiy va nomoddiy resurslar;

8) davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash samaradorligini baholash - kichik biznesni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash bo’yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning mutlaq yoki nisbiy qiymatini tahlil qilish.[23]

Kichik va o’rta biznes subyektlarining eksport faoliyatini qo’llab-quvvatlashning samarali mexanizmini shakllantirishning asosiy yo’nalishlaridan biri ma’muriy to’siqlarni va kichik va o’rta biznes faoliyatiga

[23] Тўрабеков С.Ш., Мухаммедов М.М. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ривожлантириш истиқболлари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2016, 2-сон.

davlatning bir tomonlama aralashuvining har qanday shaklini qisqartirish bo’lishi kerak. Davlat hokimiyati organlari ikki tomonlama aloqa shaklida tadbirkorlar bilan muloqot o’rnatishni yo’liga qo’yishi kerak. Davlat organlari kichik va o’rta biznesni subyektlarining eksport faoliyatini qo’llab-quvvatlash infratuzilmasini tashkil etuvchi tashkilotlar bilan yaqinroq hamkorlik qilishga ham e’tibor qaratishi lozim.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda kichik va o’rta biznes subektlarining mavjud o’zaro hamkorligini uyg’unlashtirish ularni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda, shuningdek, davlat, mikromoliya tashkilotlari va tadbirkorlar o’rtasida moliyaviy va investisiya xarajatlarini taqsimlashda birgalikda ishtirok etishni nazarda tutadi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash joizki, O’zbekistonning tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish va bunda kichik va o’rta biznes subyektlari faoliyati rolini oshirish masalalari muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Shunga asosan mamlakatda kichik va o’rta biznes subyektlarining eksport salohiyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o’ylaymiz:

- kichik va o’rta korxonalar uchun eksport salohiyati darajalari bo’yicha taqsimlash korxonaning eksport yo’nalishini rivojlantirishning ma’lum bosqichida tegishli yordam olish imkonini beradi.

- davlat uchun taklif etilayotgan diversifikasiya KO’B subyektlarini zarur qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari bilan tizimlashtirish va kompaniyaning tashqi bozorga chiqishining to’rt bosqichidan birida turgan KO’B subyektlari soniga qarab resurslarni taqsimlash imkonini beradi.

- davlat organlari kichik va o’rta biznes subyektlari mahsulotlarini sotish bo’yicha ixtisoslashtirilgan ulgurji bozorlar, yarmarkalarni uyushtirish va ular faoliyatlarini tashkil qilishda, shu jumladan binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, ishlab chiqarish va yordamchi binolar, davlat mulki bo’lgan boshqa mol-mulkni ijaraga berish yoki sotish yo’li bilan ko’maklashishi;

- iqtisodiyotning ustuvor sohalarida, eng avvalo, qishloq xo’jaligi mahsulotlari yetishtirish hamda qayta ishlash, oziq-ovqat, sanoat tovarlari, xalq iste’mol tovarlari, dori-darmonlar va tibbiyot asbobuskunalarini ishlab chiqarish, kommunal va maishiy xizmatlar ko’rsatish, turar joy, ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlardagi obyektlarni qurish, innovasiya faoliyati va ilm-fanni ko’p talab qiladigan ishlab chiqarishlarni tashkil etish sohasida kichik biznes va xususiy korxonalarga imtiyozlar va afzalliklar berilishi darajasini yanada oshirish;

- kichik va o’rta biznes subyektlarining eksport-import operasiyalarida qatnashishini kengaytirish hamda ularning chet ellardagi tender savdolaridagi ishtirokini kengaytirish, shuningdek, ko’rgazma va yarmarkalarni tashkil etish yo’li bilan mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari bilan xorijiy xari dorlarning muloqotlarini tashkil etishga ko’maklashish;

- kichik va o’rta biznes subyektlariga imtiyozli foiz va shartlarda kreditlar ajratishni ko’paytirish, bank bilan o’zaro munosabatda bankka taqdim etiladigan hujjatlarni yanada soddalashtirish va ixchamlashtirish, bank xizmatlari bahosini arzonlashtirish;

- mamlakat miqyosida eksport jarayonlarini sug’urtalash mexanizmini shakllantirish (havo, dengiz va temir yo’llarda tashuvlar, qishloq xo’jaligi mahsulotlari);

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish, xaridorlarni izlash, shartnomalarni tayyorlash va tuzish, eksport operasiyalarini amalga oshirish, eksport qiluvchilarni ehtimoliy xavf-xatarlardan ishonchli himoya qilish, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi bo’yicha talab etiladigan zarur lisenziyalar, sertifikatlar hamda boshqa ruxsatnomalarni olish va to’lashda yuridik, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko’rsatilishini takomillashtirish;

- kichik va o’rta biznes subektlari eksport faoliyatining iqtisodiy, huquqiy va institusional muhiti doirasida eksportni qo’llab-quvvatlash tizimi subektlarining funksiyalarini tavsiflovchi hamda ularning javobgarlik sohasi va vakolatlari chegaralarini belgilovchi yagona me’yoriy-huquqiy hujjat yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. 100 савол ва 100 жавоб (1-қисм), Т.- “Меҳнат”, 2000. – 347 б.;

2. Абдурахманова Г.К.: Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат асосида иш билан бандлигини таъминлашни такомиллаштириш. Дисс... 08.00.10 – Демография. Меҳнат иқтисодиёти – Т.: 2016 й.

3. Абулқосимов Ҳ.П. ва бошқ.: Ижтимоий-иқтисодий жараёнларни бошқариш. –Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи. 2007. -544 б.;

4. Арипов О.А. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солиш ва ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш. Дисс... 08.00.15 – Тадбиркорлик ва кичик бизнес иқтисодиёти – Т.: 2020.

5. Беркинов Б.Б., Айнақулов М.А. кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик корхоналарининг йирик корхоналар билан ишлаб чикариш кооперацияси. – Жиззах: Жиззах политехника институти, 2004. – 110 б.

6. Бобоев А. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ҳозирги ҳолати. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2017 йил.

7. Бусыгин А.В. Предпринимательство: учеб. - 2-е изд., испр. – М.: Дело, 2000. – 640 с.

8. Бокарева, В.Б. Поддержка малого бизнеса: отечественный и зарубежный опыт социального управления/ Гуманитарные науки. - 2011. - №3-1. - С. 164-172.

9. Титов. Б. Сектор малого и среднего предпринимательства: Россия и Мир. Институт экономики роста им. Столыпина П.А. июль, 2018. http://stolypin.institute/novosti/sektor-malogo-i-srednego-predprinimatelstva- rossiya-i-mir.

10. Зилберштейн О.Б., Шкляр Т.Л., Неветруев К.В. Отраслевая структура среднего бизнеса России // Интернет – журнал «Науковедение». Том 9, №2 (2017);

11. Тўрабеков С.Ш., Мухаммедов М.М. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ривожлантириш истиқболлари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2016, 2-сон.

MEHNAT IQTISODIYOTI
VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117
https://laboreconomics.uz/

SANOAT MAHSULOTLARI TAYYORLASH JARAYONIGA XOS XUSUSIYATLAR

Amirov Zubaydulla Toir o’g’li
Toshkent arxitektura qurilish universiteti
“Iqtisodiyot va ko’chmas mulk” kafedrasi katta o’qituvchisi
e-mail: zubaydullaa@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a202

Annotatasiya. Ushbu maqolada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari faoliyati sohasidagi fan yutuqlari va qo’llanilayotgan innovatsion texnologiyalar, shuningdek, qurilish materiallarini ishlab chiqarish tarmog’ida tadbirkorlik faoliyatini olib borish to’liq yoritilgan. Ya’ni ushbu faoliyat turi bilan shug’ullanmoqchi bo’lgan shaxslarga bu maqola yaxshigina dasturi amal bo’lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: sanoat, mahsulot, material, kichik biznes, texnologiya, bozor, korxona.

ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДСТВЕННОГО ПРОЦЕССА ПРОМЫШЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ

Амиров Зубайдулла Тоир угли
Ташкентский архитектурно-строительный университет
Старший преподаватель кафедры «Экономика и недвижимость»

Аннотация. В данной статье полностью освещены научные достижения в области перспектив развития производства промышленной продукции и используемых инновационных технологий, а также ведения предпринимательской деятельности в сфере производства строительных материалов.

Ключевые слова: промышленность, продукт, материал, малый бизнес, технология, рынок, предприятие (компания).

CHARACTERISTICS OF THE PRODUCTION PROCESS OF INDUSTRIAL PRODUCTS

Amirov Zubaydulla Toir ugli
Tashkent University of Architecture and Construction
Senior Lecturer, Department of "Economics and Real Estate"

Abstract. In this article, the scientific achievements in the field of the prospects for the development of industrial products production and the innovative technologies used, as well as the conduct of business activities in the field of construction materials production, are fully covered.

Keywords: industry, product, material, small business, technology, market, enterprise (company).

Kirish

Bozor munosabatlari sharoitida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda kichik biznes subyektlarining ishtiroki nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim o‘rin egallaydi. Xususan, ular hududiy bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, innovatsion faoliyatni faollashtirish hamda sanoat tarmoqlarida raqobat muhitini kuchaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sanoat sohasida kichik biznes korxonalarining faoliyati samaradorligini tahlil qilish ularning ishlab chiqarish salohiyati, resurslardan foydalanish darajasi va iqtisodiy natijadorligini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu samaradorlik ijtimoiy mezonlar – yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, aholining ijtimoiy faolligining oshishi va ijtimoiy himoya mexanizmlarining kengayishi orqali ham namoyon bo‘ladi.

Birgina 2024 yil sarxisobiga etibor beradigan bo’lsak hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Toshkent shahri (67 214,3 mlrd so‘m), Toshkent viloyati (41 463,2 mlrd so‘m), Andijon viloyati (27 085,4 mlrd so‘m), Farg‘ona viloyati (26 178,9 mlrd so‘m) va Samarqand viloyati (23 694,7 mlrd so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi .

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Kichik biznes subyektlari yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsion aloqalarni yo‘lga qo‘ygan holda sanoat klasterlarining samarali faoliyat yuritishida muhim o‘rin egallaydi.

D.U.Mirzarayimovaga ko’ra “Bugungi kunda kichik sanoat korxonalari ko‘pchilik sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining ajralmas qismidir. Ular bandlikni ta’minlash, raqobat muhitini shakllantirish, innovatsion faollikni oshirish, ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, yirik biznesning foydalanilmayotgan resurslarini ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish, aholining o‘zgarib boruvchi talablarini ta’minlash, yangi bozorlarga chiqish kabi qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi”[24] deb ta’kidlagan.

Фель, В.С.ning keltirishicha “Kichik sanoat korxonalari har qanday mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bunday korxonalarning o‘rni nafaqat ish o‘rinlari yaratish, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, balki iqtisodiyotda innovatsiyalarni rag‘batlantirish va raqobatni rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi”[25] deydi.

Kichik biznes subyektlari zamonaviy iqtisodiyotda nafaqat xizmat ko‘rsatish va savdo sohalarida, balki sanoat tarmog‘ida ham muhim rol o‘ynaydigan iqtisodiy tuzilmalardan hisoblanadi. Ular sanoatning diversifikatsiyalashuvi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi, bandlikni

[24] Д.У.Мирзарайимова. САНОАТ ТАРМОҚЛАРИДА КИЧИК КОРХОНАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2016 йил. Б-1

[25] Фель, В.С. Малые промышленные предприятия и их роль / В.С. Фель, Л.С. Мурыгина. — Текст : электронный // NovaInfo, 2024. — № 145 — С. 39-40 — URL: https://novainfo.ru/article/20759 (дата обращения: 19.07.2025).

oshirish va hududiy sanoat infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Sanoat ishlab chiqarishining yirik tarmoqlari ichida kichik biznes subyektlarining o‘rni tobora mustahkamlanib, ular ko‘plab mamlakatlar sanoat strategiyasining asosiy bo‘g‘inlaridan biriga aylanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy va amaliy yondashuvlar qo‘llanildi. Ma’lumotlar asosan ilmiy maqolalar, statistik hisobotlar va davlat qonunchilik hujjatlaridan olingan. Olingan ma’lumotlar tahlili uchun solishtirma usul, statistik metodlar va iqtisodiy model tahlillari qo‘llanilib, qurilish sanoatida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarining holati va rivojlanish istiqbollari o‘rganildi.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan xozir kunda asosan oziq-ovqat, ichimliklar, tamaki, to‘qimachilik, kiyim, teri, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, kimyo mahsulotlari, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari, rezina va plastmassa va boshqa nometall, mineral mahsulotlar, metallurgiya, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, elektr uskunalar, mebel, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar turlaridan iborat bo’lgan sanoat maxsulotlari ishlab chiraqilmoqda.

Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish turlari har bir mahsulot uchun o‘ziga xos texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish vositalari va tashkiliy yondashuvlarni talab etadi. Bunday xilma-xillik ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy xususiyatlari, mehnat kooperatsiyasi darajasi, foydalanilayotgan xom ashyo va resurslar turiga bevosita bog‘liqdir. Shu boisdan, ishlab chiqarish jarayonining umumiy samaradorligi ko‘p jihatdan tanlangan texnologiyalar, mehnat va moddiy resurslardan foydalanishning ratsionalligi, ishlab chiqarish vositalarining modernizatsiya darajasi, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari hamda ichki boshqaruv tizimining samarali faoliyatiga bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. 2025-yil boshidagi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 1,2 milliondan ortiqni tashkil etmoqda. Ushbu ko‘rsatkich kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotida qanday keng ko‘lamda ishtirok etayotganini ko‘rsatadi.

1-jadvalda kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) ulushi 45,6% atrofida bo‘lib, bu sektorning iqtisodiy barqarorlik va o‘sishda tutgan o‘rnini yaqqol namoyon etadi. Kichik biznes faqat ichki bozor bilan cheklanib qolmay, balki tashqi iqtisodiy faoliyatda ham faol qatnashmoqda. Xususan, 2025-yilning birinchi choragida kichik biznes vakillari tomonidan umumiy qiymati 2 milliard AQSH dollaridan ortiq eksport amalga oshirilgan. Bu esa ushbu sektorning eksport salohiyati yildan-yilga ortib borayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025-Q1
O‘zbekiston Respublikasi	58,5	57,5	56,9	54,6	54,3	54,3	45,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	62,9	62,3	61,4	61,8	64,6	65,8	59,5
Andijon viloyati	72,4	72,7	74,6	69,6	68,6	69,5	60,9
Buxoro viloyati	75,8	76,6	77,1	74,1	72,5	73	63,3
Jizzax viloyati	84,5	84,1	81	78,7	75,3	74,4	66,1
Qashqadaryo viloyati	73,2	74,1	71,8	70	70,5	71	62,7
Navoiy viloyati	33,7	27,8	29,2	27,9	28,1	25,1	18
Namangan viloyati	78	76,3	76,2	74,7	74,3	73,4	67,3
Samarqand viloyati	76,6	75	74,3	70,8	72,3	72,3	65,9
Surxondaryo viloyati	79,4	78	78,4	77,9	77,4	77,8	72,4
Sirdaryo viloyati	72,7	73	71,2	67,8	65,9	68,2	62,1
Toshkent viloyati	54	52	48,2	49,4	52,2	53,9	50,1
Farg‘ona viloyati	72,4	73,3	72,4	71,6	72,2	73,1	68,3
Xorazm viloyati	78,2	77,4	75,8	71,9	72,7	72,3	65,8
Toshkent shahri	56	53,6	51,1	51,2	51,7	52,4	48,9

O‘zbekiston iqtisodiyotining sanoat sektori ham kichik biznesning faol ishtiroki bilan rivojlanmoqda. 2025-yil holatiga ko‘ra, mamlakat bo‘ylab faoliyat yuritayotgan sanoat yo‘nalishidagi korxonalar soni (qishloq xo‘jaligi va agrar sektor korxonalarisiz) 90 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Bu korxonalarning aksariyati kichik va o‘rta biznes subyektlari hisoblanadi.

Hududiy kesimda esa sanoat korxonalarining ko‘pchiligi iqtisodiy va sanoat salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda joylashgan. Jumladan, Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg‘ona, Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlari sanoat faoliyati bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Ushbu hududlarda transport infratuzilmasining rivojlanganligi, xomashyo zaxiralari, malakali ishchi kuchining mavjudligi va investorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar sanoat korxonalarining zich joylashuviga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekiston sanoat tarmog‘ida kichik biznes subyektlarining ishtiroki yildan-yilga oshib bormoqda. 2023-yil yakuniga ko‘ra, kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari umumiy hajmi 176,5 trillion so‘mni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yillardagi natijalarga nisbatan sezilarli o‘sishni aks ettiradi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida esa kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 246 trillion so‘mga yetgan. Bu esa 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda ancha yuqori natijadir. Mazkur o‘sish kichik korxonalar ishlab chiqarish quvvatining kengayishi, texnologik yangilanishlar va mahalliy hamda xorijiy sarmoyalar oqimining ko‘payishi bilan bog‘liq.

Umuman olganda, 2024-yil holatiga koʻra, kichik biznes subyektlarining sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 31,5% ni tashkil qilmoqda. Bu koʻrsatkich mazkur sektorning mamlakat sanoat salohiyatini rivojlantirishdagi beqiyos oʻrnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Sanoat korxonasi - xalq xo'jaligining eng muhim sub'ekti, O'zbekiston sanoat majmuasining birlamchi bo'g'ini bo'lib, u erda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish odamlar hayotidagi ob'ektiv zarurat, insoniyat jamiyati mavjudligining asosidir[26]. Shu umumiy tamoyilga tayanilgan holda aytish mumkinki, kichik sanoat korxonalari ham Oʻzbekiston sanoat majmuasining birlamchi va muhim boʻgʻini boʻlib xizmat qiladi. Ular bevosita ishlab chiqarish faoliyati bilan shugʻullanuvchi, real mahsulot yaratish jarayonida ishtirok etuvchi va aholi ehtiyojini qondiruvchi iqtisodiy tuzilmalar hisoblanadi. Ayniqsa, mehnat va resurslar bilan tejamkor ishlovchi, moslashuvchan va innovatsion faoliyat yurituvchi kichik sanoat subyektlari moddiy ne’matlar yaratishning zamonaviy va lokal shakli sifatida ajralib turadi.

2-jadval

Kichik biznesda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning kuchli va zaif tomonlari[27]

Mezon	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
Moslashuvchanlik darajasi	Bozor talabidagi oʻzgarishlarga tez moslasha oladi, kichik seriyalarni ishlab chiqarishga qodir	Katta hajmdagi buyurtmalarni bajarish imkoniyati cheklangan
Tashkiliy tuzilma	Qaror qabul qilishda markazlashuv darajasi past, tezkor boshqaruv mumkin	Korxona ichida malakali menenjer va rejalashtirish salohiyati yetarli emas
Texnologik baza	Texnologiyalarni tez joriy qilish imkoniyati mavjud	Yangi uskunalar xaridida moliyaviy cheklovlar mavjud
Xarajatlar hajmi	Ishlab chiqarish tannarxini past darajada ushlab turish mumkin	Koʻlam iqtisodidan foydalana olmaydi
Mehnat resurslari	Mahalliy ishchi kuchidan keng foydalaniladi, bandlikni ta’minlaydi	Malakali kadrlar tanqisligi mavjud
Innovatsion faollik	Innovatsion gʻoyalarga nisbatan ochiqlik yuqori	Ilmiy-texnik salohiyat zaif, ilmiy tadqiqotlar bilan integratsiya past
Moliyalashtirish imkoniyati	Dastlabki bosqichda davlat grantlari, imtiyozli kreditlar mavjud	Doimiy sarmoya oqimini ta'minlash qiyin, kredit olishda garov muammosi
Raqobat muhitidagi oʻrni	Mahalliy bozor ehtiyojlariga mos maxsuslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqaradi	Raqobatchilar tomonidan tezda siqib chiqarilishi mumkin, narx raqobatiga bardoshli emas

[26] Календарева С.Г. Организация производства на промышленном предприятии - (Учебное пособие) - Т.: ТГЭУ, 2004. С-13

[27] Muallif ishlanmasi

Sanoat ishlab chiqarishining samaradorligi - bu ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi bog’liq bo'lib, u alohida turdagi resurslardan (inson mehnati, mehnat vositalari va ob'ektlaridan) foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini va bir nechta turdagi resurslardan foydalanish samaradorligining umumiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi[28].

Kichik biznes doirasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, bu jarayonda bir qator ustunliklar bilan bir qatorda, muayyan cheklovlar ham kuzatiladi (2-jadval).

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kichik biznes subyektlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bir qator afzalliklarga ega bo‘lishiga qaramay, muayyan zaif tomonlar mavjudligi bu sohaning raqobatbardoshligini oshirishda tizimli yondashuv va davlat qo‘llovini muhim omil sifatida belgilaydi.

Kichik biznes subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi o‘rni quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi — bu ularning iqtisodiy tizimdagi ahamiyatini belgilaydi:

- mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish (kichik sanoat korxonalari ko‘pincha joylardagi mavjud tabiiy, agrar yoki texnologik resurslardan foydalanadi. Bu esa resurslarni isrof qilmasdan, iqtisodiyotda ichki imkoniyatlardan to‘liq foydalanish imkonini yaratadi);

- yangi ish o‘rinlari yaratish (kichik sanoat subyektlari — ayniqsa, aholi zich joylashgan hududlarda — bandlik muammosini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular kam sarmoya bilan ko‘p ishchi kuchini jalb etishga qodir);

- bozorni to‘ldiruvchi maxsuslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish (yirik korxonalar ishlab chiqarmaydigan, maxsus talabga ega bo‘lgan mahsulotlar aynan kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqariladi. Bu esa sanoat tarmog‘ini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi);

- innovatsion g‘oyalarni sinovdan o‘tkazish maydoni (kichik biznes subyektlari moslashuvchan va innovatsion bo‘lib, yangi texnologiyalar, mahsulotlar va uslublarni joriy etishda yirik korxonalarga nisbatan ancha chaqqon bo‘ladi);

- hududiy sanoatni rivojlantirishdagi roli (kichik sanoat subyektlari chekka va kichik aholi punktlarida ham faoliyat yuritadi, bu esa regional sanoatlashtirish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi).

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. 2019–2025-yillar davomida tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kichik sanoat korxonalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada pasaygan bo‘lishiga qaramay, ularning iqtisodiy tizimdagi roli hali ham strategik ahamiyat kasb etadi. Xususan, ular:

[28] Т.В. Шелеметьєва. ПІДВИЩЕННЯ ЕФЕКТИВНОСТІ ПРОМИСЛОВОГО ВИРОБНИЦТВА ЗА РАХУНОК ЗНИЖЕННЯ СОБІВАРТОСТІ ПРОДУКЦІЇ// Держава та регіони. Економіка та підприємництво, 2012 р., № 4 (67)

- Mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish orqali import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqda;
- Bandlikni oshirish va hududiy iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishda muhim ijtimoiy-iqtisodiy funksiyani bajaradi;
- Innovatsiyalarni tez sinovdan o‘tkazish va joriy etishda yirik korxonalarga nisbatan moslashuvchanlikka ega;
- Maxsuslashtirilgan va tor segmentli mahsulotlar ishlab chiqarishda bozorni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Biroq, kichik sanoat subyektlarining to‘laqonli rivojlanishiga bir qator to‘siqlar mavjud bo‘lib, ular qatoriga texnologik eskilik, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, eksport salohiyatining sustligi, va me’yoriy hujjatlar bilan bog‘liq byurokratik murakkabliklar kiradi.

Kichik biznes subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi salohiyatini to‘liq ishga solish va ularning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Texnologik modernizatsiyani rag‘batlantirish:
   - Kichik sanoat subyektlari uchun past foizli investitsion kreditlar ajratish;
   - Zamonaviy texnologiyalar xaridini subsidiyalash dasturlarini kengaytirish;
   - Hududiy sanoat zonalarida "texnologik inkubator"lar tashkil etish.
2. Eksport salohiyatini kuchaytirish:
   - Kichik korxonalar uchun eksport bozorlariga chiqishda marketing va logistika xizmatlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;
   - "Made in Uzbekistan" brendi ostida kichik korxonalar mahsulotlarini xalqaro yarmarkalarda targ‘ib qilish;
   - Eksportchi kichik bizneslar uchun soliq imtiyozlarini joriy etish.
3. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish:
   - Garovsiz kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish;
   - Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus grant dasturlarini yo‘lga qo‘yish;
   - Sug‘urta va risk menejment tizimlarini kichik biznesga moslashtirish.
4. Kichik sanoat korxonalarini klasterlash:
   - Sanoat klasterlari doirasida kichik va yirik korxonalar o‘rtasida kooperatsiyani rivojlantirish;
   - Hududiy klasterlarda umumiy infratuzilma, laboratoriya va logistika markazlarini tashkil etish;
   - Klaster ishtirokchilariga kadrlar tayyorlash, mahsulot standartlashtirish va eksport bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish.
5. Me’yoriy-huquqiy bazani soddalashtirish:
   - Kichik biznes subyektlari uchun ruxsatnomalar, sertifikatlar va hisobotlar tizimini raqamlashtirish;
   - Mahalliy darajada bir darcha (“One Stop Shop”) tamoyiliga asoslangan xizmat ko‘rsatish markazlarini kengaytirish;

- Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va yuritish tartiblarini soddalashtirish.

6. Kadrlar salohiyatini oshirish:

- Kichik biznes uchun sanoat menejmenti, raqamli texnologiyalar va eksport bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslarini joriy etish;
- “Usta-shogird” an’analarini zamonaviy kasb-hunar o‘rgatish tizimi bilan uyg‘unlashtirish;
- Hududiy kasb-hunar markazlarini kichik sanoat ehtiyojlari asosida moslashtirish.

Kichik sanoat subyektlari O‘zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy qismini tashkil etgan holda, mahalliy resurslardan foydalanish, yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va eksportni kengaytirish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ularning faoliyatini tizimli asosda qo‘llab-quvvatlash va raqobatbardoshligini oshirish mamlakat sanoat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 25.10.2017 yildagi PQ-3356-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori,

2. “Kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 21.06.2019 yildagi PQ-4363-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori,

3. “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 01.05.2019 yildagi PQ-4302-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

4. “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 26.10.2016 yildagi PF-4853-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni,

5. I.S.Xotamov, G.R.Madraximova Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi”, 2022 252 bet

6. Veblen T. The Theory of Business Enterprise. New York: Charles Scribner’s Sons, 1904.

7. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.

8. Romer P. Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 1990, №5, pp. 71–102.

9. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Chicago:

University of Chicago Press, 1964.

10. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press, 1934.

11. Baumol W. J. The Free-Market Innovation Machine: Analyzing the Growth Miracle of Capitalism. Princeton: Princeton
University Press, 2002.
2 https://lex.uz/docs/-4351738
12. Davletov I.X. Qurilish iqtisodiyoti. 2019
13. G`ulomov S.S “Biznes strategiyasi” T.-2011-yil 152 b.
14. A.V.Vahabov D.A.Tadjibayeva Jahon iqtisodi. va xalqaro iqtisodiy munosabat. T.-2015.
15. N.G.Karimov Investisiyani tashkil etish va moliyalashtirish. T-2011
16. I.B. Ibratov Tadbirkorlik huquqi. 2001
17. Analiticheskaya ximiya. problemi i podxodi. tom 1. R. Kelnera, J.-M. Merme, M. Otto, G.M. Vidmer. - M. Mir, Izdatelstvo AST, 2004

MEHNAT IQTISODIYOTI
VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117
https://laboreconomics.uz/

O’ZBEKISTONDA FAOLIYAT YURITUVCHI KORXONALARDA PUL OQIMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo’ja o’g’li
Toshkent xalqaro universiteti
Biznes va innovasion ta’lim fakulteti dekani
i.f.f.d., dosent
e-mail: ifoziljonov@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a203

Annotasiya. Ushbu maqolada O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxonalarning pul oqimlari samaradorligini baholash jarayoni atroflicha yoritilgan. Mamlakatda bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish, xususiy sektorni kengaytirish, davlat korxonalarini transformasiya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqotda korxonalarning likvidlik darajasi, ustav kapitali rentabelligi, debitor-kreditor munosabatlari va asosiy fondlarni yangilash sur’atlari asosiy ko’rsatkichlar sifatida tahlil qilingan. Shu orqali korxonalarning moliyaviy holati, investisiya salohiyati va to’lovga qobillik imkoniyatlari baholangan. ERP va avtomatlashtirilgan hisobot tizimlarining joriy etilishi pul oqimlari ustidan samarali nazoratni ta’minlashga imkoniyat yaratishi ta’kidlangan. Xususan, pul oqimlarini samarali boshqarish korxonalarning moliyaviy barqarorligi, strategik rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi omil ekanligi qayd etilgan.

Kalit so’zlar: Pul oqimlari, samaradorlik, korxona barqarorligi, likvidlik, rentabellik, moliyaviy boshqaruv, asosiy fondlar, debitor qarzlar, kreditor qarzlar, investisiya salohiyati, iqtisodiy islohotlar, strategik rivojlanish.

ПРАКТИКА ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ В ДЕЙСТВУЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Фозилжонов Иброхимжон Сотволдиходжа угли
Декан факультета Бизнеса и инновационного образования
Ташкентского международного университета,
кандидат экономических наук, доцент

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается процесс оценки эффективности денежных потоков предприятий, действующих в Узбекистане. Его актуальность обосновывается необходимостью углубления рыночной экономики в стране, расширения частного сектора, трансформации государственных предприятий и обеспечения финансовой устойчивости. В исследовании в качестве основных показателей проанализированы уровень ликвидности предприятий, рентабельность уставного капитала, состояние дебиторской и кредиторской задолженности, а также темпы обновления основных фондов. На этой основе оценены финансовое состояние, инвестиционный потенциал и платёжеспособность предприятий. Отмечается, что внедрение ERP-систем и автоматизированных систем отчётности создаёт возможности для обеспечения более эффективного контроля

над денежными потоками. В частности, подчёркивается, что эффективное управление денежными потоками является ключевым фактором обеспечения финансовой устойчивости, стратегического развития и конкурентоспособности предприятий.

Ключевые слова: денежные потоки, эффективность, устойчивость предприятия, ликвидность, рентабельность, финансовое управление, основные фонды, дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, инвестиционный потенциал, экономические реформы, стратегическое развитие.

PRACTICE OF ASSESSING THE EFFICIENCY OF CASH FLOWS IN ENTERPRISES OPERATING IN UZBEKISTAN

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhuja ugli
Dean of the Faculty of Business and Innovative Education
Tashkent International University
PhD, Associate Professor

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the process of assessing the efficiency of cash flows in enterprises operating in Uzbekistan. The relevance of this process is explained by the need to deepen the market economy in the country, expand the private sector, transform state-owned enterprises, and ensure financial stability. The study analyzes the key indicators such as the level of enterprise liquidity, return on charter capital, the state of accounts receivable and payable, and the rate of renewal of fixed assets. Based on these indicators, the financial condition, investment potential, and solvency of enterprises are assessed. It is emphasized that the introduction of ERP systems and automated reporting systems creates opportunities for effective control over cash flows. In particular, it is noted that effective cash flow management is a decisive factor in ensuring financial stability, strategic development, and competitiveness of enterprises.

Keywords: cash flows, efficiency, enterprise stability, liquidity, profitability, financial management, fixed assets, accounts receivable, accounts payable, investment potential, economic reforms, strategic development.

Kirish

O’zbekistonda bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish, xususiy sektorni kengaytirish va davlat korxonalarini transformasiya qilish jarayonida pul oqimlari samaradorligini aniqlash korxonalar barqarorligi va rivojini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunday tahlil orqali korxona rahbarlari, investorlar va moliyaviy institutlar o’z qarorlarini asosli qabul qilishlari mumkin. Samarali pul oqimi yuqori likvidlik, yaxshi boshqaruv, xavfsiz moliyaviy muhit va investisiyaviy jozibadorlik bilan bog’liq. Demak, pul oqimlari samaradorligini baholash faqat moliyachi mutaxassislar uchun emas, balki strategik menejment uchun ham muhim hisoblanadi. O’zbekistondagi iqtisodiy muhit, xususan, sanoat korxonalarining tarkibi, moliyaviy mexanizmlarining rivojlanish darajasi, soliq siyosati, bank tizimi va investisiya muhiti pul oqimlarining samaradorligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Mamlakatdagi umumiy iqtisodiy barqarorlik, narxlar inflyasiyasi, valyuta kurslari va bozor kon’yunkturasi pul oqimlarining o’sishi yoki pasayishiga ta’sir ko’rsatadi. Masalan, tashqi savdo bilan shug’ullanuvchi korxonalarda valyuta kursining o’zgarishi naqd pul tushumlariga sezilarli ta’sir etadi. Milliy

buxgalteriya standartlari va davlat tomonidan talab qilinadigan moliyaviy hisobot shakllari ham korxonada pul oqimlarini aniq ko’rish va tahlil qilish imkonini belgilab beradi. Xususan, yirik korxonalarning xalqaro standartlarga mos hisobotlari tahlilni yengillashtiradi. ERP, CRM, buxgalteriya dasturlari va avtomatlashtirilgan to’lov tizimlari orqali pul oqimlari to’liq hisobga olinishi ta’minlanadi. Bu samaradorlikni oshirishda muhim omildir. Bunday tizimlar korxona rahbariyatiga aniq ma’lumotlarni real vaqtda taqdim etishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Korxonalarda pul oqimlarini prognoz qilishning aniq va samarali amalga oshirilishi korxonalar barqaror faoliyati uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xususan, Richard Brelli va Styuart Mayers (2020) tadqiqotida aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini prognoz qilish korxonaning qiymatini belgilash hamda investisiya qarorlarini asoslashning eng muhim vositasi ekanligi ta’kidlangan. Erix Xelfert (2019) o’z ilmiy izlanishlarida naqd pul oqimlarini prognoz qilish korxonaning likvidlik holatini baholash va moliyaviy rejalashtirishda xatolarga yo’l qo’ymaslik uchun asosiy shart ekanligini ko’rsatib bergan. Asvat Damodaran (2018) pul oqimlarini prognoz qilish va diskontlangan pul oqimlari usulini aksiyadorlik jamiyatlari kapital qiymatini aniq baholashda eng ishonchli metod sifatida asoslaydi. Shu bilan birga, Milton Fridman (2006) pul oqimlari prognozining makroiqtisodiy ahamiyatini yoritib, pul aylanishi va inflyasiya darajasini oldindan belgilash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mumkinligini qayd etadi. Mahalliy olim O’. Hoshimov (2021) esa sanoat korxonalarida pul oqimlarini prognoz qilish investisiya salohiyatini oshirish va moliyaviy yo’qotishlarni kamaytirishda muhim omil ekanligini asoslab bergan. Sh. G’ulomov (2020) tadqiqotida esa pul oqimlari prognozini to’g’ri amalga oshirish korxonalarning investisiya jarayonlarini samarali yo’lga qo’yishi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim o’rin tutishini ta’kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada, O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan “Andijonbiokimyo”, “O’zmetkombinat” va “Gidromaxsusqurilish” aksiyadorlik jamiyatlari tanlab olinib, ularning 2019–2024 yillar moliyaviy ko’rsatkichlari asosida pul oqimlari samaradorligi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida korxonalarning operasion, investisiya va moliyaviy faoliyatlari bilan bog’liq pul oqimlari o’rganildi. Maqsad-korxonalarning pul oqimlaridan foydalanish samaradorligini baholash, moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Empirik ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida moliyaviy koeffisiyentlar tahlili, trend tahlili va qiyosiy tahlil usullari qo’llanildi. Shuningdek, likvidlik, rentabellik va to’lovqobillik kabi asosiy ko’rsatkichlar asosida korxonalardagi muammolar va ustunliklar aniqlandi. Tadqiqotda korrelyasion va regression tahlil elementlaridan foydalanilib, pul oqimlari o’zgarishiga ta’sir etuvchi omillar o’rganildi. Olingan natijalar asosida korxonalarning moliyaviy

barqarorligini ta’minlash va pul oqimlari boshqaruvini samarali tashkil etish bo’yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Pul oqimlarining samaradorligi to’g’ridan-to’g’ri menejmentning strategik qarorlari, rejalashtirish, xarajatlar nazorati va debitor-kreditor munosabatlarini boshqarish darajasiga bog’liq. O’zbekistondagi korxonalarda pul oqimlari samaradorligini baholashda bir qator moliyaviy ko’rsatkichlardan foydalaniladi. Bu ko’rsatkichlar asosida korxonaning likvidlik darajasi, investisiya salohiyati, debitor qarzlar bilan bog’liq xavflar va boshqa muhim elementlar aniqlanadi. Pul oqimlari samaradorligi — bu korxona o’zining faoliyati jarayonida shakllantirgan va sarflagan naqd mablag’larning qay darajada oqilona boshqarilayotganini ko’rsatuvchi ko’rsatkichlar yig’indisidir. Ushbu samaradorlik darajasini aniqlash orqali korxonaning iqtisodiy holati, moliyaviy barqarorligi va rivojlanish salohiyatini baholash mumkin bo’ladi. Pul oqimlari samaradorligini baholashda odatda operasiyalar, investisiyalar va moliyaviy faoliyatlar bilan bog’liq oqimlar o’rganiladi. Shuningdek, pul tushumi va chiqimi o’rtasidagi mutanosiblik, pul aylanish tezligi va aylanma kapitalning likvidligi kabi jihatlar ham tahlil qilinadi. 1-jadvalda korxonalarning ushbu ko’rsatkichlarini tahlil qilib o’tamiz.

1-advaldan ko’rinib turganidek, “Andijonbiokimyo” AJning ustav kapitali rentabelligi yillar davomida barqaror o’sgan, ayniqsa 2024 yil keskin yaxshilanish kuzatiladi. Umumiy to’lovqobillik darajasi oxirgi ikki yilda juda qulay: doimiy ravishda 2,9 atrofida, absolyut likvidlik juda o’ziga xodir. 2021 va 2023 y. yuqori, keyin keskin pasayishlar bor — naqd-qisqa pul pozisiyasida hisoblanadi. Asosiy fondlarni yangilash intensiv, ammo siklli: 2020 yil so’ng pasayish, 2023–2024 yillarda qayta faollashishdir.

“O’z” va “qarz” manbalari nisbati ma’lumotda fond yangilanishiga identik berilgan. Agar haqiqatdan shunday o’zgargan bo’lsa, qarzga qaraganda o’zining ulushi ustun va nisbat nisbatan barqaror. Absolyut likvidlikdagi katta tebranishlar qisqa muddatli to’lovlar kalendarini notekis qiladi. Investisiya sikllari yuqori bo’lgan yillardan keyin pul aylanmasida bosim yuzaga kelishi mumkin. Qisqa muddatli pul taqvimini qat’iylashtirib, hisob-kitob intizomini avtomatlashtirish, debitorlarning to’lov intizomi bo’yicha “erta ogohlantirish” mezonlari qo’llanilgan. Asosiy vositalar yangilashini “tomchi-tomchi” tarzda, pul oqimi piklariga mos taqsimlashdan iborat. Kassa-rezerv maqsadli diapazon belgilash (masalan, oylik operasion xarajatlarning ma’lum ulushi miqdorida) va uni muntazam ushlab turish lozim. “O’zmetkombinat” AJ ning ustav kapitali rentabelligi o’zgaruvchanligi kuzatiladi. 2021-yili izchil pasayib, 2024-yilga kelib yana ham pasayib ketgan. To’lovga qobillik 2019–2023-yillarda qoniqarli diapazonda bo’lgan, 2024-yilda 1,01 ni tashkil etib, ishchi kapitalga bosim katta bulmoqda. Absolyut likvidlik 2021-yilda yetarli darajada bo’lmayapti. Asosiy fondlarni yangilash sur’ati pasayib boryapti — aktivlar “qarishi” xavfi mavjud. “O’z–qarz” nisbati 2019-yilda yuqori o’z manbalariga suyangan, keyin tez ravishda qarzga suyanch kuchaygan va

2023-yilda 1 dan past, 2024-yilda qisman yaxshilangan. Ishchi kapital tanqisligi va naqd yetishmovchiligi operasiyalar barqarorligiga xavf solmoqda. Investisiyalarni yeskin qisqartirish oqibatida asosiy vositalar samaradorligi pasayishi, ishlab chiqarish xarajatlari o’sishi mumkin. Qarz yuki yuqori bo’lib, foiz xarajatlari natijaga bosim qilmoqda.

1-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy-xo’jalik faoliyati samaradorlik ko’rsatkichlari[29]

Andijonbiokimyo AJ	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
Ustav kapitalining rentabellik koeffisiyenti	0,2	0,3	0,3	0,3	0,4	0,6
Umumiy to’lovga qobillikni qoplash koeffisiyenti	1,6	2,4	1,7	1,5	2,9	2,9
Absolyut likvidlik koeffisiyenti	0,005	0,1	0,5	0,1	0,8	0,1
Asosiy fondlarni yangilash koeffisiyenti	3,5	5,7	2,5	1,6	4,1	3,4
Emitentning o’z mablag’lari va qarz mablag’lari nisbati	3,5	5,7	2,5	1,6	4,1	3,4
O’zmetkombinat AJ	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ustav kapitalining rentabellik koeffisiyenti	1,59	0,99	6,7	0,45	0,15	0,09
Umumiy to’lovga qobillikni qoplash koeffisiyenti	1,9	2,2	1,7	1,76	1,82	1,01
Absolyut likvidlik koeffisiyenti	0,07	0,3	0,6	0,06	0,04	0,11
Asosiy fondlarni yangilash koeffisiyenti	0,31	0,09	0,09	0,13	0,12	0,05
Emitentning o’z mablag’lari va qarz mablag’lari nisbati	15,45	1,47	0,9	1,7	0,89	1,35
«Gidromaxsusqurilish” AJ	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ustav kapitalining rentabellik koeffisiyenti	1,52	1,52	0,68	0,0041	0,01	0,0119
Umumiy to’lovga qobillikni qoplash koeffisiyenti	1,04	1,04	1,88	1,57	1,34	1,05
Absolyut likvidlik koeffisiyenti	0,06	0,015	0,003	0,041	0,003	0,001
Asosiy fondlarni yangilash koeffisiyenti	0,11	0,021	0,013	0,73	0,7	0,63
Emitentning o’z mablag’lari va qarz mablag’lari nisbati	0,267	0,306	0,385	0,342	0,252	0,214

Bizning fikrimizcha, aylanma kapitalni tezkor “ochish”: debitorlar bilan qayta shartlashish, ombor qoldiqlarini optimallashtirish, buyurtma–inkassa jarayonini qisqartirishga e’tibor berish kerak. To’lovlar tartibini qayta rejalashtirib, korxona ularning hajmini 1,3–1,5 atrofiga chiqarishga, qisqa pul

[29] Акциядорлик жамиятларининг молиявий натижалари асосида муаллиф томонидан тайёрланди

buferini shakllantirishga harakat qilishi lozim. Asosiy fondlar bo’yicha “mikro-yangilash” dasturi, energiya tejamkor uskunalar, modernizasiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq. Qarz portfelini qayta tuzib, uzoq muddatli resurs ulushini oshirish, foiz risklarini xedjlash lozim. “Gidromaxsusqurilish” AJning Ustav kapitali rentabelligi 2022 y.dan deyarli “nol”ga yaqin — operasion marja va/yoki kontrakt portfelida muammolar ehtimoli katta. To’lov qobiliyatliligi 2021 yilda ijobiy bo’lib, so’ng izchil pasayib borib 2024 yilda 1,05 ni tashkil etib xavf chegarasig kelib qolgan. Absolyut likvidlik butun davr mobaynida yetarli darajada bo’lmagan. Asosiy fondlar yangilanishi 2022–2024 yillarda yetarli sur’at olgan, ammo bu daromadga aylanmagan. O’z mablag’larining qarz mablag’lariga nisbati butun davrda 1 dan past va pasayib boradi. Ishlab chiqarish quvvatlariga kiritilgan sarmoyalar hozircha pul oqimiga aylanmayotgani sababli qarz xizmat ko’rsatishi va kundalik sarflar qiyinlashgan.

Qarz majburiyatlari ustunligi foiz xavfini oshib bormoqda. Shartnomaviy kechikishlar kassada uzilishlarga olib keladi. Loyiha portfelini qayta tartiblash orqali tez pulga aylanadigan obyektlarga aylantirish lozim. Korxona har kungi pul kirim–chiqim cheklashi, to’lov kalendarini qat’iylashtirish, avans to’lovlar bo’yicha mijozlar bilan qo’shimcha kelishuvlar amalga oshirish maqsalga muvofiq. Qarzlarni restrukturizasiyalash lozim. Muddatlarini uzaytirish, foiz stavkasi bo’yicha qayta kelishish lozim bo’ladi. Rentabellik masalasiga ham e’tibor berish lozim, “Andijonbiokimyo” AJ barqaror o’smoqda. Eng yuqori o’zgaruvchanlik — “O’zmetkombinat” va eng past va nobarqaror korxona “Gidromaxsusqurilish” hisoblanadi. “Andijonbiokimyo” oxirgi ikki yilda ijobiy holatda, “O’zmetkombinat” zararsizlik nuqtasida, “Gidromaxsusqurilish” ham barqaror deb bo’lmaydi. Absolyut likvidlik bo’yicha barchasida muammo jihatlari mavjud, ayniqsa 2022–2024 yillarda “O’zmetkombinat” va “Gidromaxsusqurilish” korxonalarida kuzatilgan. “Andijonbiokimyo”da asosiy vositalarni yangilanishi amalga oshirilmoqda. “O’zmetkombinat”da bu holat nofaol, “Gidromaxsusqurilish” AJda 2022 yildan keskin amalga oshirilgan.“Andijonbiokimyo” AJda o’z mablag’lari ulushi yuqori hisoblanib, “O’zmetkombinat”da leveredj keskin orshgan va “Gidromaxsusqurilish” AJda qarz mablag’lari salmog’i ustun.

Shuningdek, pul oqimlari orqali kompaniyaning kreditorlar oldidagi qobiliyati, dividend to’lash imkoniyatlari, ichki investisiya salohiyati va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari baholanadi. Har qanday moliyaviy rejalashtirish jarayoni pul oqimlarini hisobga olmasdan to’liq bo’la olmaydi. Pul oqimlarini samarali boshqarish va uning samaradorligini aniq baholash iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim sharti hisoblanadi. O’zbekistondagi korxonalar uchun bu masala nafaqat moliyaviy hisobotlarni to’g’ri yuritish, balki strategik rivojlanish, investisiya faoliyatini rejalashtirish va xatarlarni kamaytirish uchun ham muhimdir.

Bugungi sharoitda har bir korxona rahbariyati o’z faoliyatini rejalashtirishda pul oqimlarining holatini teran anglashi, ularni samarali boshqarish strategiyasini ishlab chiqishi va muntazam ravishda tahlil qilib borishi lozim. Shundagina milliy iqtisodiyotda barqaror va raqobatbardosh subyektlar shakllanishi mumkin.

So’nggi yillarda O’zbekistonda iqtisodiy islohotlar, xususiylashtirish jarayonlari, davlat korxonalarini modernizasiya qilish, bank sektoridagi o’zgarishlar va investisiya muhitini yaxshilash borasida ko’plab ishlar amalga oshirildi. Bu o’zgarishlar korxonalarning moliyaviy boshqaruviga, xususan, pul oqimlarini to’g’ri va samarali boshqarishga alohida e’tibor talab qiladi.

Qator islohotlar natijasida moliyaviy hisobot berish shaffofligi oshirildi, buxgalteriya standartlari xalqaro me’yorlarga yaqinlashtirildi. Bu esa pul oqimlarini baholashda aniq va ishonchli ma’lumotlardan foydalanish imkonini bermoqda. O’zbekistondagi korxonalarda pul oqimlari samaradorligini ta’minlashda kuyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- korxonaning ishlab chiqarish salohiyati va mahsulot aylanishi;
- sotuv siyosatining samaradorligi va debitor qarzlar bilan ishlash darajasi;
- qarzdorlik darajasi va moliyaviy majburiyatlarning muddatliligi;
- valyuta xavflari, inflyasiya, soliq siyosatining o’zgarishi;
- bank tizimi orqali pul harakatining tezligi va ishonchliligi.

Agar korxona bu omillarni to’g’ri boshqarsa, pul oqimlari barqaror va ijobiy yo’nalishda shakllanadi. Aks holda, pul tanqisligi yuzaga kelib, korxonaning barqaror faoliyatiga tahdid solishi mumkin.

Pul oqimlarini samarali boshqarish va uning samaradorligini aniq baholash iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim sharti hisoblanadi. O’zbekistondagi korxonalar uchun bu masala nafaqat moliyaviy hisobotlarni to’g’ri yuritish, balki strategik rivojlanish, investisiya faoliyatini rejalashtirish va xatarlarni kamaytirish uchun ham muhimdir.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, O’zbekiston korxonalarida pul oqimlari samaradorligini baholash moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tahlil etilgan “Andijonbiokimyo” AJda barqaror o’sish va asosiy fondlarni yangilash jarayoni kuzatilgan bo’lsa, “O’zmetkombinat” AJda likvidlikning pasayishi va qarz yukining oshishi moliyaviy xavflarni kuchaytirayotgani ma’lum bo’ldi. “Gidromaxsusqurilish” AJda esa to’lov qobiliyatining zaifligi va qarz majburiyatlari ustunligi korxonaning barqaror faoliyatiga jiddiy tahdid solmoqda. Demak, korxonalarda pul oqimlarini samarali boshqarish, debitor-kreditor munosabatlarini optimallashtirish, investisiya jarayonlarini maqsadli yo’lga qo’yish va moliyaviy nazoratni kuchaytirish zarur. Pul oqimlarini to’g’ri baholash va prognoz qilish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, investisiyaviy salohiyatni oshirish hamda milliy iqtisodiyotda raqobatbardosh subyektlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Richard A. Brealey, Stewart C. Myers. 2020. “Principles of Corporate Finance”. McGraw-Hill Education, 13th Edition.
2. Erich A. Helfert. 2019. “Techniques of Financial Analysis: A Practical Guide to Managing and Measuring Business Performance”. McGraw-Hill.
3. Aswath Damodaran. 2018. “Corporate Finance: Theory and Practice”. Wiley.
4. Milton Friedman. 2006. “Monetary Theory and Economic Policy”. Aldine Transaction.
5. Ҳошимов Ў. 2021. “Корхоналар молиявий таҳлили”. Тошкент: Иқтисодиёт нашриёти.
6. Ғуломов Ш. 2020. “Инновацион молия ва инвестиция жараёнлари”. Тошкент: Иқтисодиёт нашриёти.
7. Chen Mark T. 2007. “Cash Flow Forecasting and Financial Planning in Corporate Firms”. Journal of Applied Finance, Volume 17, Issue 2, pp. 45–59.
8. Rajendra R. 2013. “Cash Flow Projection and Shareholder Value in Joint Stock Companies”. International Journal of Financial Management, Volume 22, Issue 4, pp. 64–73.
9. Bragg Steven M. 2010. “The Ultimate Cash Flow Forecasting Handbook”. Accounting Tools Publishing.
10. Yun Li, Luiz Moutinho, Kwaku K. Opong, Yang Pang. 2014. “Cash flow forecast for South African firms”. Review of Development Finance, Volume 5, Issue 1, June 2015, Pages 24–33.
11. James C. Van Horne, John M. Wachowicz. 2016. “Fundamentals of Financial Management”. Pearson Education.
12. Eugene F. Brigham, Michael C. Ehrhardt. 2019. “Financial Management: Theory & Practice”. Cengage Learning, 16th Edition.
13. Myers Stewart C., Rajan Raghuram G. 1998. “The Paradox of Liquidity”. Quarterly Journal of Economics, Volume 113, Issue 3, pp. 733–771.
14. Modigliani Franco, Miller Merton H. 1963. “Corporate Income Taxes and the Cost of Capital: A Correction”. American Economic Review, Volume 53, Issue 3, pp. 433–443.

MEHNAT IQTISODIYOTI
VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117
https://laboreconomics.uz/

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA SOLIQ MAJBURIYATLARI HISOBI

Jabbarova Charos Aminovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Byudjet hisobi va g’aznachilik kafedrasi katta o’qituvchisi, PhD
e-mail: ch.jabborova@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a204

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlarning tasniflanishi, ularni muddati, turlari bo’yicha hisobga olish va hisobotlarda aks ettirish tartibi o’rganilgan. 12-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga ko’ra kechiktirilgan soliq majburiyatlari hisobda aks ettirilishi bilan bog’liq amaldagi muammolar va ushbu muammoni yechimiga qaratilgan takliflar berilgan. Shuningdek, investorlarning qarorlari uchun ahamiyatliligi va moliyaviy holatni ifodalovchi ko’rsatkichlarning o’zgarishiga ta’siri bo’lganda joriy majburiyatlar tarkibini alohida satrda ko’rsatish bo’yicha tegishli takliflar shakllantirilgan.

Kalit so’zlar: Majburiyat, joriy majburiyatlar, soliq majburiyatlari, kechiktirilgan soliq majburiyatlari, uzoq muddatli majburiyatning joriy qismi.

УЧЕТ НАЛОГОВЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Джаббарова Чарос Аминовна
Ташкентский государственный экономический университет
Старший преподаватель кафедры бюджетного учета и казначейства, PhD

Аннотация. В данной статье изучена классификация обязательств в акционерных обществах, а также порядок их учета и отражения в отчетности по срокам и видам. В соответствии с Международным стандартом финансовой отчетности №12 рассмотрены существующие проблемы, связанные с отражением отложенных налоговых обязательств в бухгалтерском учете, и предложены пути их решения. Кроме того, сформулированы соответствующие предложения по отдельному отображению текущих обязательств в отчетности, если они оказывают влияние на показатели, характеризующие финансовое состояние компании и имеют значение для принятия решений инвесторами.

Ключевые слова: Обязательство, текущие обязательства, налоговые обязательства, налагаемое обязательство, отложенные налоговые обязательства, текущая часть долгосрочных обязательств.

ACCOUNTING OF TAX OBLIGATIONS IN JOINT-STOCK COMPANIES

Jabbarova Charos Aminovna
Tashkent State University of Economics
Senior Lecturer, Department of Budget Accounting and Treasury, PhD

Abstract. This article explores the classification of liabilities in joint-stock companies, as well as the procedures for accounting and reporting them based on their

duration and types. In accordance with International Financial Reporting Standard (IFRS) No. 12, the article examines existing issues related to the recognition of deferred tax liabilities in accounting and offers proposals aimed at resolving these challenges. Additionally, relevant suggestions are made for presenting current liabilities in a separate line in financial statements when they significantly affect indicators that reflect the financial condition of the company and are important for investor decision-making.

Key words: Liability, current liabilities, tax liabilities, deferred tax liabilities, current part of long-term liabilities.

Kirish

Moliya-xo’jalik faoliyatida hisob tizimi muhim axamiyatga ega bo’lib, u aksiyadorlik jamiyatlarining xo’jalik operasiyalarini aniq va tizimli ravishda qayd etish, ularga oid axborotlarni turlari bo’yicha tasniflash, umumlashtirish hamda qayta ishlash orqali moliyaviy hisobot shaklida manfaatdor tomonlarga taqdim etishni ta’minlaydi. Bu tizim orqali shakllantirilgan hisobotlar jamiyatning moliyaviy holati va faoliyat natijalarini obyektiv ravishda aks ettiradi.

Moliyaviy hisobotlar faqatgina ichki boshqaruv uchun emas, balki tashqi manfaatdor shaxslar — investorlar, kreditorlar, davlat organlari va boshqa iqtisodiy subyektlar uchun ham muhim axborot manbai hisoblanadi. Ushbu hisobotlar asosida investisiya kiritish, kredit ajratish, hamkorlikni yo’lga qo’yish kabi strategik qarorlar qabul qilinadi. Shu sababli, hisobotlardagi ma’lumotlar to’liq, ishonchli va taqqoslanadigan bo’lishi shart. Ayniqsa, soliq majburiyatlarini hisobga olish juda muhim hisoblanadi, chunki u nafaqat davlat bilan munosabatlarni tartibga soladi, balki jamiyatning moliyaviy barqarorligi va qonuniy faoliyatini ta’minlashda ham hal qiluvchi rol o’ynaydi.

Milliy hisob tizimida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining (MHXS) joriy etilishi mazkur sohadagi hisobotlarni global talablarga muvofiq ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu esa, aksiyadorlik jamiyatlarining hisobotlari xalqaro investorlar va moliya institutlari uchun ham tushunarli va ishonchli bo’lishini ta’minlaydi. Shu tariqa, milliy iqtisodiyotning ochiqligi va investisiyaviy jozibadorligi oshadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo’jalik subyektlarida majburiyatlar hisobining nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o’rganish doimo iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo’lib kelgan. Jumladan, mazkur masalaning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari xorijlik olimlardan X.Anderson, B.Nidlz, D.Kolduell, T.Drujilovskaya, J.Kommons, D.Lugovskiy, Yu.Abrosimova, O.Plotnikova, M.Pyatov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan[30].

[30]Андерсон Х., Нидлз Б., Колдуэлл Д (2002). Принципы бухгалтерского учета. / пер.с анг. А.В.Чмеля, Д.Н.Исламгулова под. ред. проф. Я.В.Соколова. – М.: Финансы и статистика, – 495 с.; Дружиловская Т.Ю. Учет обязательств организаций: проблемы и пути решения // Бухгалтерский учет в издательстве и полиграфии. 2016. – 341 с.; Коммонс Ж.Р. Правовые основания капитализма. Нью-Йорк 1924 г. – 385 с.; Луговский Д.В., Абросимова Ю.А. Финансовые обязательства как элемент финансовой отчетности: вопросы классификации и оценки // Международный бухгалтерский учет. 2014. – 115 с.; Плотникова О.В. Теория

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.Ibragimov va A.Karimovlar ishlab chiqarish korxonalarida majburiyatlar hisobi, S.Tashnazarov va N.Rizayevlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida majburiyatlar hisobi, B.Isroilov, Z.Qurbanov va K.Hotamovlar soliq majburiyatlar hisobi bo’yicha tadqiq qilganlar[31].

A.Tuychiyevning ilmiy ishlarida asosan, majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy metodologik muammolari tadqiq qilingan va xulosalar shakllantirilgan. F.Ochilov majburiyatlarning yuzaga kelishi, tan olish mezonlari va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalarini o’rgangan holda majburiyatlarni baholash nuqtai nazaridan xalqaro tajribaga asoslanib, ularni aniq va noaniq majburiyatlarga ajratishni taklif etgan.

Buxgalteriya hisobi amaliyotida majburiyatlar hisobini tashkil qilish moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish davrida axborotni aniq, shaffof va ishonchli ta’minlanishiga to’liq erishilmaganligi, jumladan, majburiyatlar hisobini yuritish yuzasidan mavjud muammoning ayrim jihatlariga buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga asoslangan holda hal etish bilan bog’liq masalalar bo’yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi mazkur mavzuda ilmiy ish olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada majburiyatlar, jumladan, aksiyadorlik jamiyatining joriy va uzoq muddatli majburiyatlarini hisob va hisobotda aks ettirilishini o’rganishda ilmiy abstraksiya, monografik kuzatish, taqqoslash kabi usullardan foydalanilib, xulosalar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar

Yuqoridagi mualliflarning tadqiqotlari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligini ta’kidlagan xolda, yangi O’zbekiston iqtisodiyotida faoliyat turlari va ulardagi xo’jalik jarayonlarining zamonaviy tus olishi sharoitida majburiyatlar turlari bo’yicha hisob yuritishni soddalashtirish bo’yicha qilinishi lozim bo’lgan ishlar xamon dolzarbligini yo’qotmagan deb hisoblaymiz. Jumladan, ayrim aksiyadorlik jamiyatlari hisobot ma’lumotlaridan korxonaning soliq majburiyatlari to’g’risida aniq, to’liq va ishonchli axborotni olish imkonsiz. Korxona hisobotiga tushuntirishda esa, soliq majburiyatlarida mazkur keskin o’zgarishlar to’g’risida axborot yoki izoh taqdim etilmagan.

обязательств в бухгалтерском учете. Бухгалтерский учет и статистика. 2013. – 135 с.; Пятов М.Л. Проблемы бухгалтерского учета обязательств. Автореферат дис. док. экон. наук. 2003. – 38 с.

[31]Ибрагимов А.К. Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби, аудити ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари таннархини аниқлашни такомиллаштириш. Иқт.фан.док. дис. ...автореф. – Тошкент, 2002. – 42 б.; Исроилов Б.И. Солиқлар ҳисоби ва таҳлили: муаммолар ва уларнинг ечимлари. - Т.: «Ўзбекистон», 2006. – 272 б.; Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудит. Монография. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 152 б.; Ташназаров С.Н., Ташназарова Д.С. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. – Самарқанд: СамИСИ, 2018. – 421 б.; Туйчиев А.Ж. Мажбуриятлар ҳисоби ва таҳлилининг назарий-методологик муаммолари. Монография. – Т.: ТДИУ, 2010. – 272 б.; Қурбанов З.Н. Солиқ ҳисоби ва аудитининг назарий ва методологик асослари. Иқт.фан.док. дис. ...автореф. – Тошкент, 2011. – 26 б.; Ҳотамов К.Р. Билвосита солиқлар ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш. Монография. Тошкент, 2016. – 210 б.; Очилов Ф.Ш. Мажбуриятлар ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. И.ф.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. -Т.:2022. – 26.

Urganch yog’-moy aksiyadorlik jamiyati hisobotlarini o’rganar ekanmiz, ma’lumotlaridan ko’rdikki, 2020-2024 yillarda kechiktirilgan soliq majburiyatlarining uzoq muddatli qismi va joriy soliq qarzi joriy majburiyatlar tarkibida hisobga olingan (1-jadval).

1-jadval

Urganch yog’-moy aksiyadorlik jamiyatida majburiyatlarni hisobotda aks ettirilishi (2020-2024 yillar, ming so’mda)[32]

t/r	Ko’rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
1.	**Uzoq muddatli majburiyatlar**	**0**	**0**	**5 046 853**	**0**	**0**
1.1.	Kredit va qarzlar	0	0	5 046 853	0	0
2.	**Joriy majburiyatlar**	**53036522**	**86863273**	**80173887**	**16843156**	**14520953**
2.1.	Kredit va qarz	29500000	28000000	39444444	4069529	3840387
2.2.	Kechiktirilgan majburiyatlar	429403	332872	305983	1234104	1566005
2.3.	Olingan avanslar	10949279	17355383	2166549	696891	33073
2.4.	Soliq majburiyatlari	984587	3253148	826203	2386980	4087447
2.5.	Boshqa majburiyatlar	327542	2595378	26088830	3114509	1530185
Jami majburiyatlar		**53036522**	**86863273**	**85220740**	**16843156**	**14520953**

Hisobot ma’lumotlaridan ko’rishimiz mumkinki, kechiktirilgan majburiyatlar – bu kechiktirilgan soliq majburiyatlaridir. Aslida, 12-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga ko’ra, kechiktirilgan soliq majburiyatlari uzoq muddatli majburiyat sifatida hisobga olinishi kerak. Albatta, bunday hisob ham munozarali. Umuman olganda, hisobot ma’lumotlaridan korxonaning soliq majburiyatlari to’g’risida aniq, to’liq va ishonchli axborotni olish imkonsiz. Korxona hisobotiga tushuntirishda esa, soliq majburiyatlarida mazkur keskin o’zgarishlar to’g’risida axborot yoki izoh taqdim etilmagan.

Boshqa bir aynan shu sohada faoliyat olib boradigan aksiyadorlik jamiyati, ya’ni, Kattaqo’rg’on yog’-moy aksiyadorlik jamiyati hisobotini ko’radigan bo’lsak, unda ham soliq majburiyatlari joriy va qisqa muddatli kechiktirilgan majburiyat sifatida keltirilgan (2-jadval).

[32]Урганч ёғ-мой АЖнинг расмий эълон қилинган ҳисоботи асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

2-jadval

Kattaqo’rg’on yog’-moy aksiyadorlik jamiyatida majburiyatlarni hisobotda aks ettirilishi (2020-2024 yillar, ming so’mda)[33]

t/r	Ko’rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
1.	**Uzoq muddatli majburiyatlar**	**1396901**	**1444999**	**1 496 705**	**1 645 144**	**1 645 144**
1.1.	Uzoq muddatli qarzlar	1396901	1444999	1 496 705	1 645 144	1 645 144
2.	**Joriy majburiyatlar**	**42023108**	**18544904**	**23 203 261**	**21 413 030**	**24679313**
2.1.	Kredit va qarzlar	32452 008	13 013 733	0	0	0
2.2.	Olingan avanslar	1 664 225	197 304	141 893	142 949	81 409
2.3.	Joriy soliq majburiyatlari	498386	495112	2013292	897309	2543385
2.4.	Ta’sischilarga qarz	1 116 519	1 026 329	962 569	962 569	727064
2.5.	Xodimlarga to’lanadigan to’lovlar	851 659	1 153 944	3 411 802	3 126 260	4944470
2.6.	Boshqa joriy majburiyatlar	424657	769570	14 749 693	14 608 045	14634535
Jami majburiyatlar		**43420009**	**19989903**	**24 699 966**	**23 058 174**	**26324457**

Kattaqo’rg’on yog’-moy AJ ma’lumotlarini tahlil qilar ekanmiz, majburiyatlarga oid samarali qarorlar qabul qilishga kerak bo’ladigan axborotga e’tibor qaratdik. Ya’ni, majburiyatlarning tarkibi aniq ifodalanmagan holat mavjud. 2022-2024 yillarda boshqa joriy majburiyatlar jami joriy majburiyatlarning 55-63 foizni tashkil etgan. Bu esa, boshqa majburiyatlar tarkibini aniqlashtirish, hisob va hisobotda tarkibi bo’yicha aks ettirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chunki, majburiyatlarning katta qismi tarkiban aniq ifodalanmasligi majburiyatlarga doir iqtisodiy boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini cheklaydi.

O’rganishlar asosida investorlarning qarorlari uchun ahamiyatliligi va moliyaviy holatni ifodalovchi ko’rsatkichlarning o’zgarishiga 0,5 foizdan yuqori ta’siri bo’lganda joriy majburiyatlar tarkibini alohida satrda ko’rsatish taklif etildi.

Urganch yog’-moy aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida shakllantirilgan moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan ko’rishimiz mumkinki, boshqa uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarning 2021 va 2022 yillarda bir xil summada ekanligi

[33]Каттақўрғон ёғ-мой акциядорлик жамиятининг расмий эълон қилинган ҳисоботи асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

tushunarsiz. Chunki, uzoq muddatli qarzlar yillar kesimida joriy majburiyatlarga o’tkazilgan holda so’ndirilishi yoki umuman olganda o’zgarishga ega bo’lishi kerak edi.

Shu bilan birga soliq majburiyatlari ikki qismga bo’lib ko’rsatilgan bo’lib, 2022 yilda foyda solig’i ko’rsatilmagan, ya’ni, nol so’mga teng bo’lsa, 2021 yilda esa, foyda solig’i summasi 987,8 million so’mni tashkil etgan. Mos davrda esa, boshqa soliqlar summasi bir milliard bir yuz ikki million so’mdan 286 million so’mgacha kamaygan[34]. Albatta, bunday keskin o’zgarishlar moliyaviy hisobot uchun ahamiyatli bo’lib, investorlardan qo’shimcha ma’lumotlardan foydalanish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida hukumat tomonidan 1990 yillar oxirida tadbirkorlik faoliyatiga eng sodda usulda ro‘yxatdan o‘tish va faoliyatni huquqiy jihatdan ta’minlash uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi institui joriy etilib u asosida yakka tartibdagi tadbirkorlik uchun “qat’iy belgilangan soliq” mexanizmi amaliyotga kiritildi. Bu maxsus rejim asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri umumiy daromad asosida yoki faoliyat turi va joyiga bog‘liq holda belgilangan miqdordagi soliqni to‘lashni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv xususan kam daromadli yakka faoliyat egalari uchun qulay va samarali yechim sifatida qaraldi.

Individual tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish mexanizmi rivojlanishining ikkinchi bosqichi 1998–2007-yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu davrda O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlik (YaTT) faoliyatining huquqiy, soliq va institutsional asoslari bosqichma-bosqich shakllantirilgan davr bo‘lib, mazkur faoliyat turini amalga oshirish uchun qonunchilikda zarur kafolatlar va ma’muriy yengilliklar joriy etildi. Bu jarayonda asosiy me’yoriy asos sifatida 2000 yilda qabul qilingan, keyinchalik bir necha bor o‘zgartirish va qo‘shimchalar qilingan **“**Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida**”**gi Qonun alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur qonun yakka tartibda faoliyat yurituvchi shaxslarning ham tadbirkorlik sub’ekti sifatida teng huquqdagi ishtirokini belgilab, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishiga to‘sqinlik qilmaslik, davlat organlari tomonidan asossiz aralashuvlarga yo‘l qo‘ymaslik, litsenziyalash va ro‘yxatdan o‘tkazishda shaffoflik va osonlashtirilgan tartibni ta’minlash kabi kafolatlarini mustahkamladi.

Umumlashtirib aytganda, 1998 - 2007 yillar YaTT faoliyatini soliqqa tortishda QBS asosiy mexanizm bo‘lib xizmat qildi. Bu tizim ma’muriy jihatdan sodda hisob kitoblarga asoslangan bo‘lsada, biroq uning real daromaddan uzoqligi, differensatsiyaning adolatlizligi va raqamlashtirish darajasining pastligi tufayli uning samaradorligi amaliyotda to‘laligicha o‘z aksini topmadi. Shu bois, keyingi davrlarda YaTT faoliyatini soliqqa tortishning yanada optimallashgan va raqamlashtirilgan shakllarini joriy etish zarurati paydo bo‘ldi.

Bu jarayon 2008 yildan soliq kodeksining yangi tahriri joriy qilinishi bilan YaTTni soliqqa tortish mexanizmi rivojlanishining uchinchi bosqichi boshlandi. 2008 - 2020 yillar davomida O‘zbekistonda YaTTni soliqqa tortish tartibi sezilarli darajada takomillashtirildi va shaffoflashtirildi. Ushbu davrda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar orqali YaTT faoliyatini soliqqa tortishning aniq mexanizmlari shakllantirildi, ularning huquqiy maqomi to‘g‘risidagi tushuncha mustahkamlandi va davlat soliq siyosatida bu faoliyat

shaklining o‘rni kuchaytirildi. Xususan, yangi tahrirdagi soliq qonunchiligida yakka tartibdagi tadbirkorning huquqiy maqomi, soliq ob’ektlari, to‘lanadigan soliqlar turlari, hisob-kitob tartiblari, soliq hisobotlari va nazorat usullari aniqroq belgilab berildi.

Xususan, soliq kodeksining 18-moddasida yakka tartibdagi tadbirkorning huquqiy tushunchasi aniq ta’riflandi. Unga ko‘ra, yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmasdan, o‘zining shaxsiy mol-mulki asosida amalga oshiradigan jismoniy shaxs hisoblanadi. Bu tushuncha nafaqat huquqiy maqomni aniqlashga, balki soliqqa tortishda aniqligi va muayyanlikni ta’minlashga xizmat qildi.

Xodimlarni yollagan YaTT uchun belgilangan soliq majburiyatlari alohida tartibda keltirilgan. Bunday tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliqdan tashqari, har bir yollangan xodim uchun yagona ijtimoiy to‘lovni ham amalga oshirish majburiyati yuklangan.

Ushbu davrlarda soliqqa tortish mexanizmining YaTTga ta’siri baholashda ularning soni va soliq tushumi borasidagi ko‘rsatkichlarni tahlil qiqlish muhim hisoblanadi.

2018–2020 yillar davomida yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) sonining hududlar kesimidagi dinamikasi, O‘zbekistondagi soliq siyosati va regulyator muhitdagi o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mazkur davrda amalga oshirilgan islohotlar natijalari bundan yaqqol namoyon bo‘ladi. Umumiy respublika kesimida 2018 yilda 221 997 nafar YaTT faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2019 yilda bu ko‘rsatkich 230 750 nafargacha o‘sgan, ammo 2020 yilga kelib 219 112 nafarga pasaygan. Bu pasayish, birinchi navbatda, 2020 yildagi pandemiya sharoitidagi iqtisodiy faollikning susayishi va ayrim faoliyat turlariga vaqtinchalik to‘xtatishlar bilan bog‘liq.

Hududlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, Samarqand viloyati YaTTlar soni bo‘yicha barqaror o‘sishni namoyon etgan — 2018-yilda 24 607 nafardan 2020-yilga kelib 28 729 nafargacha ko‘paygan. Bu holat mazkur hududda chakana savdo va turizmga xizmat ko‘rsatish sohalarida tadbirkorlik muhitining faol rivojlanishi bilan izohlanadi. Shunga o‘xshash tarzda, Jizzax, Qashqadaryo va Toshkent viloyatida ham YaTTlar soni 2020-yilda nisbatan yuqori darajada saqlangan, bu esa hududiy islohotlar, infratuzilmaviy rivojlanish va faoliyatni rasmiylashtirish jarayonlarining samarasi sifatida ko‘riladi.

Aksincha, Navoiy va Buxoro viloyatlarida YaTTlar soni sezilarli darajada kamaygan. Masalan, Navoiyda 2018-yilda 8 887 nafar YaTT bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 5 522 nafarga tushgan. Buxoroda esa 19 815 nafardan 15 940 nafargacha kamayish kuzatilgan. Bu hududlarda ko‘proq xom ashyo va sanoat sohalari ustun bo‘lib, YaTT faoliyatiga nisbatan cheklangan talab bo‘lishi, shuningdek, xususiy xizmatlar sektorida raqobatsizlik yoki infratuzilmaning yetarli emasligi ta’sir etgan bo‘lishi mumkin.



2-rasm. Hududlar kesimida YaTTlar sonining o‘zgarish dinamikasi[37]

Mazkur yillarda amal qilgan soliq siyosatini tahlil qilar ekanmiz, 2019 yildan boshlab O‘zbekistonda soliq islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani ko‘zga tashlanadi. Jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha soddalashtirilgan hisob-kitob tizimi joriy qilingan va aynan shu mexanizm YaTTlar sonini 2019 yilda vaqtinchalik oshishiga turtki bo‘lgan. Biroq, 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi ta’sirida karantin cheklovlari, iste’mol bozoridagi pasayish va harakat erkinligining cheklanishi natijasida ko‘plab YaTTlar faoliyatini vaqtincha yoki to‘liq to‘xtatgan. Shuningdek, davlat tomonidan qator soliq imtiyozlari taqdim etilgan bo‘lsa-da, bu imtiyozlar faqat qisqa muddatli naf keltirgan, uzoq muddatli barqaror faoliyatni ta’minlash uchun yetarli bo‘lmagan.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, YaTTlar sonidagi o‘zgarishlar faqat iqtisodiy sharoit bilan emas, balki soliq qonunchiligidagi institutsional mexanizmlar, qonuniy rag‘batlar, moliyaviy resurslarga yetishim, faoliyatni rasmiylashtirish jarayonidagi yengilliklar bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur ma’lumotlar YaTTlarning rivojlanishini hududiy, institutsional va makroiqtisodiy jihatdan tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi.

Individual tadbirkorlikni soliqqa tortish mexanizmi rivojlanishining uchinchi bosqichida amalga oshirilgan muhim islohotlardan yana biri sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan

[37] Muallif tomonidan shakllantirilgan

faoliyat turlari ro‘yxatining tasdiqlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qaror orqali o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning iqtisodiy faolligini huquqiy asosda tartibga solish, ularning faoliyat turlarini belgilash va soliqqa tortish mexanizmlarini institutsionallashtirish imkoni yaratildi. Mazkur ro‘yxatning 2011 va 2025 yillardagi tahrirlari o‘rtasidagi farqlar ushbu sohadagi islohotlarning evolyusion xususiyatini yaqqol namoyon etadi.



3-rasm. YaTT shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlarining yillar kesimida o‘zgarishi[38]

2011-yildagi ro‘yxat avvalgi yillarda shakllangan ma’muriy yondashuvlarni saqlab qolgan bo‘lib, u asocan an’anaviy chakana savdo, hunarmandchilik, maishiy xizmatlar va mahalliy xususiyatga ega faoliyat turlarini qamrab olgan edi. Shu bilan birga, ushbu ro‘yxatda faoliyat turlari soni nisbatan cheklangan bo‘lib (66 ta), zamonaviy xizmatlar, raqamlashtirilgan ish turlari, axborot texnologiyalari yoki ijtimoiy xizmatlarni kam qamrab olingan. 2015-2020 yillarda YaTT faoliyat turlarida kengaytirilib jami 86 ta faoliyat turlari bilan shug‘ullanish huquqi berildi.

Ushbu davrlarda O‘zbekistonda faoliyat yuritgan YaTTlar qonunchilikda belgilangan faoliyat turlari statistikasini tahlil qiladigan bo‘lsak quyidagi holatni kuzatish mumkin (1-jadval).

[38] Muallif tomonidan shakllantirilgan

1-jadval

O‘zbekistonda YaTTlar tomonidan shug‘ullangan faoliyat turlari[39]

Faoliyat turlari	2018	2019	2020
Jami	221 997	230 750	219 112
Chakana savdo	100 351	108 385	107 639
Hunarmandchilik	22 282	25 393	31 629
Xalq iste’moli mollarini ishlab chiqarish	65 894	55 763	41 348
Maishiy xizmat faoliyat turlari	99 83	11 195	6 914
Boshqa faoliyat turlari	23 487	30 014	31 582
Ahorli uchun turar va noturar joylarini ta’mirlash xizmatlari	302	182	157
Tranport sohasida faoliyat turlari	2 542	2 227	2 127

2018–2020 yillar davomida O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) tomonidan amalga oshirilgan faoliyat turlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar tahlili mamlakatdagi kichik biznes sektoridagi tarkibiy o‘zgarishlar va soliq siyosati ta’sirini ochiq namoyon etadi. Umumiy YaTTlar soni 2018 yilda 221 997 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilda bu ko‘rsatkich 230 750 nafargacha oshgan va 2020 yilda esa 219 112 nafarga kamaygan. Bu dinamika, birinchi navbatda, davlat tomonidan 2019 yilda amalga oshirilgan soliq islohotlari natijasidagi rasmiylashtirish darajasining oshishi va 2020 yildagi pandemiya ta’sirida faoliyatning qisqarishi bilan bog‘liqdir.

Chakana savdo sohasi doimo yetakchi faoliyat turi bo‘lib qolgan. 2018 yilda bu sohada 100 351 nafar YaTT faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2019 yilda bu raqam 108 385 nafargacha oshgan. Bu o‘sish 2019 yildagi soliq tizimidagi yengilliklar va chakana savdo uchun qat’iy belgilangan soliqlarning sayoqlashtirilishi bilan bog‘liq. 2020 yilda esa bu ko‘rsatkich 107 639 nafarga bir oz pasaygan bo‘lsa-da, soha umumiy YaTT faoliyatida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib qolgan. Bu, ayniqsa, sanitar cheklovlar kuchaytirilgan sharoitda mahalliy mahsulotlarga bo‘lgan talab va mikroishlab chiqarishning ichki bozorda saqlanib qolishi bilan izohlanadi.

Hunarmandchilik faoliyatidagi YaTTlar soni esa 2018 yilda 22 282 nafar bo‘lib, 2020 yilga kelib 31 629 nafargacha o‘sgan. Bu o‘sish “Hunarmand” uyushmasi faoliyati faollashtirilishi, litsenziyalash tartibining soddalashtirilishi va ushbu sohadagi sub’ektlarga belgilangan soliq imtiyozlari bilan bog‘liq. Jumladan, ushbu sohada faoliyat yurituvchi pensiya yoshidagi shaxslar va “Usta-shogird” tizimidagi ishtirokchilar uchun maxsus yengilliklar taqdim etilgani bu o‘sishga turtki bo‘lgan.

Xalq iste’moli mollarini ishlab chiqarish sohasida esa aksincha, YaTTlar soni 2018 yilda 65 894 nafardan 2020 yilda 41 348 nafargacha kamaygan. Bu holat sanoatlashuv darajasi past bo‘lgan kichik ishlab chiqaruvchilarning raqobatga dosh bermasligi, texnologik bazaning yetarli emasligi hamda 2020

[39] Muallif tomonidan shakllantirilgan

yilda xom ashyo yetishmovchiligi va logistika bilan bog‘liq muammolarning kuchayishi orqali izohlanadi. Bundan tashqari, ushbu faoliyat turi uchun maxsus soliq rejimlari va investitsiyaviy rag‘batlar yetarli darajada emasligi ham turg‘unlikka olib kelgan.

Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida YaTTlar soni 2018 yilda 9 983 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilda 11 195 nafargacha ko‘paygan, biroq 2020 yilda 6 914 nafargacha kamaygan. Bu xizmatlar sektoriga pandemiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’siri bo‘lib, to‘y marosimlari, sartaroshxona, ustaxonalar va boshqa ommaviy xizmatlarga bo‘lgan talab vaqtinchalik pasaygan. Shu bois, faoliyat vaqtincha to‘xtatilgan, lekin soliq hisob-kitoblari shu davrda ham ma’lum miqdorda amalga oshirilgan.

Boshqa faoliyat turlari guruhiga kiruvchi YaTTlar soni 2018 yilda 23 487 nafardan 2020 yilda 31 582 nafargacha ko‘paygan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi faoliyatning diversifikatsiyalanayotgani va ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida umumiy toifalar ostida ko‘proq sub’ektlarni qamrab olish tendensiyasi borligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda davlat tomonidan YaTT 2025 yilda tasdiqlangan ro‘yxat esa iqtisodiyotdagi tizimli o‘zgarishlar, mehnat bozoridagi raqamlashtirish jarayonlari va aholining turmush tarzidagi yangilanishlar bilan uyg‘un holda tuzilgan. Bu ro‘yxatda faoliyat turlari soni sezilarli darajada kengaytirilgan (jami 91 ta), xususan, raqamli xizmatlar, dizayn, IT, kadstr, patent, ijtimoiy xizmatlar, davlat-xususiy sheriklik asosidagi ta’lim faoliyati, qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq maxsus xizmatlar va boshqa sohalar ham qamrab olingan. Bu o‘zgarishlar nazariy jihatdan mehnat bozorida formal faoliyatni kengaytirish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va kasbiy ixtisoslashuvni rag‘batlantirish maqsadlariga xizmat qiladi. Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, ro‘yxatda aks etgan yangiliklar zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sektori ulushining oshib borayotgani va inson kapitaliga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy samaradorlikni ta’minlash uchun xizmat ko‘rsatishning yangi turlari - repetitorlik, tarjima, bolalar va keksalarga qarash, patronaj, masofaviy xizmat ko‘rsatish kabi faoliyatlar ham rasmiylashtirilgan.

Amaliy jihatdan 2025-yildagi ro‘yxat tadbirkorlar uchun qonuniy faoliyat doirasini aniqlash, shu orqali soliq hisobini shaffof va sodda usulda yuritish imkonini yaratadi. Bu esa bir tomondan soliq ma’murchiligining samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan fuqarolarning faollik darajasini oshirish, daromadlarni rasmiylashtirish va ijtimoiy himoya tizimiga qo‘shilishga rag‘batlantiradi. Huquqiy jihatdan esa, ro‘yxatning aniq tuzilishi davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarning ochiq va shaffof asosda yuritilishini ta’minlashda xizmat qiladi.

Yangi Soliq kodeksiga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliqqa tortish tartibi bir nechta asosiy mexanizmlar orqali amalga oshirilishi belgilandi: deklaratsiya asosida daromad solig‘i, qat’iy belgilangan daromad soliq, aylanmadan olinadigan soliq va ayrim hollarda umumiy tartibdagi

daromad va ijtimoiy soliqlarni to‘lash majburiyati. Shu bilan birga, raqamli hisob-kitob, onlayn nazorat-kassa mashinalari (ONKM), elektron hisobot tizimlari va fiskal hisobotlar orqali soliq ma’murchiligining raqamlashuvi ta’minlandi.

Bundan tashqari, umumiy soliq to‘lovi rejimi bilan YaTT rejimi o‘rtasidagi farqlar ayrim hollarda soliq adolati nuqtai nazaridan asoslanmagan holatlarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, ayrim bir xizmat turini ko‘rsatayotgan YaTT uchun soliq yuki shu xizmatni yuridik shaxs sifatida ko‘rsatgan sub’ekt soliq yukining bir necha barobari ko‘p bo‘lib qolish holatlari kuzatildi. Bu esa soliq tizimining neytralligiga putr yetkazib sub’ektlar faoliyat shaklini optimallashtirish, yoki soliqdan qochish holatlarini ko‘payishiga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan, YaTTni soliqqa tortish mexanizmini yanada takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunda birinchidan, soliqqa tortishi tartibini tanlash uchun (yoki majburiy o‘tish) uchun belgilangan yillik jami daromad chegarasini va faoliyat turlari bo‘yicha soliq tsmavkalarini bozor sharoiti, ishchi kuchiga talab, daromad salohiyati va ijtimoiy ahamiyat asosida qayta ko‘rib chiqish zarur. Ikkinchidan, soliq tizimida YaTT va boshqa sub’ektlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, soliq adolatini ta’minlash uchun soliq stavkalari, imtiyozlar va majburiyatlarni qayta ko‘rib chiqish zarur. Uchinchidan, ijtimoiy kafolatlar tizimini yanada kengaytirish va soliq to‘lovchi sifatidagi YaTT faoliyatining nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash maqsadga muvofiq.

Xulosa

O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini soliqqa tortish mexanizmi bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan bo‘lib, dastlabki yillardagi og‘ir soliq yuki va ma’muriy to‘siqlar tadbirkorlik rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Keyingi bosqichlarda soddalashtirilgan soliq rejimlari va patent tizimi joriy etilishi YaTTlarning rasmiy iqtisodiyotga integratsiyasini kuchaytirgan hamda byudjet tushumlari barqarorligini ta’minlagan. Hozirgi davrda raqamlashtirilgan soliq ma’murchiligi, onlayn hisobot tizimlari va shaffof nazorat vositalari YaTTlar uchun qulaylik yaratmoqda, shu bilan birga davlatning moliyaviy intizomi va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samarali soliq mexanizmi YaTTlar faolligini rag‘batlantirish, aholi bandligini oshirish va norasmiy iqtisodiyot ulushini kamaytirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, kelgusida milliy soliq siyosatini takomillashtirishda soddalik, adolat, raqamli yechimlar va ijtimoiy kafolatlarni uyg‘unlashtirish ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduraxmonov, Q. (2020). Soliq tizimini takomillashtirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3(2), 45–55.

2. Alm, J., & Martinez-Vazquez, J. (2007). *Taxing the hard-to-tax: Lessons from theory and practice*. Amsterdam: Elsevier. https://doi.org/10.1016/S1574-0048(06)01007-1

3. Karimov, S. (2021). Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini soliq mexanizmlari orqali boshqarishning nazariy asoslari. Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, 4(1), 77–89.

4. World Bank. (2022). *World Development Report 2022: Finance for an equitable recovery*. Washington, DC: World Bank. https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1731-5

5. Yusupov, U. (2021). Tax reforms and small business development in Uzbekistan. Central Asian Economic Review, 23(2), 45–58.

6. O‘zbekiston Respublikasining 15.02.1991 yildagi “O‘zbekiston respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida” 227-XII-son Qonuni (o‘z kuchini yo‘qotgan)

7. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (sharhlar: 1998, 2007, 2020 yillar)

MEHNAT IQTISODIYOTI
VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117
https://laboreconomics.uz/

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASIDA XOTIN-QIZLAR BARQAROR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi
TDIU, Stajyor-tadqiqotchi
e-mail: shoxistaxoliyorova@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3444-0960

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a207

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligini oshirish masalalari yoritilgan. Mavzuga oid milliy va xalqaro tajribalar o‘rganilib, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari, ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar hamda mavjud muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, xotin-qizlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va barqaror bandlikni ta’minlashning istiqbolli mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, barqaror ish bilan bandlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ayollar tadbirkorligi, iqtisodiy faollik, ijtimoiy kafolatlar, barqaror rivojlanish.

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН В МАЛОМ БИЗНЕСЕ И ЧАСТНОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ

Холиёрова Шохиста Кахрамон кизи
ТГЭУ, стажер-исследователь

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы повышения устойчивой занятости женщин в малом бизнесе и частном предпринимательстве. Изучен национальный и международный опыт по данной теме, проанализированы приоритетные направления поддержки женского предпринимательства, социально-экономические гарантии и существующие проблемы. Также разработаны перспективные механизмы повышения экономической активности женщин, диверсификации источников их доходов и обеспечения стабильной занятости путем широкого вовлечения их в малый бизнес и частное предпринимательство. По результатам исследования разработаны предложения и рекомендации по развитию женского предпринимательства.

Ключевые слова: женщины, устойчивая занятость, малый бизнес, частное предпринимательство, женское предпринимательство, экономическая активность, социальные гарантии, устойчивое развитие.

PROMISING DIRECTIONS FOR INCREASING THE SUSTAINABLE EMPLOYMENT OF WOMEN IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

Kholiyorova Shokhista Kahramon kizi
TSUE, Researcher

Abstract. This article discusses the issues of increasing the stable employment of women in small business and private entrepreneurship. National and international experiences on the topic are studied, priority areas of support for women's entrepreneurship, socio-economic guarantees and existing problems are analyzed. Also, promising mechanisms have been developed to increase the economic activity of women, diversify their sources of income and ensure stable employment by widely involving them in small business and private entrepreneurship. Based on the results of the study, proposals and recommendations have been developed to develop women's entrepreneurship.

Keywords: women, sustainable employment, small business, private entrepreneurship, women's entrepreneurship, economic activity, social guarantees, sustainable development.

Kirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun o‘ziga xos “drayver” bo‘lib, bandlikni kengaytirish, aholining daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, xotin-qizlarni mazkur sohaga keng jalb etish orqali ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, oilaviy farovonlikni oshirish hamda ijtimoiy faolligini yuksaltirish imkoniyati yaratiladi. Shu boisdan ham mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning barqaror ish bilan bandligini ta’minlash uchun keng ko‘lamli davlat dasturlari, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilmoqda.

Keyingi yillarda qabul qilingan “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash” strategiyasi, shuningdek, Prezidentning farmon va qarorlari asosida xotin-qizlarga imtiyozli kreditlar ajratish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, kasbiy qayta tayyorlash hamda ularni o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishga rag‘batlantirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning natijasi o‘laroq, so‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkor ayollar soni ortib bormoqda.

Shu bilan birga, mavjud muammolar ham yo‘q emas. Jumladan, xotin-qizlarning moliyaviy resurslarga cheklangan darajada kirish imkoniyati, biznes yuritish bo‘yicha yetarli tajribaga ega emasligi, ayrim hududlarda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda faol ishtirok etishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, gender stereotiplari va an’anaviy qarashlar ham ayollar iqtisodiy faolligini cheklab kelayotgan omillar sirasiga kiradi. Shu nuqtayi nazardan, xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligini ta’minlash masalasini faqat ijtimoiy

muammo sifatida emas, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik vazifa sifatida baholash lozim [1].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar faol ishtirok etayotgan kichik biznes korxonalari nafaqat oilaviy daromadlarni oshiradi, balki innovatsion g‘oyalar, boshqaruvdagi samaradorlik va ijtimoiy mas’uliyatni ham ta’minlaydi. Demak, xotin-qizlar bandligini oshirish masalasi keng qamrovli bo‘lib, u nafaqat mehnat bozorini rivojlantirish, balki inson kapitaliga sarmoya kiritish va gender tengligini ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ularning ish bilan bandligini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shuningdek, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi, “Ayollar daftari” tizimi, “Tadbirkor ayollar” uyushmasi faoliyati ayollarning iqtisodiy faolligini rag‘batlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda [2].

Mazkur tadqiqotning maqsadi – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlarini ilmiy-nazariy asoslash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- xotin-qizlarning bandligi va tadbirkorlikdagi ishtiroki bo‘yicha mavjud holatni tahlil qilish;
- me’yoriy-huquqiy bazani o‘rganish va uning samaradorligini baholash;
- xalqaro tajribani o‘rganib, O‘zbekiston sharoitiga mos takliflar ishlab chiqish;
- barqaror bandlikni ta’minlovchi istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning bandligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuv taklif etiladi, bunda iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar uyg‘unlashadi.

Shu bois, mazkur mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, uning ilmiy tadqiqi xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va umuman jamiyatda gender tengligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelgusida bu boradagi strategik yo‘nalishlarni aniqlash esa mamlakatning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy adolat va farovonlikka erishishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligini oshirish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham keng o‘rganilgan ilmiy-ijodiy yo‘nalishlardan biridir. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, barqaror bandlik

masalasi iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik, gender tengligi va inson kapitalini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarda, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda ayollar bandligi barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri sifatida talqin etiladi. XMTning “Decent Work” (Munozzib mehnat) konsepsiyasida ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash va mehnat bozorida gender diskriminatsiyasini bartaraf etish barqaror bandlikning ajralmas elementi sifatida belgilangan. BMTning 2030 yilga mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham gender tengligi (5-maqsad) va munosib mehnat (8-maqsad) bir-biri bilan chambarchas bog‘langan ustuvor yo‘nalishlar sifatida e’tirof etilgan [3].

Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) tadqiqotlarida kichik biznesda ayollarning faol ishtiroki milliy iqtisodiyotning o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Ularning hisob-kitoblariga ko‘ra, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish orqali mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) o‘sish sur’atlarini oshirish mumkin. Masalan, Jahon banki mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ayollar rahbarlik qilayotgan korxonalar innovatsion g‘oyalarni tezroq joriy qilishi va ijtimoiy mas’uliyatni yuqori darajada namoyon etishi qayd etilgan [4].

Mintaqaviy tadqiqotlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, Markaziy Osiyo mamlakatlarida, jumladan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda ham ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturlari faoliyat yuritmoqda. Qozog‘iston olimlari (A. Baxtiyorova, N. Karimova) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ayollar bandligini oshirish uchun kichik biznesda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Qirg‘iziston tajribasida esa ayollarning uy sharoitida oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanishini qo‘llab-quvvatlash ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishda samarali yo‘l sifatida baholangan [5].

O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mahalliy olimlardan X. Tursunov, M. Jo‘rayev va N. G‘ulomovlarning asarlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni, bandlikni ta’minlashdagi ahamiyati hamda xotin-qizlar ishtirokini kengaytirish masalalari yoritilgan. Ularning ilmiy xulosalariga ko‘ra, ayollarning tadbirkorlikdagi faolligini oshirish uchun kredit-moliya infratuzilmasini rivojlantirish, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish zarur [6].

So‘nggi yillarda “Ayollar daftari”, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi hamda “Tadbirkor ayollar” uyushmasi faoliyati bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy-

amaliy tadqiqotlar ham dolzarb natijalarni ko‘rsatmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi ilmiy markaz mutaxassislari tomonidan olib borilgan tahlillarda ayollarni tadbirkorlikka jalb qilish orqali 2024–2025 yillarda mamlakat bo‘yicha 300 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyati mavjudligi ta’kidlangan [7].

Shuningdek, ayrim xorijiy olimlar (R. Boserup, E. Blumberg) asarlarida ayollar mehnati ko‘proq ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda, demografik jarayonlarni boshqarishda va oilaviy iqtisodiyot samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. Shu jihatdan, xotin-qizlarning bandligini ta’minlashni faqat mehnat bozori masalasi sifatida emas, balki kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida o‘rganish ilmiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin: birinchidan, ayollar bandligini oshirish bo‘yicha xalqaro tajribada kichik biznesni rivojlantirish, kredit va grant dasturlarini kengaytirish hamda huquqiy kafolatlarni kuchaytirish muhim rol o‘ynaydi. Ikkinchidan, milliy miqyosda amalga oshirilayotgan dasturlar samaradorligini oshirish uchun hududiy xususiyatlarni inobatga olish, kasbiy qayta tayyorlash va ta’lim tizimini takomillashtirish lozim. Uchinchidan, xotin-qizlarning tadbirkorlikdagi faolligi nafaqat ularning barqaror ish bilan bandligini ta’minlaydi, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida barqaror rivojlanishga xizmat qiladi [8].

Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar sharhi shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlar bandligini oshirish istiqbollari nafaqat iqtisodiy resurslarni safarbar etish, balki gender tengligi, ijtimoiy adolat va inson kapitalini rivojlantirishning muhim mexanizmi sifatida ko‘rilishi lozim. Bu esa keyingi tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligini oshirish masalasi tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Tahlilda taqqoslash, statistik ma’lumotlarni qayta ishlash, xalqaro tajribani o‘rganish hamda empirik kuzatuv usullari qo‘llanildi. Shuningdek, iqtisodiy tahlil va induktiv-deduktiv usullar yordamida ilmiy xulosalar shakllantirildi. Normativ-huquqiy hujjatlar hamda davlat dasturlari mazmun-mohiyati chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligini oshirish masalasi O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining

dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mavjud holatni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda ayollarning iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan.

Statistik ma’lumotlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2024-yil yakunlariga ko‘ra, respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda faoliyat yuritayotgan subyektlarning 30 foizdan ortig‘i xotin-qizlar ulushiga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birga, “Ayollar daftari” tizimi orqali 1 milliondan ziyod ayollarning bandligini ta’minlash bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilmoqda. Davlat dasturlari doirasida xotin-qizlarga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar hajmi yil sayin ortib bormoqda. Masalan, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida 2023-yilda 45 mingdan ortiq ayol tadbirkor kredit mablag‘laridan foydalanib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan [9].

Hududiy kesimda olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, Toshkent shahri, Farg‘ona, Samarqand va Andijon viloyatlarida ayollar tadbirkorligi eng yuqori darajada rivojlanmoqda. Bu hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasi, yengil sanoat, oziq-ovqat ishlab chiqarish hamda oilaviy tadbirkorlik tarmoqlarida xotin-qizlar faol ishtirok etmoqda. Biroq Qoraqalpog‘iston Respublikasi va ayrim chekka hududlarda ayollar bandligini oshirish bo‘yicha imkoniyatlar hali to‘liq ishga solinmagan. Bu, avvalo, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi va infratuzilmaning rivojlanmaganligi bilan bog‘liqdir.

1-jadval

Hududlar bo‘yicha ayollar tadbirkorligi ko‘rsatkichlari [10]

Hududlar	Ayollar tadbirkorlar ulushi (%)	Yangi ish o‘rinlari (ming)	Imtiyozli kreditlardan foydalangan ayollar (ming)
Toshkent shahri	35	45	20
Farg‘ona	32	38	18
Samarqand	30	36	15
Andijon	28	32	12
Qoraqalpog‘iston	18	15	5

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston hududlari kesimida xotin-qizlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi faolligi turlicha darajada shakllangan. Toshkent shahri 35 foizli ulush bilan yetakchilik qilmoqda, bu esa poytaxtda iqtisodiy imkoniyatlarning kengligi, infratuzilmaning rivojlanganligi va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari yuqoriligi bilan izohlanadi. Farg‘ona, Samarqand va Andijon viloyatlarida ham ayollar tadbirkorligi sezilarli darajada rivojlangan bo‘lib, yangi ish o‘rinlari soni mos ravishda 38, 36 va 32 mingni tashkil etmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa bu ko‘rsatkichlar nisbatan past: ayollar tadbirkorlarining ulushi atigi 18 foizni, yangi yaratilgan ish o‘rinlari esa 15 mingni tashkil etadi. Bunga moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi, infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning murakkabligi sabab bo‘lmoqda [11].

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan dasturlar ijobiy natija bermoqda, ammo hududlar o‘rtasida tafovut mavjud. Kelgusida past ko‘rsatkichlarga ega hududlarda imtiyozli kreditlar hajmini oshirish, trening va kasbiy tayyorgarlik dasturlarini kengaytirish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish orqali xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligini yanada kuchaytirish mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligini ta’minlashda uch asosiy omil hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash. Imtiyozli kreditlar, subsidiya va grantlarning kengaytirilishi ayollarning biznes yuritish faoliyatiga kirib kelishini sezilarli darajada rag‘batlantirmoqda. Ikkinchidan, bilim va ko‘nikmalarni oshirish. Ko‘plab xotin-qizlar tadbirkorlikni boshlash uchun yetarli malaka va tajribaga ega emas. Shu bois ularni qayta tayyorlash, kasb-hunar kurslariga jalb qilish va biznes boshqaruvi bo‘yicha treninglar tashkil etish dolzarbdir. Uchinchidan, huquqiy va institutsional qo‘llab-quvvatlash. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va hukumat qarorlari xotin-qizlarning mehnat bozoridagi huquqlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.



1-rasm: Hududlar bo‘icha ayollar tadbirkorligi ko‘rsatkichlari [12]

Shuningdek, xalqaro tajribani o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat-xususiy sheriklik keng qo‘llaniladi. Masalan, Germaniya va Fransiyada ayollarga mo‘ljallangan maxsus inkubatsiya markazlari va biznes-inkubatorlar faoliyat yuritadi. Ular tadbirkor ayollarga biznes-reja tuzishda, moliya manbalarini izlashda va bozorlarni o‘rganishda yordam beradi. Ushbu tajribani O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish ayollar bandligini oshirishda muhim natija berishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolardan yana biri – gender stereotiplari ta’sirida xotin-qizlarning ko‘plab sohalarda o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etolmasligidir. Masalan, ishlab chiqarish, IT sohasi yoki yuqori texnologiyalar bilan bog‘liq tarmoqlarda ayollarning ulushi nisbatan past. Bu esa ularning iqtisodiy faolligini faqat an’anaviy sohalar (tikuvchilik, oziq-ovqat ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish) bilan cheklab qo‘ymoqda. Shu sababli kelgusida xotin-qizlarni yuqori texnologiyali tarmoqlarga jalb etish, ularning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish nafaqat bandlik darajasini oshiradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, ayollar tomonidan tashkil etilgan kichik biznes subyektlari ijtimoiy mas’uliyatni kuchliroq namoyon etadi: ular ko‘proq mahalliy resurslardan foydalanadi, hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratadi va jamiyatda barqaror ijtimoiy muhit shakllanishiga hissa qo‘shadi.

Bundan tashqari, iqtisodiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayollar rahbarlik qilayotgan kichik biznes subyektlari erkaklar rahbarlik qilayotgan korxonalarga nisbatan 1,2 baravar ko‘proq xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu esa xizmat ko‘rsatish sektorining tez sur’atlarda rivojlanishiga va aholining ehtiyojlarini qondirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligining rivojlanishi oilaviy daromadlar o‘sishiga ham olib kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayol tadbirkorlar tomonidan yaratilgan qo‘shimcha daromadning katta qismi oilaning farovonligi va farzandlar ta’limiga yo‘naltiriladi [13].

Shuningdek, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda xotin-qizlar barqaror ish bilan bandligini ta’minlashning istiqbollari kengdir. Ammo bu borada moliyaviy, tashkiliy va ijtimoiy to‘siqlarni bartaraf etish lozim. Xotin-qizlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish uchun kredit-moliya infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ularning kasbiy malakasini oshirish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan dasturlarni kengaytirish va gender tengligini mustahkamlash zarur. Natijada, mamlakatimizda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi oshib, ularning barqaror ish bilan bandligi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi.

Xulosa

O‘zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi xotin-qizlar uchun barqaror ish bilan bandlikni ta’minlashda eng muhim sohalardan biri sifatida shakllanmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligi mamlakatning iqtisodiy o‘sishi, yangi ish o‘rinlari yaratish, oilaviy farovonlikni oshirish hamda gender tengligini ta’minlashda katta o‘rin tutadi. Toshkent shahri, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida ayollar tadbirkorligi yuqori darajada rivojlangan bo‘lsa-da, Qoraqalpog‘iston va ayrim chekka hududlarda bu borada orqada qolish kuzatilmoqda.

Shunday ekan, istiqbolda hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, imtiyozli kreditlar hajmini oshirish, ayollarning kasbiy malakasini rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlash zarur. Bundan tashqari, davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy va institutsional sharoitlarni yanada kengaytirish, xalqaro tajribalarni joriy qilish va innovatsion yondashuvlardan foydalanish ayollar bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlar bandligini oshirish O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy adolatni ta’minlash va milliy taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlarga erishishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-81-sonli Farmoni “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi faolligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-avgustdagi PQ–5216-son qarori “Xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari (2024).
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (2024).
5. Ayollar tadbirkorligi jamg‘armasi hisobotlari (2023–2024).
6. World Bank. (2023). Women Entrepreneurs in Emerging Markets: Challenges and Opportunities. Washington, DC.
7. UN Women. (2022). Gender Equality and Women’s Economic Empowerment in Central Asia. New York.
8. OECD. (2021). SMEs and Entrepreneurship Outlook. Paris: OECD Publishing.
9. Kabeer, N. (2020). Gender, Labour, and Economic Development. London: Routledge.

10. Roomi, M. A., & Parrott, G. (2019). Barriers to Development and Progression of Women Entrepreneurs in Developing Countries. Journal of Entrepreneurship.

11. Brush, C. G., Greene, P. G., & Hart, M. M. (2018). Women Entrepreneurs and the Global Economy. Cheltenham: Edward Elgar.

12. Minniti, M., & Naudé, W. (2017). Female Entrepreneurship: Constraints and Opportunities. World Development Journal.

13. Carter, S., & Marlow, S. (2016). Exploring the Impact of Entrepreneurship on Gender Equality. International Small Business Journal.

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali

+998 71 239 28 13
Tashkent, Uzbekistan
ilmiymaktab@gmail.com
www.laboreconomics.uz